

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA NASIMA SAIDBURXONOVNA

**ARUZ VA MUMTOZ POETIKAGA
KIRISH**

Universitetlarning 60230100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek),
pedagogika institutlarining - o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi uchun

O‘QUV QO‘LLANMA

"Buxoro nashr" – 2022-y.

UO'K 821.512.133.09-1

KBK 83.3(5O')

Q 53

Qodirova, Nasima Saidburxonovna.

Aruz va mumtoz poetikaga kirish [Matn] : o'quv qo'llanma / N.S. Qodirova. – Buxoro: "Buxoro nashr", 2022. 120 b.

Turkiy va fors-tojik mumtoz she'riyatining asosiy o'lchov tizimi bo'lgan aruz, uning nazariyasi va amaliyoti, turkiy aruzning o'ziga xos ritmikasi hamda qonuniyatlarini o'rganish va o'rgatish filologiya sohasining muhim vazifalaridan biridir. Zero vazn she'r badiiyati va jozibasining asosiy unsurlaridan bo'lib, uni o'rganish badiiy asar matnining mukammalligi, undagi shakl va ma'no munosabati, ijodkor mahorati, asarning badiiy barkamolligi haqida tasavvur hosil qilishning asosiy omillaridan biridir.

Ushbu o'quv qo'llanmada aruz vaznlar tizimining tarixiy taraqqiyoti, nazariy qonuniyatları va amaliyotini o'rganish, rang-barang vaznlarda yaratilgan mumtoz nazm namunalarining o'ziga xos ritmikasini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan "Aruz va mumtoz poetika" fanining asosiy mazmuni o'z ifodasini topgan. Qo'llanma "filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishi talabalari, magistrantlari hamda shu soha yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir
filologiya fanlari doktori Sh.N. Axmedova

Taqrizchilar
filologiya fanlari doktori M.Rajabova
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Z.Quvonov

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8808-9-4

© Qodirova N.S., 2022

*Taniqli adabiyotshunos va
aruzshunos olim Mirzaahmad
Olimovning porloq xotirasiga
bag'ishlanadi*

1-MAVZU: ARUZ TIZIMI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT.

Reja:

- 1. She'riy tizim tushunchasi.**
- 2. Aruz she'r tizimi haqida.**
- 3. Aruzning paydo bo'lishi. Nazariy asoslari.**
- 4. Arab va turkiy aruzshunoslikda yaratilgan manbalar haqida ma'lumot**

Jahon xalqlari she'riyati taraqqiyotini kuzatganda ularda qo'llanilgan she'riy vaznlar quyidagi ikki she'riy tizim asosida yuzaga kelganligini ko'rish mumkin:

- 1.Kvantitativ she'riy tizimlar.
- 2.Kvalitativ she'riy tizimlar.

Kvantitativ lotin tilidan olingan bo'lib "quantitas" – miqdor degan ma'noni bildiradi. Bunday vaznlar manbalarda metrik (metr-o'lchov) vaznlar nomi bilan ham yuritiladi. Kvantitativ she'riy tizimlar misradagi uzun va qisqa bo'g'lnarning tartibli almashinishiga va bu orqali talaffuzda erishiladigan satrlar va ohang mutanosibligiga asoslanadigan she'riy tizimlardir. Bu kabi she'riy tizimlar odatda unlilarning uzunligi va qisqaligi semantik farqlanadigan tillarda qo'llaniladi. Masalan, qadimgi yunon, rim, sanskrit lirkasida kvantitativ she'riy tizimlar qo'llanilgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra bu tizim fin va klassik xitoy lirkasiga ham xosdir. Shuningdek, arablar tomonidan iste'molga kiritilgan aruz she'riy tizimi ham kvantitativ she'riy tizim hisoblanadi. Kvantitativ she'riy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri unda musiqiylikning yuqori bo'lishidir. Kvantitativ she'riy tizimlar antik adabiyotda she'riyat hali musiqadan ajralmagan qadimgi davrlarda paydo bo'lgan, she'riyat va musiqa ajralib,

alohida rivojlangach o`rta asrlarga kelib kvantitativ she`riy tizimlar iste` moldan chiqib, o`z o`rnini kvalitativ she`riy tizimlarga bo`satib berdi. XIX asr filologlari kvantitativ she`riy tizimlar haqidagi qarashlarida eng qadimgi xalq ijodiyotida so'z butunlay musiqaga bo'ysunadi va barcha xalqlarning lirik ijodi tabiiy ravishda bu bosqichdan o'tadi, deb hisoblaganlar.

2. Kvalitativ lotin tilidan olingan bo`lib, “sifat, urg‘uli” ma’nolarini bildiradi. Kvalitativ she`riy tizimlar deyilganda misralardagi bo`g`inlar miqdorining tengligi, urg‘ularning muayyan tartibiga asoslanadigan she`riy tizimlar nazarda tutiladi. Bo`g`inlar miqdori va urg‘ular tartibiga asoslanuvchi she`riy tizimlar uchta guruhga bo`linadi:

1. Sillabik (bo`g`in) – bo`g`inlar yoki hijolar sonining tengligiga asoslanuvchi vaznlar.
2. Tonik (urg‘u) – urg‘uli bo`g`inlarning muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar.
3. Sillabik-tonik (bo`g`in-urg‘u) – bo`g`in va urg‘ularning miqdori hamda muayyan tartibiga asoslanuvchi vaznlar.

Rus, fransuz, polyak, serb va boshqa xalqlar she`riyatni, shu jumladan, o‘zbek she`riyatidagi barmoq she`riy tizimi kvalitativ she`riy tizimlar sirasiga kiradi.

Demak, barcha xalqlar she`riyatida nazmning asosiy o‘lchov birliklari harf (tovush), hijo (bo`g`in yoxud undan kattaroq birlik) va urg‘udir.

Odatda aruz she`riy tizimi haqida so`zlaganda “aruz vazni” tarzida qo’llanilganini ko`ramiz, ammo bu noto`g`ri ibora. Chunki vazn – konkret she`rda yuzaga chiquvchi ritmik hodisa¹ bo`lib, aruz she`riy tizimiga nisbatan vazn istilohi nihoyatda tordir. Aruz she`riy tizimi tarkibiga kiruvchi ko`plab vaznlar borki, ular haqida keyingi mavzularda to`xtalamiz.

Aruz vaznlar tizimi haqida dastlabki tushunchaga ega bo‘lishdan avval uni o`rganishning ahamiyati va zarurati haqida to`xtalsak.

¹ Адабиётшунослик лугати. Д.Куранов

1. Aruz qoidalari bilish, murakkab vaznlarda yozilgan baytlarni taqte' qila olish (ritmik bo'laklarga ajrata olish) azaldan salohiyat, iqtidor, ta'bir joiz bo'lsa, yuksak madaniyat belgisi sanalgan.

2. Aruzni, uning o'ziga xos ohanglarini bilish, shu vaznda yozilgan asarlarning faqat mazmunidangina emas, ohang jozibasidan ham zavqlana olish, shu mazmunning shakl bilan mutanosibligini his qilishga yordam beradi. Bunday zavqni, odatda, so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

3. Aruz qonuniyatlarini puxta o'rganish ijodkor badiiy mahoratini to'laroq tasavvur qilish imkonini beradi. O'zbek adabiyoti tarixida vazn imkoniyatlaridan mohirona foydalanadigan, yangi vaznlar ijod eta oladigan, an'anaviy vazn talablariga to'la rioya etadigan hamda an'anaviy vazn qoliplaridan ba'zan chetga chiqadigan shoirlar mavjud. Bu esa shoir badiiy mahorati mezonlaridan biridir.

4. Aruz mustahkam o'lchovlarga ega bo'lganligi uchun uning yordamida she'riy matnlardagi odatiy va tasodifiy xatolarni aniqlash imkoniyati mavjud. Masalan, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan mashhur bayt:

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo'q/ xalq g'ami/din g'ami.
– VV – / – V V – / – V –

Ikkinchisidagi misraning uchinchi hijosi qisqa bo'lganligi uchun "oniki" so'ziga "m" tovushini qo'shishning iloji yo'q. Aks holda "mufta'ilun" rukni "fo'ilotun"ga aylanadi. Bu esa "Hayrat ul-abror" dostoni vazniga xilofdir.

5. Aruzni bilish she'riy janrlarni farqlash va to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi. Zero, ruboiy, tuyuq, mustazod, noma (yoxud muhabbatnoma), sayohatnoma kabi janrlar uchun vazn asosiy xususiyat sanaladi.²

6. Alisher Navoiyning fikriga ko'ra, aruz vaznlari arab she'riyatida ancha qadimdan qo'llangan. Shuningdek, "Qur'oni Karim"dagi ayrim oyatlar, Payg'ambar (s.a.v.) hadislari ham aruz vaznlariga mos ekanligini

² Tohirov S.Q. Aruz vazni qoidalari. O'quv qo'llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2020. – B. 172. (9-bet)

ta'kidlab Navoiy bir necha misol ham keltiradi: “Ammo bilgilkim, aruz fanikim, nazm avzonining³ mezonidur⁴, sharif⁵ fandur. Nevchunikim, nazm ilmining rutbasi⁶ bag‘oyat biyik⁷ rutbadur. Andoqki, haq subhanahu va taoloning kalomi majidida ko‘p yerda nazm voqe’ bo‘lubdurki, aruz qavoidi⁸ bila rostdur. Ul jumladin biri bu oyatdurkim “Lan tanoval birra hatta tunfiqun”⁹dur, “ramali musaddasi mahzuf” voqe’ bo‘lubdur. Va yana budurkim: “Val-mursaloti urfan, fal-osifoti asfan”¹⁰kim vazni “maf’uvlu fo’ilotun maf’uvlu fo’ilotun”dur... Va rasul sallallohu alayhi vasallam ahodisida¹¹ dag‘i ham bu tariq tushubdur. Ul jumladin biri budurkim, “man akrama oliman faqad akramani”¹²kim, vazni “maf’uvlu mafo’ilun mafo’iyulu fa’ul”dur va ruboiy vaznida “hazaji axrabi maqbuzi makfufi majbub” voqe’ bo‘lubdur”¹³. Demak, aruz Qur’oni karim va Hadisi shariflarda voqe` bo`lgan ekan, uni o`rganish – musulmon farzandi uchun bir sharaф.

Aruz tizimini o`rganishning zarurati xususida so`z yuritganda o`zbek she`riyati va undan oldingi qadimgi turkey adabiyotning umumiylar merosini ko`z oldimizga keltirishimiz kifoya. Bu adabiyotning faqatgina islomiy madaniyatdan oldin yoki chetda yaratilgan qadimgi turkiy yodgorliklardagi she`riy unsurlar va “Devoni lug`itit turk”dagi she`riy parchalargina aruzdan xoli. Turkiy xalqlar badiiy ijodining hozirgacha ma`lum ilk asarlari – “Qutatg`u bilig”, “Hibatul haqoyiq” aruz tizimida yozilgan. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg`oniy, Nosiruddin Rabg`uziy ijodida ham aruzga doir namunalar bir qancha. Ammo bulardan so`ng, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Sakkokiy, Lutfiylardan boshlab to XX asrning boshlarigacha

³ avzon – vazn so‘zining ko‘plik shakli, vaznlar.

⁴ mezon – o‘lchov.

⁵ sharif – sharaflı.

⁶ rutba – martaba, daraja

⁷ biyik – yuqori, yuksak

⁸ qavoid – qoida so‘sining ko‘plik shakli, qoidalar

⁹ Tarj. “Suygan narsalaringizni infoq-ehson qilib bermaguningizcha hargiz yaxshilikka (jannatga) yetmagaysiz” (Qur’oni Karim, “Oli Imron” surasi, 92-oyat).

¹⁰ Tarj. “Paydar-pay yuboriladigan shamollar va quturadigan bo‘ronlar (ga qasam)” (Qur’oni Karim, “Val Mursalot” surasi, 1-2-oyatlar).

¹¹ ahodis – hadis so‘zining ko‘plik shakli, hadislar.

¹² Tarj. “Kim olimlarni e’zozlasa, o‘zi ham e’zozlanadi”

¹³ Mezon ul avzon 45 bet

bo`lgan yozma o`zbek she`riyati to`lig`icha aruz tizimida yaratilgan. XX asrda adabiyotimizda barmoq vaznida ijod etila boshlangan bo`lsada, aruzda ham betakror asarlar yaratish an`anasi saqlab qolindi va bu an`ana bugunga qadar davom etmoqda.

Bundan tashqari, yozma adabiyotni ishg`ol qilgan aruz tizimi sekin-asta og`zaki ijodga ham kirib bordi. Bu haqda o`z davrining yetuk aruzshunoslari Alisher Navoiy hamda Bobur o`zlarining aruzga doir asarlarida ko`plab ma`lumotlar va namunalar keltirganlar.

Demak, o`zbek she`riyatini o`rganish, undan bahra olishni maqsad qilgan kishi aruz tizimini chetlab muddaosiga erisha olmaydi.

Aruzning paydo bo`lishi. Nazariy asoslari.

Aruz she`riy tizimi dastlab arab adabiyotida, yana ham aniqrog`i, arab xalq og`zaki she`riyatida paydo bo`lgan. Arab xalifaligi davrida islomning boshqa o`lkalarga ham yoyilishi munosabati bilan fors-tojik adabiyoti, u orqali turkiy adabiyotga kirib kelgan. “Aruz” istilohining kelib chiqishi borasida turlicha qarashlar mavjud.

1. Alisher Navoiy “Mezon ul avzon” asarida bu atama vazn asoschisi Xalil Ibn Ahmadning vatani bo`lmish Arabiston yarim orolida jaylashgan bir vodiyning nomi bilan bog`liqligi, u vodiyyagini kishilarning asosiy mashg`uloti vaqtinchalik uy – chodir tikib sotishdan iborat ekanligini aytadi. Shuningdek, arablar uyni “bayt” so‘zi bilan ifodalashlari sababli Xalil Ibn Ahmad she`rning eng kichik qismini shu so‘z bilan nomlagan. Aruz tizimidagi atamalarning ko`pchiligi shu vodiy xalqining urf-odatlari, ashylari nomidan olingan.

2. Shuningdek, “aruz” so‘zi, uyning (chodirning) asosini tashkil etuvchi ustunlar (ruknlar)dan birining nomini ham ifodalar ekan. Vohid Tabriziyning fikriga ko`ra, vaznning nomi aynan shu so‘zdan olingan.

3. Fors-tojik aruzshunoslining asoschilaridan biri bo`lgan Shamsiddin Muhammad Qays Roziy o`zining “Al-Mu’jam” asarida “aruz” atamaning kelib chiqishi haqida mulohaza yuritar ekan, aruz she`riy nutq o`lchovi ekanligi, vaznli she`r vaznsizdan, to‘g`risi noto‘g`ridan farqlansin

uchun she'rni unga arz qilishlari vajidan unga "aruz" nom berilganini aytadi.

Ushbu mulohazalarning qaysi biri haqiqatga yaqinligidan qat'iy nazar, biz "aruz"ning istilohiy ma'nosini bilan ish ko'ramiz, ya'ni, "aruz" deganda Sharq she'riyatida keng tarqalgan kvantitativ she'r tizimini tushunamiz.

Aruz she'r tizimi IX asrdanoq forsiy tildagi adabiyotda ham qo'llanila boshlangan. Turkiy xalqlar adabiyotida, jumladan o'zbek adabiyotida ham aruzning qo'llanila boshlashi taxminan shu vaqtga to'g'ri keladi degan fikr mavjud. Fitrat bu haqda to'xtalib: "Bizning O'rta Osiyo turklari tomonidan qachon qabul etilgani aniq emas. Biroq hijriy 462 da Qashqarda yozilgan mashhur "Qutadg'u bilik" kitobining shu aruz vaznida yozilg'ani e'tibor etilsa, juda eskidan qabul etilgani ma'lum bo'ladur", - deb yozadi. Demak, turkiy tildagi aruzda yaratilgan ilk asar sifatida hozircha "Qutadg'u bilik" tan olinar ekan, aruzning turkiy adabiyotda qaror topishi taxminan X-XI asrlarga to'g'ri keladi deyish mumkin. Biroq arab, fors-tojik va turkiy tillarning fonetik, leksik va grammatik jihatdan tubdan farq qilishi tufayli, har bir tildagi aruzning o'ziga xos belgilarini yoritish, aruzni boshqa tillarga moslashtirish muammosi yuzaga chiqdi. Natijada, "forsiy aruz", "turkiy aruz" kabi maxsus atamalar vujudga keldi, she'riyat ravnaq ropa borgan sari Xalil ibn Ahmad tomonidan ko'rsatilgan bahr va vaznlar doirasi kengayib bordi. Bular o'z navbatida aruzga doir yangi ilmiy asarlar yaratish zaruratini yuzaga keltirdi.

Mahmud Zamaxshariyning "Al-qistos", Abu Jaysh Andalusiyning "Aruzi Andalusiy", Abu Zakariyo Xatib Tabreziyning "Al-kafi fil aruz val-qavofiy", Rashiddin Vatvotning "Hadoyiq us-sehr", Ibn Hojibning "Ilm ul-aruz", Shamsiddin Muhammad ar-Roziyning "Al-Mu'jam fi ma'oyiri ash'oril ajam", Nosiruddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" kabi asarlari mana shu zarurat tufayli yuzaga kelgan. Sanalganlar orasida Shams Qays Roziy va Nosiruddin Tusiy asarlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, keyingi davr aruzshunosligining rivoji uchun asosiy metodologik asos vazifasini o'tadi.

Aruzshunoslik tarixida XV-XVI asrning birinchi yarmi, ya’ni temuriylar davri alohida o‘ringa ega. 1437-yilda Shayx Xudoydodi Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug‘bek topshirig‘i bilan yozgan “Funun ul-balogs‘a” asari turkiy tilda mazkur masala tahliliga bag‘ishlangan ilk manba ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Abdurahmon Jomiyning “Risolayi aruz”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy”, Zahiriddin Boburning “Muxtasar”, Atoulloh Husayniyning “Badoye’ us-sanoye” kabi asarlarida ham she’rshunoslikning boshqa jihatlari (janrlar, badiiy san’atlar) bilan bir qatorda, turkiy va forsiy aruz nazariyasi hamda o‘z davriga ko‘ra vazn amaliyotiga oid fikr-mulohazalar, qonuniyatlar o‘z ifodasini topgan. Sanalganlar orasida Navoiy va Boburning asarlari turkiy – o‘zbek tilida ekanligi hamda shu muammoga maxsus bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.¹⁴

Aruz she’riy tizimini tadqiq etishga bag‘ishlangan tadqiqotlar XX asrda ham yaratildi. Rus olimlari Y.E.Bertels, M.Stebleva, tojik adabiyotshunoslari B.Sirus va M.Zehniy, U.Tirov, S.Solihov, R.Musulmonqulov, A.Nadjibullohi hamda o‘zbek olimlaridan A.Fitrat, I.Sultonov, S.Mirzayev, E.Talabov, A.Rustamov, Sh.Shomuhammedov, U.To‘ychiev, S.Hasanov, H.Boltaboyev, A.Hojiahmedov kabilarning ishlari aruzni isloh qilish, yangi zamon talabiga moslashtirish, ilmiy asoslarini mustahkamlash borada olib borilgan tadqiqotlardir.

Shuningdek, aruzni o`rganishni maqsad qilgan bugungi kun kitobxoni uchun U.To‘ychievning “O‘zbek poeziyasida aruz sistemasi” monografiyasi, A.Hojiahmedovning “O‘rta maktabda aruzni o‘rganish”, “O‘zbek aruzi lug‘ati”, “Navoiy aruzi nafosati” kabi qator kitoblari, M.Olimovning “Risolai aruz”, A.A’zamovning “Aruz”, N.Shodmonovning “Aruz vazni asoslari”, D.Zohidovaning “Aruz saboqlari”, D.Yusupovning


¹⁴ Temuriylar davrida yaratilgan aruz ilmiga oid asarlar haqida to‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang: Yusupova D. “Temuriylar davridagi aruzga doir risololarning qiyosiy tahlili”. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. www.navoiy-uni.uz, www.ziyonet.uz.

“Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg‘unligi”, “Aruz alifbosi” qo‘llanmasi asosiy manbalar bo`lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, aruzni amaliy va nazariy o`rganishning eng birlamchi manbasi – bu aruzda yaratilgan sheriyatning o`zi. Shu sabab aruzni o`rganishga bel bog`lagan tolib ishni aruz tizimida yaratilgan she`riyatni ko`proq o`qish, ularning ichki ohangini nozik ilg`ab olishdan boshlashi lozim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. She`riy tizim nima? Qanday she`riy tizimlar bor?
2. “Aruz” atamasining lug‘aviy va istilohiy ma’nolarini izohlang.
3. Aruzshunoslik sohasida turkiy tilda yaratgan qaysi asarlarni bilasiz?
4. Aruz she`riy tizimini isloh etish borasida qanday ishlar amalga oshirilgan?
5. Aruzni o`rganish borasida bugungi kunda yaratilgan qanday tadqiqotlarni bilasiz?
6. Quyidagi “Venn diagrammasi” asosida vaznlarga xos xususiyatlarni yoriting.



2-MAVZU: ARUZ ILMIDA HIJO TUSHUNCHASI.

Reja:

1. Hijo va bo‘g’in tushunchalarining qiyosi.
2. Hijo turlari haqida. Cho‘ziq, qisqa va o‘ta cho‘ziq hijolar.
3. Ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Harf, juzv tushunchalari haqida ma’lumot

Aruz hijolarning soni va sifatiga asoslangan sheriyliz tizim. Hijo o`zina nima? Turkiy aruzshunoslikda eng kichik ritmik bo‘lak hijo hisoblanadi. Hijoni tilshunoslikdagi “bo`g`in” tushunchasi bilan qiyoslash mumkin. Barmoq vaznini o‘rganishda “bo‘g`in” tushunchasi bilan ish ko‘rish mumkin, aruz ilmida esa doimo “hijo” tushunchasi bilan ishlanadi. Avvalo, bo‘g`in bilan hijoning farqini ko‘rib o‘taylik:

Lab-la-ring-kim hayf e-rur teng tut-moq o-ni qand i-la, 15

Sin-di-rur yuz qand bo-zo-ri-ni shak-kar xand i-la. 14

Baytni bo`g`inga ajratganda birinchi misra 15, ikkinchi misra 14 bo`g`indan iborat bo`ladi. Endi baytni hijoga ajratib ko`raylik:

Lab-la-ring-kim | hay-f e-rur teng | tut-mo-q o-ni | qan-d i-la, 15

Sin-di-rur yuz | qan-d(i) bo-zo | -ri-ni shak-kar | xan- d i-la. 15

Biz hozir baytni bo‘g`inlarga emas, hijolarga bo‘lib chiqdik. Ko‘pincha (masalan, 1-misrada) bir bo‘g`in bir hijoga teng bo`ladi. Lekin har doim emas. Masalan, “qand” so‘zi bir bo‘g`indan iborat, lekin ushbu baytda u ikki hijoga teng. Birinchi misradagi hayf erur birikmasi hayf e-rur tarzida uch bo‘g`inga ajratiladi, ammo u yuqoridagi baytda uch hijoga “hay-f e-rur” tarzida ajratilsa-da, hayf so‘zi oxiridagi undosh keyingi so‘zning unli bilan boshlanuvchi 1-bo‘g`iniga bog‘lanib, u bilan birgalikda “fe” tarzida talaffuz qilinadigan bitta hijoni hosil qiladi. Xuddi shunday holatni baytdagi “tut-mo-q o-ni”, “qan-d i-la” birikmalarini hijoga ajratishda ham ko‘rish mumkin.

Ko`rinadiki, bo‘g`in va hijoning nozik farqlari bor va ularni mashg`ulotlar davomida mukammalroq o‘rganib olamiz.

Aruz hijolarning soni va sifatiga asoslangan sheriy tizim dedik, hijoning nima ekanligi, ularning soni tushunarli, xo'sh hijoning sifati deganda nima nazarda tutiladi?

Hijoning sifati – bu uning qisqa va cho`ziqligi bilan bog`liq. Shunga ko`ra aruz ilmida hijolar uch turga bo`linadi:

1. Qisqa hijo (V)
 2. Cho`ziq hijo (-)
 3. O`ta cho`ziq hijo (~)

Hozirgi aruzshunoslikda bular mana shu shartli belgilar bilan ifodalanadi. Hijolarning sifatini aniqlash uchun bizga tilshunoslikdagi bo`g`inga uning ochiq yoki yopiqligiga doir bilimlarimiz kerak bo`ladi. Tilshunoslikda unli bilan tugagan bo`g`inlar ochiq, undosh bilan tugagan bo`g`inlar yopiq devilar edi.

Qisqa unli qatnashgan ochiq bo`g`inlar odatda **qisqa hijo** bo`lib keladi:

Sa-nam, go`-zal, qa-lam, ba-hor, sa-roy, ki-tob...

V V V V V V

Biroq bu doimiy emas, chunki ular ham bir oz sun'iy ravishda cho'zib aytilishi va cho'ziq hijo bo'lib kelishi mumkin. Masalan:

O-lam, o-tash, be-mor, di-niy, ha-mi-sha, pa-ri-shon, Ma-di-na, sa-o-dat
kabi so‘zlarning ostiga chizilgan bo‘g‘ini ochiq bo‘lsa-da, 100 tadan 99
o‘rinda **cho‘ziq hijo** bo‘lib keladi, chunki ularda cho‘ziq unlilar mavjud va
bu unlilar urg‘u olgan.

Tabiatiga ko`ra qisqa unli bilan tugagan ochiq bo`g`inlar so`z oxirida kelganda vaziyat taqozosiga ko`ra cho`ziq hijo bo`lib kelishi mumkin. Chunki turkiy tilda urg`uning odatda so`zning oxirgi bo`g`iniga tushishi ularni bemalol cho`zib aytishga imkon beradi. Masalan:

Har va - fo - g'a ming ja - fo ham qil - sa qil - sun mun - cha - kim,

V

Yor a - nga mah- ru -mu mah-ram bo`l-ma- sa ag`- yor bas.

Ushbu baytning har ikki misrasida - sa hijosi kelgan, birinchi misrada qisqa hijo, ikkinchi misrada esa cho‘ziq hijo bo‘lib kelmoqda. So‘z

oxiridagi qisqa unli qatnashgan ochiq bo‘g‘inning xohlasa – cho‘ziq, xohlasa – qisqa hijo bo‘lib kelishini ham shu erda ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi hijolarning qachon qisqa va qachon cho‘ziq bo‘lib kelganligini baytni aytib ko‘rish orqali aniqlash mumkin.

Shuningdek, o‘ta cho‘ziq hijo misra o‘rtasida kelganda, ikki hijoga teng bo‘ladi. Asosan, ikkinchi qismi misra ichida qisqa hijo bo‘lib keladi. Masalan,

Char – x(i) - ning men ko‘r – ma - gan jab - ru ja – fo - si qol – di - mu?!

– V

Xas - ta ko‘ng-lim chek – ma - gan dar -du ba – lo - si qol – di - mu?!

(Bobur)

Boburning yuqoridagi baytida “charx” so‘zi – **o‘ta cho‘ziq hijo** hisoblanadi, chunki oxirida ikki undosh mavjud, bu kabi hijolar misra oxirida kelganda hech muammosiz o‘ta cho‘ziq hijo deb belgilanadi. Biroq misra o‘rtasida ularni o‘ta cho‘ziq (~) belgilay olmaymiz. Shu sabab bir cho‘ziq (-) va bir qisqa (V) hijo belgilanadi.

Tarkibida “o”, “u”, “o”’ kabi cho‘ziq unlilar bo‘lgan yopiq bo‘g‘inlar ham **o‘ta cho‘ziq hijo** bo‘lib kelishi mumkin:

Yor - din ay - ru ko‘- ngul mul – ke – du - rur sul – to - ni yo‘q,
- V

Mulk - kim sul – to - ni yo‘q, jis – me – du – rur - kim, jo - ni yo‘q.

Baytdagi “yor” so‘zi o‘ta cho‘ziq hijo bo‘lib kelgan. Misra boshida kelganligi sababli bir cho‘ziq va bir qisqa hijo deb belgilaymiz.

Cho‘ziq unli ishtirok etmagan va ikki undosh bilan tugamagan yopiq bo‘g‘inlar, shuningdek, cho‘ziq unlisi bo‘lgan ochiq bo‘g‘inlar **cho‘ziq hijo** bo‘lib keladi. Dastlab mashqlarda “yopiq bo‘g‘inlar va urg‘u olgan ochiq bo‘g‘inlar odatda cho‘ziq bo‘ladi” degan qoidani yodlab, shunga amal qilish cho‘ziq hijoni o‘rganish va baytlar hijolari sifatini aniqlashda yordam beradi.

Ju-nun vo - diy-si- g‘a mo-yil ko‘-rar-man jo-ni zo-rim-ni,

Ti-lar-man bir yo‘-li buz-mak bu-zul-g‘on ro‘z- go-rim-ni

Baytdagi *vo, mo, jo, zo, go* hijolari tarkibida cho`ziq unli bo`lib, ular urg`u olgan. Shu sabab cho`ziq hijo. *Nun, diy, yil, rar, man, rim, lar, man, bir, buz, mak, zul, g'on, rim* hijolari esa yopiq bo`g`in bo`lganligi uchun cho`ziq hijo hisoblanadi. Xo`sh, *g'a, ni, li* hijolari ochiq bo`g`in, qisqa unlili bo`lsa-da, nega cho`ziq hijo sanaladi? Chunki ular so`z oxirida kelgan va yuqorida aytganimizdek, turkiy tilda urg`uning odatda so`zning oxirgi bo`g`iniga tushishi ularni bemalol cho`zib aytishga imkon beradi.

Baytda izoh berilmagan “ro‘zgor” so`zidagi *ro`z* hijosi qoldi. Ushbu hijo o`ta cho`ziq hisoblanadi va misra o`rtasida kelganligi uchun ikki hijoga teng va bir cho`ziq va bir qisqa hijo deb olinadi. Uning o`ta cho`ziq ekanligini misralardagi hijolar sonini sanash orqali ham tekshirish mumkin. Birinchi misra 16 hijo, ikkinchi misra 15 hijodan iborat. Agar ikkala misralar sonini tenglashtirib olmasak, bayt vaznini topishda qiynalib qolamiz. Ko`rinadiki, ikkinchi misrada bir cho`ziq hijo bor. Tarkibida cho`ziq unlisi bo`lgan har bir hijoni yanada cho`zibroq talaffuz etib ko`ramiz, shunda o`ta cho`ziq hijoni xatosiz ajratib olishimiz va ikki hijo hisoblab misralardagi hijolar sonini tenglashtirib olishimiz mumkin bo`ladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Hijo nima? Uning tilshunoslikdagi bo`g`in bilan aloqasi qanday?
2. Aruz vaznida necha xil hijolar bor?
3. *Kitob, yurt, chashma, osmon, qalam, go`zal, saodat* so`zlarini hijoga ajrating va ostiga tegishli belgini qo`ying.
4. *Falak bedodidan garchi manim xoki g'ubor o'ldum,*
Tilarman, topmag'aylar to'tiyolikka g'uborimni.
Baytni hijoga ajrating va hijolar sifatini aniqlang.
5. Alisher Navoiy devonidan tarkibida o`ta cho`ziq hijosi bo`lgan baytlar toping va hijoga ajratib yozing.
6. Alisher Navoiy g`azalidan keltirilgan quyidagi parcha asosida jadvalni to`ldiring.
Ey, mug'anniy, yor bazmida navo soz aylasang,
Jon fidong o'lsun g'amim sharhidin og'oz aylasang.

*Uddekkuyumakligim sharh et lisoni hol ila,
Nag'mada udung lisonin sehripardoz aylasang.*

<i>Qisqa hijolar</i>	<i>Cho'ziq hijolar</i>	<i>O'ta cho'ziq hijolar</i>

3-MAVZU: ARUZGA XOS FONETIK HODISALAR

Aruz vaznida aruzni o'rghanish uchun nihoyatda ahamiyatli bo'lgan ayrim masalalar bor. Ulardan biri **aruzga xos fonetik hodisalar** deb yuritiladi. Bu hodisalarni o'rghanmay, mashqlarda mustahkamlamay turib aruz vazni go'zalliklaridan bahramand bo'lishning imkonini yo'q. Birgina hodisani payqamay qolib bayt vaznini chiqarolmay xunob bo'lish hech gap emas. Ushbu mavzu doirasida turkiy aruz uchun muhim bo'lgan fonetik hodisalarni ko'rib o'tamiz.

Azl – arabcha so'zdan olingan bo'lib, “chetlatish” ma'nosini anglatadi. Aruzda atama sifatida adabiy tilda cho'ziq o'qiluvchi unlilarning she'riy asarlarda vazn talabiga ko'ra qisqa unli tarzida o'qilishini ifodalaydi. Masalan, Navoiyning

Navoiy, istama eldin junun ilojinkim,

Bu telbalik **aro** yo'q ul paridin o'zga kishing.

baytida **aro** so'zi tarkibidagi “o” unlisi adabiy tilda cho'ziq talaffuz qilinadi. Ammo vazn talabi bilan baytda uni qisqa talaffuz qilamiz. Chunki bayt vazni shuni talab etadi.

Bu kabi holatlar, ayniqsa, o`ynoqi vaznlarga tushadigan baytlarda uchraydi.
Bunga

Lutfiy, Gadoiy ijodidan misollar keltirish mumkin:

Gar husnunga ko`nglim **nigoron** bo`ldi, ne bo`ldi?

Oshuftayu rasvoysi jahon bo`ldi, ne bo`ldi?

Baytdagi nigoron so`zining ikkinchi bo`g`inidagi “o” unlisi adabiy tilda cho`zib aytilsa-da, baytda vazn talabiga ko`ra qisqa talaffuz etiladi. Bu nigoron so`zining bu hijosi doimo qisqa talaffuz etiladi, degani emas. Fonetik hodisalar faqatgina ma`lum baytlar tahlili jarayonida yuzaga kelib, faqat shu bayt uchun xos bo`ladi. Nigoron so`zining mazkur hijosi 100 dan 99, 9 % cho`ziq talaffuz etiladi va cho`ziq hijo bo`lib keladi.

Vasl – arabcha, ulanish, birikish, yetishish ma`nolarini beradi. Atama sifatida aruz tizimi asosida yaratilgan she`riy asarlarni ifodali o`qish jarayonida vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undoshni undan keyingi unli bilan boshlangan hijoga qo`shib talaffuz etish hodisasi. Baytda vasl hodisasi inobatga olinmasa, ohang va vaznga jiddiy putur yetadi. Fonetik hodisalar ichida eng ko`p qo`llaniladigani vasl hodisasi hisoblanadi.

Zulfin ochqonda zanax chohiga tushgay ming ko`ngul,

Qo`ymasa ul choh uza ruxsori sham`in yorutub.

bayti vaznga mos, ifodali o`qilishi uchun “zulfin” so`zining “fin” hijosi oxiridagi “n” undoshini undan keyin turgan “ochqonda” so`zidagi “och” hijosiga ulab, “noch” tarzida talaffuz etish lozim. Aks holda, qisqa hijo o`rnida turgan “fin” hijosi cho`ziq hijo hosil qiladi. Bu esa vaznnning buzulishiga olib keladi.

Vasl hodisasini misra o`rtasida kelgan qo`sh undoshli hijolarda uchrashini ham ko`plab kuzatish mumkin. Masalan, Navoiyning

Hajr aro sargashtamen andoqli, to tutqum qaror

Ish siqilmoqdur, bori olam boshimga aylanib.

baytida vazn va ohang talabi bilan “hajr” so`zining oxiridagi “r” undoshini undan keyin turgan “aro” so`zidagi “a” hijosiga ulab, “ra” tarzida talaffuz etiladi. Aks holda, cho`ziq hijo o`rnida turgan “hajr” hijosi o`ta cho`ziq hijo hosil qiladi, misra o`rtasida kelganligi uchun uni ikki hijoga teng deb

hisoblashga to`g`ri keladi. Bu esa bayt vaznining buzulishiga olib sabab bo`ladi.

Vasli ho – vaslning bir ko`rinishi bo`lib, aruz tizimida yaratilgan she`riy misralardagi ayrim yopiq hijolarning oxirgi undoshini vazn taqozosi bilan o`zidan keying turgan va “h” undoshi bilan boshlanuvchi hijoga qo`shib o`qish hodisasi. Bu hodisa yuz berganda “h” undoshi tushib qoladi, masalan:

Bo`ldi taajjub qiziq **hangomalar**,

Arz etayin emdi yozib nomalar.

baytidagi “**qiziq**” so`zi oxiridagi “q” undoshi o`zidan keying “han” hijosiga qo`shib talaffuz etiladi. Bu jarayonda “han” dagi “h” tushib qoladi va “q” “g” ga aylanib “g`an” (qizi-g`angomalar) tarzida talaffuz etiladi.

Yoki, Mashrab qalamiga mansub

Ko`zima ko`rinur mani dilbarim **har** qayonada,

Ishqini yor ayladim o`zuma bu zamonada.

baytida ham vasli honi uchratishimiz mumkin. “**dilbarim**” so`zi oxiridagi “m” undoshi o`zidan keying “har” hijosiga qo`shib talaffuz etiladi. Bu jarayonda “har” dagi “h” tushib qoladi va hijo “mam” tarzida talaffuz etiladi.

Ushbu vasli ho hodisasi kamdan kam uchrasa-da, o`zbek she`riyatida mavjud. Xususan, xalq og`zaki ijodi ta`sirida yaratilgan “turkona” deb ataluvchi sodda uslubda ijom qiluvchi shoirlar she`rlarida uchraydi.

Imola – aruz atamalaridan bo`lib, vazn taqozosi bilan tarkibida cho`ziq unli bo`lgan ayrim yopiq hijolarni, unlini cho`zib talaffuz qilish hisobiga, o`ta cho`ziq hijo qilib o`qishni ifodalaydi. Masalan, Boburning

Yoz fasli, yor vasli, do`stlarning suhbati,

She`r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati

baytidagi yoz, yor, do`st, she`r, ishq so`zlari tarkibidagi o, o‘, e, i unlilarini ancha cho`ziq talaffuz qilinadi. Bular taqtı’ chog`ida, shuningdek, she`r chizmasida ikki hijo, ya’ni bir cho`ziq va bir qisqa hijo hisoblanadi.

Istihlof – aruz atamalaridan biri bo‘lib, jonli tilda qisqa talaffuz qilinuvchi ba’zi unlilarni she’rni o‘qish chog‘ida cho‘ziq unli sifatida talaffuz qilishni ifodalaydi. Masalan, Navoiyning

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,

Meni istar **kishining** suhbatin ko‘nglim pisand etmas.

baytida «**kishining** » so‘zidagi ikkinchi «i» unlisining cho‘ziq unli tarzida o‘qilishi istihlofga misol bo‘la oladi. Chunki kundalik hayotda «**kishining**» so‘zidagi ikkinchi «i» unlisini qisqa talaffuz qilingani holda (Bir kishining ovozi eshitildi.), yuqoridagi baytda vazn talabi bilan ushbu unli cho‘ziq o‘qilmoqda. Boburning

Qaro zulfung firoqida parishon ro‘zgorim bor,

Yuzungning ishtiyoyqida ne sabru ne qarorim bor baytidagi «firoqida», «ishtiyoyqida» so‘zlaridagi keyingi «i» unlilari hayotiy talaffuzga zid o‘laroq cho‘ziq unli tarzida o‘qiladi. Va istilof hadisasini yuzaga keltiradi.

She’riyatda istilof hodisasi juda ko‘p uchraydi. Lekin bunday holatlarda unlining cho‘ziq talaffuz qilinishi talaffuzda va tinglaganda g`aliz, qulqoqqa malol keladigan darajada bo‘lmasligi kerak.

Tag`yir – «o‘zgartirish» ma’nosini ifodalovchi aruz atamasi bo‘lib, ayrim so‘zlarni vaznga muvofiqlashtirish uchun ularning tarkibidagi ayrim tovushlar, harflar o‘rnini almashtirish usulini ifodalaydi. Mumtoz she’riyatimizda tag`yirning quyidagi shakllarini ko‘rishimiz mumkin:

1. Ayrim so‘zlarning birinchi hijolaridagi harflar o‘rni almashtiriladi. Chunonchi:

Banda g‘am ichra xastaman, zulfung bikin **ishkastaman**,

Ishkastayu ham bastaman, bu qulni, kel, ozod qil!

(Komil Xorazmiy)

Baytda «shikastaman» so‘zining «ishkastaman» tarzida o‘zgartirilganitag‘yit hodisasini yuzaga keltirgan.

2. Ayrim so‘zlarning ikkinchi hijolaridagi tovushlar, harflar o‘rni almashtiriladi. Masalan:

Latofatda yuzung‘ ham gul emish, ham **gulsiton** ermish,

Halovatda labing ham jonu ham oromijon ermish.

(Navoiy)

Bahoru bog‘ sayrin ne qilaykim, dilsitonimning
Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur

(Bobur)

Baytlarda “guliston” so‘zi “gulsiton”, “diliston” so‘zi “dilsiton” tarzida o‘zgartirilgan. So‘zlarning tag‘yirga uchrashi asosan turkiy tilga boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlarda uchraydi. Bu vazn talabi bo‘lishi bilan bir qatorda so‘zni turkiy ohangga moslashtirishni ham ko‘zda tutadi.

3. Ba’zan Atoiy, Navoiy taxalluslarini vaznda muvofiqlashtirish uchun bu so‘zlar oxiridagi ikki harf o‘rni almashtirilib, Atoyi, Navoyi tarzida yoziladi.

Atoyi ko‘zlariga yor xoki rohing erur,
Ki ko‘zga loyiq emas to‘tiyodin o‘zga musohib.
Dayrda ko‘r Navoyini mug‘bachalar g‘amidakim,
Egnida chok xirqavu ilgida bir ayog‘ erur.

4. She’riyatda keng qo‘llanuvchi ayrim so‘zlar vazn taqozosi bilan turlicha tarzda o‘zgartirilib o‘qilishi mumkin:

a) jam’, sham’, nav’, naf’ kabi arabcha ayn harfi bilan tugallanuvchi so‘zlar she’rdagi o‘rniga ko‘ra bir cho‘ziq hijo yoki bir cho‘ziq, bir qisqa hijo tarzida qo‘llanishi mumkin. Masalan:

So‘z ila naf’ o‘lmasa el peshasi,
Yaxshi kerak ko‘nglida andeshasi. (Navoiy)

Bu nav’ ermas ato qo‘ymodi otin,
Ki ko‘rgach ishq aning pokiza zotin. (Navoiy)

Shabistonida ul sham’ o‘ldi ravshan,
Ki bazmi gullaridin bo‘ldi gulshan. (Navoiy)

kabi misralarda bu so‘zlar bir cho‘ziq hijoga teng qilib, naf, nav, sham tarzida o‘qilsa,

Xayr tegurmak gar emas el bila,
Naf’ tegurmak ham o‘lur til bila. (Navoiy)
Ato bu nav’ ko‘rgach ish hisobin,

Munosib angladi ilm iktisobin. (Navoiy)

Necha ul sham' bor erdi dilafruz,

Vale ko'p shu'la tortar erdi jonso'z. (Navoiy)

misralarida bu so'zlar bir cho'ziq va bir qisqa hijoga teng qilib, naf'-i, nav'-i, sham'-i tarzida o'qiladi.

Aruzga xos fonetik hodisalarni sergaklik bilan ilg`ash bayt vaznini xatosiz va qiyinchiliksiz topish imkonini beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Aruz vaznida qanday fonetik hodisalar bor?
2. Aruzga xos fonetik hodisalarni o'rghanishning ahamiyati nimada?
3. Vasl nima?
4. Imola qanday fonetik hodisa?
5. *Qaro-qaro mijaxanjarlarin ititmak ishing,*
Hayot naxlini kesgan qiyo-qiyo boqishing. Baytdagi fonetik hodisani topib, izohlang.
6. *La'ling, ayo, ne ajab rangindur,*
So'zi aning ne balo shirindur. Baytdagi fonetik hodisani topib, izohlang.
7. *Ul oykim, aning mehrida mashhuri jahonman,*
Afsuski, bilmaksi ne chog'liq nigoronman. Baytdagi fonetik hodisalarni topib, izohlang.
8. *Dema ko'ktin quyosh ketmish, falakka tiyralik yetmish,*
Ul oy hajrida tor etmish falakni dudi afg'onim.
Baytdagi fonetik hodisalarni topib, izohlang.
9. *Bilman, ko'ngulda xollaringning xayolidur*
Yo kirpiging tikanlarin aylabsen ustuvor?
Baytdagi fonetik hodisalarni topib, izohlang. Bayt vazniga ta'siriga ahamiyat bering.
10. *Garchi o'zga yor istar xotirim, bordur valek,*
Jon anga manzil, ko'ngul oning visoqidur hanuz.
Baytdagi fonetik hodisalarni topib, izohlang. Bayt vazniga ta'siriga ahamiyat bering.

4-MAVZU: RUKN HAQIDA MA'LUMOT. ASLIY RUKRLAR.

Reja:

1. Rukn tushunchasi. Rukn misraning ritmik bo'lagi sifatida.
2. Ruknlarning vujudga kelishi.
3. Asliy ruknlar: *fauvlun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, maf'uvlotu, mafoilatur va mutafoilun*.
4. Tarmoq ruknlar. Zihoflar haqida ma'lumot.

Aruz tizimi o'ziga xos izchillikka ega. Avvalgi mavzularda aruz vaznidagi eng kichik o'lchov birligi hijo ekanligini ko'rib o'tdik. Turkiy aruzda hijolarning birikishidan **ruknlar** yuzaga keladi. Ruknlarning birikuvidan bahrlar hosil bo'ladi.

Hijo → rukn → bahr

Rukn - (arabcha ko'plik shakli arkon) so'zining ma'nosi ustun bo'lib, rukn aruz vaznidagi asosiy o'lchov birligidir. Hijolarning ma'lum tartibda birikishi rukn deyiladi. Ruknlarning aruz vaznidagi o'rni va ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, Alisher Navoiyning so'zlari bilan aytganda, aruz binosi ana shu ustunlar ustiga bino qilingan. Uy (bayt)ning asosi ustunlar bo'lganidek, baytning asosi ruknlardir. Aruz ilmida baytning ritmik bo'laklari ruknlardir. Barmoq vaznida misralar turoqlarga bo'linganidek, aruz tizimida misralar ruknlarga ajraladi. Turoq bilan rukn qaysidir jihatdan bir-biriga o'xshab ketsa-da, ularning o'rtasida jiddiy tafovutlar bor. Jumladan:

1. Turoq faqat bo'g'inlar sonining tengligini talab etadi. Rukn esa hijolar sonining tengligini ham, ularning cho'ziq-qisqaligi(sifati)ga ko'ra uyg'unlik hosil qilishini ham talab etadi.

2. So'zlar o'rtasidan turoqlarga bo'linmaydi, ruknlarga ajratishda so'zlar o'rtasidan bo'linishi mumkin:

Mayus kunim / ko'zim tushsa,

Kuyar osmon, / tushunmaysan.

Meni samo / tushungaydir,

Sen, ey inson, / tushunmaysan

Misralar har biri to'rt bo'g'inli ikkita turoqqa bo'lingan va turoq oxirida so'z ham tugagan.

Aruz vaznida rukn tugagan joyda so'z tugashi shart emas:

Xazon **yafro** - | **g'i** yanglig' gul | yuzung **hajri** - | **da** sarg'ardim,

Ko'rub rah-may- | **lagil**, ey **lo** - | **laruh**, bu **cheh** -| **rai** zardim.

Birinchi, uchinchi, beshinchi, oltinchi va yettinchi bo'g'indan keyin rukn tugagan, lekin so'z tugamagan.

3. **Turoq** odatda bir misrada ikkita bo'ladi:

Negadir yosh bola / va yoki bemor,

Gunoh ish qilgandek / boqar javdirab.

Ovozingni baland / qildingmi bir bor,

Ular hadik ichra / qolar dovdirab.

Rukn misrada ikkita, uchta yoki to'rtta bo'lishi mumkin (tavil usulida yozilgan she'rlar bundan mustasno).

4. Turoqlar pauza bilan ajratiladi, ruknlar esa o'z ritmiga ega bo'lib, pauza bilan ajratilmaydi.

5. Turoqlar maxsus nomga ega emas. Ruknlar esa o'sha ohangni aks ettira oladigan shartli so'zlar yordamida "nomlanadi".

6. Turoqlarni ifodalovchi paradigmalar mavjud emas, ruknlarni ifodalash uchun esa maxsus paradigmalar qo'llaniladi (V - - / -V- -).

Aruz ilmida 8 ta asliy rukn bor:

1. Foilotun (- V - -)
2. Mafoiylyn (V - - -)
3. Fa'uvlun (V - -)
4. Foilun (- V -)
5. Mustaf'ilun (- - V -)
6. Mutafoilun (V V - V -)
7. Mafoilatun (V - V V -)
8. Maf'uvlotu (- - - V)

Bu so'zlar lug'aviy ma'no anglatmaydi, ular arab tilidagi "fe'l" (harakat) so'zi bilan o'zakdosh bo'lganligi uchun ruknlar "afoyil va tafoyil" (ba'zi manbalarda "afoyil va tafoyl") deb ham yuritiladi. Ular

xuddi “bakko bak”, “tarannannan” kabi shunchaki ohangni bildirish uchun ishlataladigan shartli so‘zlardir.

Alisher Navoiyning fikriga ko`ra, mazkur asliy ruknlarning beshtasi fors-tojik va turkiy she’riyatda qo‘llanadi: “*Va ulcha bu sekkiz usuldin forsiy she’rda kasirul vuqu’dur – beshdur: mafo’iylun va fo’ilotun va mustaf’ilun va maf’uvlotu va fa’uvlun. Va turkcha she’rda ham ulcha mulohaza qilibbdur, bu arkondin o’zga vuqu’ topmas*”. Binobarin, fo’ilun, mutafo’ilun va mafo’ilatun asliy ruknlari arab she’riyatiga xos bo‘lgan ruknlardir.

Aruz vaznining murakkab jihatlaridan biri shundaki, ruknlar sakkiz asliy ruknning o’zidangina iborat emas. Ularning soni amalda anchagina ko’p. Buning sababi shuki, asliy ruknlar ijod jarayonida xilma-xil o’zgarishlarga uchraydi. Asliy ruknlar tarkibida, jumladan, quyidagi o’zgarishlar sodir bo’lishi mumkin:

- a) ruknlar tarkibidagi hijolarning son jihatdan o’zgarishi, ya’ni bir yoki bir necha hijo tushib qolishi yoki ortishi;
- b) ruknlar tarkibidagi hijolarning sifat jihatdan o’zgarishi, ya’ni cho’ziq hijoning qisqa hijoga, qisqa hijoning cho’ziq hijoga aylanishi;
- v) ruknlar tarkibidagi hijolarning ham sifat ham son jihatdan o’zgarishi, ya’ni hijolar ham tushib qoladi, ham qisqa hijo cho’ziq hijoga, cho’ziq hijo esa qisqa hijoga aylanishi.

Asliy ruknlarda yuz beradigan bunday o’zgarishlar *zihof*, ruknning zihofga uchrashi natijasida paydo bo‘lgan yangi ko’rinishlari esa *furu’* yoki *far’iy ruknlar* deb ataladi.

“*Zihof*” arabcha so‘z bo‘lib, “*sinish*” degan ma’noni anglatadi.

Alisher Navoiy “zihof”ni quyidagicha ta’riflaydi: “*Va bu besh aslning har biriga necha far’durkim tag‘ayyurlar sababidinki, ani aruziylar “zihof” derlar, hosil bo‘lur*” (Va bu besh aslning har birida o’zgarishlar sababidan yangi shakllar hosil bo‘ladiki, aruziylar uni zihof deb ataydilar).

Bobur esa yanada aniqroq qilib: “*Bilgilki har tag‘ayyurkim usulg‘a kirar ani “zihof” derlar. Ul rukni mug‘ayyarni muzohafu furu’ derlar. Bu tag‘ayyur yo mufrad bo‘lur, yo murakkab. Mufrad uldurkim, bir ruknda bir*

nav' tag‘ayyurdin ko‘prak voqi’ bo‘lmag‘ay. Murakkab uldurkim, bir nav’din ziyoda bo‘lg‘ay”, deb yozadi. Shuningdek, “tag‘ayyur”ni yana-da aniqlashtirib “...rukning mutaharrikini sokin qilmoqdur, yo rukndin o‘ksutmak, yo rukng‘a ortturmak”, deb sharhlaydi.

Zihoflarning barchasi o‘zining arabcha nomlariga ega. Masalan, «mafoiylun» ning (V— —) oxirgi «lun» bo‘g’ini tushib qolsa, qolgan «mafoiy» qismi «fauvlun» deb, oxirgi bo‘g’inning tushishi «hazf», «hazf» zihofi natijasida paydo bo‘lgan far’iy rukn (V— —) esa «mahzuf» deb nomlanadi; yoki foilotunning (—V— —) birinchi «fo» cho’ziq bo‘g’ini qisqa «fa» bo‘g’iniga aylansa, rukn «failotun», «fo»ning «fa»ga aylanishi «xabn», far’iy rukn (VV— —) esa «maxbun» deyiladi. Bu nomlarning lug‘aviy ma’nosini bilish ortiqchalik qilmaydi. Chunki zihoflarning nomlari o‘sha so‘zlarning lug‘aviy ma’nosiga asoslangan. Masalan, **maqsur** – “qisqartirilgan”, **axrab** – “vayron qilingan”, **mahzuf** – “tashlangan” demakdir.

Zihofot, undan hosil bo‘ladigan far’iy ruknlar va ularning paradigmaсини har bir asliy rukn uchun alohida jadvalda keltiramiz.

Nº	Rukn nomi	Paradigmasi	Zihof
Foilotun ruknining tarmoqlari			
1.	Foiloton	—V— ~	musabbag‘
2.	Failotun	V V— —	maxbun
3.	Failoton	V V— ~	maxbuni musabbag‘.
4.	Foilotu	—V— V	makfuf.
5.	Failotu	V V— V	mashkul
6.	Maf‘u(v)lun	— — —	musha’as
7.	Foilun	—V—	mahzuf
8.	Failun	V V—	mahbuni mahzuf
9.	Foilon yoki foilot	—V~	maqsur
10.	Failun	V V~	mahbuni maqsur
11.	Fa’lun	— —	maqtu’
12.	Fa’lon	— ~	maqtu’i musabbag‘

13.	Faal	V –	marbu'
14.	Fau(v)l	V ~	marbu'i musabbag‘
15.	Fa'	–	majhuf
16.	Fo'	~	majhufi musabbag‘
17.	Foilatun	-V V –	makfur
18.	Failiyyon	V V – ~	maxbuni musabbag‘

Mafoiylun ruknining tarmoqlari

1.	Mafoilun	V –V –	maqbuz
2.	Mafoiylu	V – –V	makfuf
3.	Mafoiyl	V – ~	maqsur
4.	Maf'u(v)lun	– – –	axram
5.	Mafoiylon	V – – ~	musabbag‘
6.	Maf'u(v)lu	– – V	axrab
7.	Fau(v)lun	V – –	mahzuf
8.	Foilun	– V –	ashtar
9.	Faal	V –	majbub
10.	Fau(v)l	V ~	axtam
11.	Fa'	–	abtar
12.	Fo'	~	azall

Mustaf'ilun ruknining tarmoqlari

1.	Mafoilun	V –V –	maxbun
2.	Muftailun	-V V –	matviy
3.	Mustaf'ilon	– –V ~	muzol
4.	Failatun	V V –	maxbul
5.	Fau(v)lun	V – –	muxalla'
6.	Foilun	– V –	marfu'
7.	Maf'u(v)lun	– – –	maqtu'
8.	Fa'lun	V –	axaz
9.	Mafoilon	V – V ~	maxbuni muzol
10.	Muftailon	– V V ~	matviyi muzol
11.	Failaton	V V V ~	maxbuni muzol

12.	Mustaf'ilotun	- - V --	muraffal
13.	Mafoilotun	V -V--	maxbuni muraffal
14.	Muftailotun	- V V --	matviyi muraffal
15.	Fau(v)l	V ~	ajabb
16.	Failun	V V -	mahzuz
17.	Mustaf'ilu	-- VV	makfuf
18.	Mafoilu	V - V V	mashkul
19.	Faal	V -	maxbuni axazz
20.	Foilon	- V ~	marfu'i muzoll
21.	Filotun	-V --	marfu'i muraffal

Maf'uvlotu ruknining tarmoqlari

1.	Mafoiylu	V -- V	maxbun
2.	Filotu	-V- V	matviy
3.	Failotu	V V-V	maxbun
4.	Maf'u(v)lun	---	makshuf
5.	Maf'u(v)lon	-- ~	mavquf
6.	Maf'u(v)lu	- - V	marfu
7.	Fa'lun	--	aslam
8.	Fa'	-	manhur
9.	Fo'	~	majdu'
10.	Fau(v)lun	V V -	maxbuni makshuf
11.	Fau(v)lon	V - ~	maxbuni mavquf
12.	Foilun	- V -	matviyi makshuf
13.	Filon	- V ~	matviyi mavquf
14.	Failun	V V -	maxbuni matviyi makshuf

Fau(v)lun ruknining tarmoqlari

1.	Fau(v)lu	V - V	maqbuz
2.	Fa'lun	--	aslam
3.	Faal	V -	mahzuf
4.	Fau(v)l	V ~	maqsur

5.	Fa'lu	- V	asram
6.	Fa'	-	abtar
7.	Fau(v)lon	V - ~	maqbuz

Foilun ruknining tarmoqlari

1.	Foilon	- V ~	musabbag‘
2.	Failun	V V -	maxbun.
3.	Fa'lun	--	maqtu'
4.	Failon	V V ~	maxbuni musabbag‘
5.	Faal	V -	maxbuni maqtu'
6.	Fa'	-	axazz

Mafoilatun ruknining tarmoqlari

1.	Mafoiylun	V ---	ma'sub
2	Muftailun	- V V -	ag‘sab
3	Mafoilun	V- V -	ma'qul
4	Mafoiylu	V -- V	manqus
5	Fau(v)lun	V --	maqtuf
6	Maf'u(v)lun	---	aqsam
7	Foilun	-V -	ajamm
8	Maf'u(v)lu	- - V	a'qas

Mutafoilun ruknining tarmoqlari

1	Mustaf' ilun	--V -	muzmar
2	Failun	V V -	axazz
3	Failotun	V V --	maqtu'
4	Mafoilun	V -V-	mavqus
5	Muftailun	- V V -	majzul
6	Mutafoilon	V V - V ~	muzoll
7	Mutafoilotun	V V - V --	muraffal
8	Fa'lun	--	muzmari axazz
9	Maf'u(v)lun	---	muxmari maqtu'
10	Mustaf' ilon	--V ~	muzmari muzoll
11	Mustaf' ilotun	--V --	muzmari muraffal

12	Mafoilon	V — ~	mavqusi muzoll
13	Mafoilotun	V — V —	mavqufi muraffal
14	Muftailon	— V V ~	majzuli muzoll
15	Muftailotun	— V V —	majzuli muraffal

Turkiy, jumladan, o'zbek she'riyatida uchraydigan besh rukn Navoiy va Boburlarning ko'rsatishicha, 44 xil zihofga uchrab, buning natijasida 60 xil far'iy rukn hosil bo'ladi. Agar bunga asliy ruknlarning o'zini ham qo'shadigan bo'lsak, ruknlarning soni 65 taga yetadi. Ruknlar sonining ko'payishi vaznni murakkablashtirish bilan birga, uning imkoniyatlarini ham behad kengaytirib yuboradi. Shayx Ahmad binni Xudoydod Taroziyning «Funun ul-balogs'a» asarida yozilishicha, asliy va far'iy ruknlarning turli tarzda birikuvidan 366 vazn hosil qilish mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur esa «Risolai aruz» asarida bu ruknlardan yuzaga kelgan 537 vaznni ko'rsatib o'tgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Rukn va turoqning o'xhash va farqli jihatlarini ayting.
2. Asliy rukn nima? Nechta asliy rukn bor?
3. Mafoiylun rukni ohangiga mos keladigan 5 ta misol yozing.
4. Jadvalni to'diring. Ruklarning paradigmasini yozing.

Foilotun	Mafoiylun	Mustaf'ilun	Fauvlun	Maf'uvlotu

5. Jadvalni davom ettiring:

Foilotun	Mafoiylun	Mustaf'ilun	Fauvlun	Maf'uvlotu
Mehribonim	Namangandan	Baxtim butun	Charog'on	Uchratganda

--	--	--	--

6. Aruz ilmida “zihof” va “furu” tushunchalari qanday ma’nolarni ifodalaydi?
7. “Mafoiyun” asl ruknining qanday zihof va furu’larini bilasiz?

5-MAVZU: BAHRLAR VA VAZNALAR. BIR RUKNNING TAKRORIDAN HOSIL BO‘LADIGAN BAHRLAR

REJA:

1. Bahr va vazn tushunchalari.
2. Aruz vaznida bahrlarning aniqlanishi, ularning soni turlicha ekanligi, buning sababi.
3. Vaznlarning hosil bo‘lishi. Aruzshunoslikda aniqlangan vaznlar.
4. Bahrlarning tasnifi (uch guruh). Bir ruknning takroridan hosil bo‘lgan vaznlar: ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib, mutadorik, komil, vofir

Bahr – arabcha so‘z bo‘lib, “dengiz”, “katta daryo” kabi ma’nolarni bildiradi. Aruz tizimida atama sifatida bahr muayyan rukn yoki ruknlarning takroridan hosil bo‘luvchi vaznlar turkumini ifodalaydi.

Xalil ibn Ahmad asos solgan aruz tizimida dastlab 15 ta bahr mavjud edi, keyinchalik uning izdoshi Abulhasan Axfash Balxiy ushbu bahrlar qatoriga yana bir bahrni qo‘shib, bahrlar sonini 16 taga yetkazgan. Bizgacha yetib kelgan aruzga doir ilk forsiy asar Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam fi ma’oyiri ash’oril ajam” asarida arab aruzida mavjud bo‘lgan 16 ta bahrga yana uchta bahr (g‘arib, qarib, mushokil) qo‘silib, bahrlar soni 19 taga yetkazilgan. Bahrlar borasida Shayx Ahmad Taroziyning fikrlari o‘ziga xosdir. Olim bahrlar sonini 40 ta deb ko‘rsatadi. Abdurahmon Jomiy, Atoulloh Husayniy, Alisher Navoiy va Sayfiy Buxoriylar bahrlar miqdorini umumiylar tarzda 19 ta deb hisoblaydilar. Biroq Abdurahmon Jomiy “Risolai aruz” asarida 14 bahrni misollar bilan izohlagan, ya’ni arab aruziga xos bo‘lgan tavil, komil, basit, madid, vofir bahrlariga keng to‘xtalmagan. Boburning “Aruz risolasi”da esa ushbu bahrlarga qo‘sishimcha ravishda yana ikki bahr (ariz va amiq) tadqiq qilingan. Sayfiy Buxoriyning “Aruzi Sayfiy” risolasida bahrlarning

lug‘aviy ma’nolari ham izohlanadi¹⁵. Demak, aruzning taraqqiyoti va takomili tufayli aruz ilmida bugungi kunda 21 ta bahr mavjud. Mavjud mazkur 21 ta bahr uch guruhga bo‘linadi:

1. Faqat bir ruknning takroridan hosil bo‘ladigan bahrlar.

2. Bittadan olingan ikki ruknning takroridan hosil bo‘ladigan bahrlar.

3. Bitta bir xil va ikkita boshqa xil ruknning takroridan hosil bo‘ladigan bahrlar.

Endi 21 ta bahrni ushbu uch guruhga ajratamiz

I. Bir ruknning takroridan hosil bo‘ladigan bahrlar:

1. Ramal bahri – foilotun (– V – –).
2. Hazaj bahri – mafoiylun (V - - -).
3. Mutaqorib bahri – fau(v)lun (V - -).
4. Mutadorik bahri – foilun (-V -).
5. Rajaz bahri – mustaf’ilun (- - V -)
6. Komil bahri – mutafoilun (V V - V -).
7. Vofir bahri – mafoilatur (V – V V -).

II. Bittadan olingan ikki ruknning takroridan hosil bo‘ladigan bahrlar:

1. Tavil bahri – fau(v)lun mafoiylun. (v – – / v – – –)
2. Ariz (maqlubi tavil) bahri – mafoiylun fau(v)lun. (v – – – / v – –)
3. Madid bahri – foilotun foilun. (– v – – / – v –)
4. Ami(y)q bahri – foilun foilotun. (– v – / – v – –)
5. Mujtass bahri – mustaf’ilun foilotun. (– – v – / – v – –)
6. Xafif bahri – foilotun mustaf’ilun. (– v – – / – – v –)
7. Munsareh bahri – mustaf’ilun maf’u(v)lotu. (– – v – / – – – v)
8. Muqtazab bahri – maf’u(v)lotu mustaf’ilun. (– – – v / – – v –)
9. Muzore’ bahri – mafoiylun foilotun. (v – – – / – v – –)
10. Basit bahri – mustaf’ilun foilun. (– – v – / – v –)

¹⁵ Tohirov S.Q. Aruz vazni qoidalari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2020. – B. 172. (48-bet)

III. Ikkita bir xil va bitta boshqa xil ruknning takroridan hosil bo‘ladigan bahrlar:

1. Mushokil bahri – foilotun mafoiylun mafoiylun. (- v -- / v --- / v ---)
2. Qarib bahri –mafoiylun mafoiylun foilotun.(v --- / v --- / - v --)
3. G‘arib(yoki jadid) bahri–foilotun foilotun mustaf’ilun(- v -- / - v -- / -- v -)
4. Sare’ bahri – mustaf’ilun mustaf’ilun maf’u(v)lotu. (v -- / - v --- / -- v)

Bahrlarni birma-bir ko`rib o’tishdan avval ayrim atamalarning nima ekanligini bilib olish lozim. Bular *solim*, *murabba'*, *masaddas*, *musamman*, *mutatavval*.

Bir baytda ishtirok etadigan ruknlar miqdoriga ko‘ra bahrlar 4 xil shaklda bo‘lishi mumkin, Agar bir baytda 4 ta rukn bo‘lsa, u murabba’ deb, 6 ta rukn bo‘lsa, musaddas deb, 8 ta rukn bo‘lsa, musamman deb, 10 ta va undan ortiq bo‘lsa, mutatavval deb yuritiladi. Lekin 8 tadan ortiq ruknli she’rlar nihoyatda oz uchraydi. Murabba’, musaddas, musamman atamalari janr ma’nosida kelganda banddagi misralar sonini bildiradi.

Shuningdek, baytda rukn hech qanday o‘zgarishga uchramasa, solim shakl deyiladi. “Solim” – bu “salomat” degani.

Bahrlarni alohida ko`rib o’tish jarayonida bu tushunchalar aniq misollarda ko`riladi va yanada tushunarli bo`ladi.

Mavjud 8 ta asliy ruknning ettitasi takror holda kelib, 7 ta bahrni vujudga keltiradi. Ruknlar va ularning takroridan hosil bo‘ladigan bahrlar quyidagilardir:

1. Foilotun – ramal bahri.
2. Mafoiylun – hazaj bahri.
3. Mustaf’ilun – rajaz bahri.
4. Fau(v)lun – mutaqrif bahri.
5. Foilun – mutadorik bahri.
6. Mutafoilun – komil bahri.
7. Mafoilatun – vofir bahri.

Mazkur bahrlar “muttafiq ul-ajzo” (bir xil tarkibli) yoxud sodda bahrlar deyiladi. Faqat bitta – maf’u(v)lotu rukni yakka holda takrorlanib kelmaydi va biror bahrni vujudga keltirolmaydi. Aslida, nazariy jihatdan bunga monelik yo‘q. Bemalol 4-5 daqiqada “maf’ulotu” yakka holda takrorlanib kelgan bayt yozib tashlash mumkin. Lekin faqat turkiyzabon emas, forsiyzabon va arabiyzabon shoirlar ham bu rukn sof holda takrorlanib keladigan she’rlar bitmaganlar (ayrim eksperimentlar bo‘lishi mumkin, albatta). Demak, buning til tabiatini bilan bog‘liq qandaydir nozikroq sabablari bor. Biroq Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” asarida “maf’uvlotu” rukni ham alohida bahrni, ya’ni “saqil” bahrini hosil qilishi aytilgan. Lekin bu ma’lumot boshqa biron bir manba bilan tasdiqlanmagan.

Ramal bahri

Bahrlarning nomi, ruknlarning nomidan farqli o‘laroq, aniq lug‘aviy ma’no anglatadi. A. Hojiahmedov “O‘zbek aruzi lug‘ati”da qayd etishlaricha, “ramal” so‘zi “tuyaning lo‘killashi” degan ma’noni anglatadi. Ramal bahri foilotun (- V - -) ruknining takroridan hosil bo‘ladi. Bu rukndagi ikkinchi hijo qisqa, qolgan uch hijo cho‘ziq. Turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek adabiyotida ramal bahri, ayniqsa, uning sakkiz ruknli vaznlari keng qo’llangan. Mumtoz g’azallar bilan birga, boshqa janrlardagi she’rlarning ham aksariyat qismi ramal bahri vaznlarida yaratilgan.

(Shu o‘rinda ushbu bahrni sodda usulda tushuntirib bergen ustozimiz M.Olimovning yozganlarini aynan keltirishni joiz topdik)

Misollarga murojaat qilaylik:

Bir so‘-roq-lab kel-ma-din-giz,

Zor-li-gim-ni bil-ma-din-giz.

Hozir biz aruzdagi she’rni vazn nuqtai nazaridan tahlil qilishda bajarilishi kerak bo‘lgan birinchi ishni bajardik, ya’ni baytni hijolarga ajratib yozdik. Endi shu misralardagi rukn tugagan joylarni aniqlab, vertikal chiziq tortamiz. Bu baytda misralar o‘rtasidan ikkiga bo‘linadi:

Bir so‘-roq-lab / kel-ma-din-giz,

Zor-li-gim-ni / bil-ma-din-giz.

Endi uchinchi ishimiz – hijolar ostiga ularning shartli belgilarini qo‘yib chiqish. Bu arabiylar so‘z bilan taqte’ yoki europacha atama bilan paradigma deb yuritiladi.

Bu baytda “ng” vazn talabiga ko‘ra 2 ga ajratilgan, yopiq bo‘g‘inlar hammasi cho‘ziq, ochiq bo‘g‘inlarning ko‘pi qisqa, faqat – ni hijosi vazn talabiga ko‘ra cho‘ziq bo‘ldi.

- V - - / - V - -

foilotun / foilotun

Xo‘sh, bir misrada 2 ta foilotun bor. Bir baytda-chi? To‘rtta. Foilotun takrorlanib kelsa, qaysi bahr hosil bo‘lardi? Ramal! Bir baytda to‘rtta rukn bo‘lsa, nima deb ataymiz? Murabba’! Rukn o‘zgarishsiz, soppa-sog‘ holda kelsa? Solim! Demak, bu bayt vazn tarmog‘ining nomi: ramali murabba’i solim.

Endi o‘sha baytning o‘zini sal kengaytiraylik.

Birinchi ishimiz – baytni hijolarga ajratib yozish:

O-shi-g‘in-giz bir so‘-roq-lab kel-ma-din-giz,

Yo‘-lin-giz-ga zor-li-gim-ni bil-ma-din-giz.

Ikkinchi – ustunlarni tortamiz.

Uchinchi – taqte’sini topamiz.

- V - - | - V - - | - V - -

To‘rtinchi – afoyilini (ruknlar nomini) aniqlaymiz:

foilotun / foilotun / foilotun

Beshinchi – vazn tarmog‘ining nomini belgilaymiz: ramali musaddasi solim.

In-ti-zor bu / o-shi-g‘in-giz / bir so‘-roq-lab / kel-ma-din-giz,

Ne-cha kun-kim / yo‘-li-ngiz-ga / zor-li-gim-ni / bil-ma-din-giz.

- V - - / - V - - / - V - - / - V - -

fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun

Baytning vazniy tahlili shu tartibda amalga oshiriladi.

Zihoflar mavzusini ko‘rib o‘tganda har bir ruknning zihohlari jadvalda berilgan edi. Mazkur zihoflar orqali bahrlar imkoniyati kengayib, vaznlar miqdori oshib boradi. She‘riyatimizda ramal bahrining eng ko‘p

qo'llanilgan vazni *ramali musammani mahzuf* vaznidir. Mazkur vaznning 1,2,3-ruknlari «foilotun»ning solim (foilotun –V–), 4-rukni esa mahzuf (foilun –V–) ko'inishiga teng bo'ladi:

foilotun foilotun foilotun foilun

– V– / – V– / – V– / – V–

Gul-sha-ni iq -/ bo l xo - ri / meh - na-ti-g'a / ar-zi-mas, (14)

Bo-da-yi gul -/ gun xu-mo-ri / nak- ba-ti-g'a / ar-zi-mas. (15)

– V – / – V – / – V – / – V –

fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lo-tun / fo-i-lun

Ramali musammani mahzuf

Quyidagi baytlar ham ramal bahrining mazkur vazn tarmog'iga mos keladi:

Ko'rgali husnungni zoru mubtalo bo'ldum sango,

Ne balolig` kun edikim, oshno bo'ldum sango.

Lablaringkim hayf erur teng tutmoq oni qand ila,

Sindirur yuz qand bozorini shakkar xand ila.

Qon yutub umri jahon ahlida bir yor istadim,

Lekin ul kamrak topildi, garchi bisyor istadim.

She'riyatimizda ramal bahrining yana bir keng qo'llanilgan vazni *ramali musammani maqsur* vaznidir. Mazkur vaznning 1,2,3-ruknlari «foilotun»ning solim (foilotun –V–), 4-rukni esa maqsur (foilon –V~) ko'inishiga teng bo'ladi:

foilotun foilotun foilotun foilon

– V– / – V– / – V– / – V~

O'n sa - kiz ming / o - la m o - shu -/ bi a - gar bo - /shin-da-dur,

Ne a - jab, chun / sar-vi- no - zim /o'n sa-kiz yo - /shin-da-dur.

– V– / – V– / – V– / – V~

foilotun / foilotun / foilotun / foilon

she'riyatimizda ramalning musaddas shakllari ham qo'llangan. Masalan, quyidagi baytni tahlil qilib ko'raylik:

Ma'- ri-fat bo/- zo-ri-ning de-/ vo-na-si,
Ham ha-qi-qat/ ish-qi-ning may/-xo-na-si.

– V – – / – V – – / – V –
foilotun / foilotun / foilun

ko`rilgan baytning vazni ***ramali musaddasi mahzuf***.

Ramali musammani maxbuni mahzuf. Mazkur vaznning birinchi, ikkinchi va uchinchi ruknlari «foilotun»ning «maxbun» ko`rinishi – «failotun» (VV – –) shaklida, to`rtinchi rukn esa “failun” (VV –) bo`ladi:

failotun failotun failotun failun

V V – – / V V – – / V V – – / V V –

Masalan:

Ke-cha go’-yo / e-shi-tib shuh /-ra-ti til-lo / pu-li-ni,
Ha-pa-lak qo’r/-qu-si-din uch/ -ti mi-so-li / ka-pa-lak.

V V – – / V V – – / V V – – /V V –
failotun failotun failotun failun

Baytning vazni ramali musammani maxbuni mahzuf

Ramal bahri turkiy she’riyatda eng keng tarqalgan bahr hisoblanadi. To‘g‘ri, she’riyatimizda uning biz ko‘rib o‘tgan shakllaridan tashqari turli o‘zgarishlarga uchragan ko‘rinishlari ham ko‘p uchraydi. Lekin, bari bir, ular barchasi ham shu bahr doirasiga kiradi.

Hazaj bahri

Hazaj bahri mafoiylun (V - - -) ruknining takroridan hosil bo‘ladi. Turkiy she’riyatda keng tarqalganligi nuqtai nazaridan hazaj ramaldan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. She’riyatimizda hazajning musammani solim shakli ko‘p istifoda etilgan. “Hazaj” arabcha so‘z bo‘lib, “ovozni yoqimli qilish” degan ma’noni ifodalaydi.

Ja-fo qil-ding /bu jo-nim-g`a,/ va-fo-ni ko`r-/ma-dim har-giz
Bu o-lam-da / o`-zum-dek mub/-ta-lo-ni ko`r-/ma-dim har-giz
V - - - / V - - - / V - - - / V - - -
mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun

Baytda mafoiyun rukni takrorlanganligi uchun hazaj, 8 ta rukn bo'lganligi bois musamman, ruknlar hech qanday o'zgarishga uchramagani uchun solim shakl. Demak, baytning vazni ***hazaji musammani solim***.

Mazkur vaznga misollar:

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.

Muvofiq kiydilar, bo'lmish magar Navro'z ila bayram,

Chaman sarvi yoshil xil'at, mening sarvi ravonim ham.

Tun oqshom bo'ldi-yu, kelmas mening sham'i shabistonim,

Bu anduh o'tidin har dam kuyar parvonadek jonim.

She'riyatimizda *hazaji musammani axrab* vazni ham keng qo'llangan. Mazkur vaznnning birinchi va uchinchi ruknlari «mafoiyun»ning «axrab» (— V / maf'uvlu), ikkinchi va to'rtinchi ruknlari esa solim (V — — —) ko'rinishidan iborat bo'ladi:

maf'uvlu /mafoiyun /maf'uvlu /mafoiyun

— — V / V — — / — — V / V — —

Masalan:

Sho'x ik-ki /g'i-zo-ling-ni / noz uy-qu /-si-din uy-g'at,

To uy-qu /-la-ri ket-sun / gul-zor i-/chi-da o'y-nat.

— — V / V — — — / — — V / V — — —

maf'uvlu / mafoiyun / maf'uvlu / mafoiyun

axrab solim axrab solim

Demak, bayt vazni *hazaji musammani axrab*.

Hazaji musammani ashtar. Makur vaznnning birinchi va uchinchi ruknlari «mafoiyun»ning «ashtar» (—V— /foilun), ikkinchi va to'rtinchi ruknlari esa solim ko'rinishidan iborat bo'ladi:

foilun mafoiyun foilun mafoiyun

— V — / V — — / — V — / V — —

Masalan:

Kel-di o/-chi-lur cho-g'i/, o'z-li-ging/ na-mo-yon qil,
Par-cha-lab/ ki-shan-lar-ni/ har to-mon /pa-ri-shon qil.

– V – / V – – – / – V – / V – – –
foilun / mafoiylun / foilun / mafoiylun
ashtar / solim / ashtar / solim

Demak, bayt vazni *hazaji musammani ashtar*.

Furqat ijodiga mansub “Fasli navbahor o’ldi ketibon zimistonlar” misrasi bilan boshlanuvchu g’azal ham aynan shu vaznga mos tushadi.

Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vazni o’ynoqi ohangga egaligi bilan e’tiborni tortadi va she’riyatimizda juda keng qo’llangan. Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Munis va boshqa shoirlar o’zlarining ko’plab she’rlarini shu vaznda bitganlar. Mazkur vaznning birinchi rukni «mafoiylun»ning «axrab» (– – V // maf’uvlu), ikkinchi va uchinchi ruknlari «makfuf» (V – – V // mafoiylu), to’rtinchi rukni esa «mahzuf» (V – – // fauvlun) zihoflaridan iborat bo’ladi:

maf’uvlu /mafoiylu /mafoiylu /fauvlun
– – V / V – – V / V – – V / V – –

Masalan:

Sen-dek ma/-nga bir yo-ri/ ja-fo-ko-r / to-pil-mas,

Men-dek sa/-nga bir zo-ri/ va-fo-do-r / to-pil-mas.

– – V / V – – V / V – – V / V – –
maf’uvlu / mafoiylu / mafoiylu / fauvlun
axrab / makfuf / makfuf / mahzuf

Bayt vazni *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf*.

Quyidagi baytlar ham hazajning mazkur vaznida yozilgan:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi shamshod,

Bulbul kibi hajringda ishim nolavu faryod.

Zulfing ochilib, orazi diljo‘ bila o‘ynar

Hindu bachaye sho‘xdurur, suv bilan o‘ynar

Jonim chiqadur, hajr ila jonon kerak erdi,
Ko‘nglum kuyadur, dard ila darmon kerak erdi.

Rajaz bahri

Rajaz bahrining solim shakllari

Rajaz bahri mustaf’ilun (- - - v -) ruknining takroridan hosil bo‘ladi. Uning ham musammani solim shakli she’riyatimizda kengroq tarqalgan. “Rajaz” so‘zi arabcha bo‘lib, “tezlik”, “iztirob” kabi ma’nolarni anglatadi. O’zbek adabiyotida «mustaf’ilun» va uning quyidagi far’iy ruknlari qo’llanilgan:

1. mustaf’ilun (solim) --V-- 1,2,3,4-ruknlarda
2. mustaf’ilon (muzol) --V~ oxirgi ruknda
3. mafoilun (maxbun) V-V-- 2,4-ruknlarda
4. mafoilon (maxbuni muzol) V-V~ oxirgi ruknda
5. muftailun (matviy) – VV– 1,2,3-ruklarnda

«Mustaf’ilun» va uning far’iy ko’rinishlari «mustaf’ilun»ning takroridan tuziladigan rajaz bahridan tashqari xafif va mujtass, munsarih va sari’ bahrlarida ham qo’llaniladi. Bu bahrlarni keyinroq ko’rib o’tamiz. Hozir **rajaz** bahriga qaytaylik.

O’zbek mumtoz adabiyotida rajaz bahrining quyidagi murabba’ va musamman vaznlari uchraydi:

Rajazi murabbai solim. Mazkur vazn «mustaf’ilun» solim (– V –) ko’rinishining har misrada ikki marta – bir baytda to’rt marta takrorlanishidan hosil bo’ladi:

mustaf’ilun / mustaf’ilun

mustaf’ilun / mustaf’ilun

– V – / – V –

Qol-may sha-har/-da to-qa-tim,

Qish-loq chi-qar/-dim o-da-tim,

– – V – / – – V –

mustaf'ilun / mustaf'ilun

Rajazi murabbai muzol. Mazkur vaznning rajazi murabbai solim vaznidan farqi shundaki, undagi ikkinchi ruknlar «mustaf'ilun»ning «muzol» ko'rinishi—«mustaf'ilon» (–V~) bo'ladi:

mustaf'ilun / mustaf'ilon

mustaf'ilun / mustaf'ilon

–V~ / –V~

Masalan:

Far-yo-d-kim, / gar-du-ni dun,

Ay-lar yu-rak-/bag'-rim-ni xun,

– V – / – – V ~

mustaf'ilun mustaf'ilon

Rajazi murabbai solim va rajazi murabbai muzol vaznlari bir-biriga yaqin bo'lganligi bois bir asar doirasida almashinib qo'llanaveradi. Yuqorida keltirilgan ikkala misol ham Muqimiyning "Sayohatnoma" sidan olingan.

Rajazi musammani solim. Mazkur vazn «mustaf'ilun» solim (–V–) ko'rinishining har misrada to'rt marta – bir baytda sakkiz marta takrorlanishidan hosil bo'ladi:

mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun

mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun

–V– / –V– / –V– / –V–

Mush-kin qo-shi /-ning hay-'a-ti / ul chash-mi jal-/ lod us-ti-na:,

Qat-lim u-chun / nas kel-ti-rur / «nun» el-ti-bon / «sod» us-ti-na:,

– V – / – – V – / – – V – / – – V –

mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun

Yoki,

Ey sho'-x(i), ko'-/ zu qo-shi-nga / o-lam ga-do, / men ham ga-do,

La'-li la-bi / dur-po-shi-nga / o-lam ga-do, / men ham ga-do.

– V – / – – V – / – – V – / – – V –

mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun / mustaf'ilun

Rajazi musammani matviyi maxbun. Mazkur vaznning 1 va 3-ruknlari «mustaf’ilun»ning matviy (muftailun //–VV–), 2 va 4-ruknlari esa maxbun (mafoilun / V–V–) ko’rinishiga teng bo’ladi:

muftailun / mafoilun / muftailun / mafoilun
muftailun / mafoilun / muftailun / mafoilun
– V V– / V–V– / – V V– / V–V–

Masalan:

Gar a–la–mim–/g’ a cho–ra yo’q, /bo’l–ma–sa bo’l–/ma–sun ne–tay,
Var g’ a–mi–ma/shu–mo–ra yo’q, /bo’l–ma–sa bo’l–/ma–sun ne–tay.
– V V – / V – / – V V – / V – V –
muftailun / mafoilun / muftailun / mafoilun

Mutaqorib bahri

Mutaqorib bahri fau(v)lun (v - -) ruknining takroridan hosil bo’ladi. O‘rtadagi “u” hijosi qisqa talaffuz qilinmasin uchun uning ustiga urg‘u belgisi qo‘yish yoki undan keyin qavs ichida bir “v” harfini yozish mumkin “Mutaqorib” arabcha so‘z bo‘lib, ”bir-biriga yaqinlashuvchi” degan ma’noni anglatadi.

Mutaqoribi musammani solim. Mazkur vaznning to’rtala rukni ham «fauvlun» ruknining solim (V––) ko’rinishidan iborat bo’ladi:

fauvlun /fauvlun /fauvlun /fauvlun
fauvlun/ fauvlun /fauvlun/ fauvlun
V –– / V –– / V –– / V ––

Masalan:

Qa-d er-mas- / ki , sar-vi / xi-ro-mon / e-rur bu,
La-b er-mas- / ki, gul bar-/gi xan-don/e-rur bu.
V –– / V –– / V –– / V ––

fauvlun /fauvlun /fauvlun /fauvlun

Mutaqoribi musammani mahzuf. Bu vaznning 1, 2, 3-ruknlari «fauvlun»ning solim (V––), 4-rukni esa mahzuf (faal // V–) ko’rinishidan iborat bo’ladi:

fauvlun /fauvlun /fauvlun /faal

fauvlun /fauvlun/ fauvlun /faal

V -- / V -- / V -- / V -

La-bing fik/-ri bag‘-rim-/ni qon qil/-di-lo,
Chu qon qil/-di, ko‘z-din/ ra-von qil/-di-lo.

V - - / V - - / V - - / V -

fauvlun /fauvlun/ fauvlun /faal

Mutadorik bahri

Mutadorik bahri foilun (-V-) ruknining takroridan hosil bo‘ladi. Uch hijodan iboratligiga ko‘ra u mutaqorib bahri bilan o‘zaro juftlik hosil qiladi. “Mutadorik” arabcha so‘z bo‘lib, “bir-biriga ulanuvchi” degan ma’noni bildiradi. Turkiy she`riyatda bu bahr faol qo‘llanmagan. Shu sabab misol tariqasida namunasi sifatida M.Olimov tomonlaridan yaratilgan she’rlardan keltiramiz:

Mutadoriki murabba’i solim:

Yo-r, a-gar / kel-ma-sang,

Ho-li-mi / bil-ma-sang,

Bun-da men / net-ga-men,

Bo-sh o-lib / ket-ga men.

- V - / - V -

fo-i-lun / fo-i-lun

Mutadoriki musammani solim:

Biz sa-ri / bir na-zar / qil-ma-ding, / ey ni-gor,

In-ti-zor / yur-ga-nim / bil-ma-ding, / ey ni-gor.

- V - / - V - / - V - / - V -

foilun / foilun / foilun / foilun

Komil bahri

Komil bahri mutafoilun (V V -V-) ruknining takroridan hosil bo‘ladi. “Komil” arabcha so‘z bo‘lib, “mukammal”, “kamolga etgan” degan ma’nolarni bildiradi. Chunki mutafoilun mafoilatun bilan birga eng ko‘p, ya’ni besh hijoli rukn hisoblanadi. Turkiy she`riyatda komil bahrining musammani solim shakliga misollar mavjud.

Komili musammani solim

Sa-na-mo, g‘a-ming- /da yo-qib fa-lak / ni fi-g‘o-nu no- / la-yu o-hi-miz,
Di-li sax- ti- nga /a-sa-r et-ma-di /ne-chu-k er-di bax/-ti si-yo-hi-miz.

V V – V – / V V – V – / V V – V – / V V – V –

Mutafoilun / mutafoilun / mutafoilun / mutafoilun

Vofir bahri

Vofir bahri mafoilatun (V – V V –) ruknining takroridan hosil bo‘ladi. U arab she’riyati uchun maxsus bo‘lib, forsiy va turkiy she’riyatda undan foydalanimagan. Lekin bahrning xususiyatlarini tushuntirish maqsadida “Mezon ul-avzon” va “Muxtasar” mualliflari turkiy tilda unga misollar bitganlar. “Vofir” arabcha so‘z bo‘lib, “mo‘l” degan ma’noni bildiradi. “Boburnoma”da “oshlig‘i vofir” (g‘allasi ko‘p), “moli vofir, eli kofir” (moli ko‘p, lekin eli kofir) kabi jumlalar uchraydiki, o‘shalar orqali bahrning nomini va nomning lug‘aviy ma’nosini yaxshi eslab qolish mumkin.

Vofiri musammani solim:

Fi- roq o‘-ti-din / ku-yar ba-da-nim, / ta-fi-di-n e-rib /o-qar ji-ga-rim,
G‘a-mim bu-du-rur/-ki, bog‘-la-ni-bon,/yu-zung so-ri tush/- ma-gay na-za-rim.

V – V V – / V – V V – / V – V V – / V – V V –

Mafoilatun / mafoilatun / mafoilatun / mafoilatun

Bir ruknning takroridan hosil bo‘ladigan 7 ta bahr (bahrlarning birinchi guruhi) mana shulardan iborat.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1-mashq. Misralarning vaznini aniqlang

(1-satrdagi namunaga muvofiq to'ldiring)

	1 - rukn	2- rukn	3 - rukn	4 - rukn
1	Ishq maz–ha	bi–g‘a taq–vi	yu to–at chi	da–yol–mas,
	- - V	V - - V	V - - V	V - -
	maf uvlu	mafoiylu	mafoiylu	fa `uvlun
	axrab	makfuf	makfuf	mahzuf

Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf

2	Bir kun me–ni	ul qo–ti–li	maj–nun–shi–or	o'l–tur–g'u–si
3	Bu cha–man ich	–ra xa–zon sar–	sa–ri–din sar–	–v ki–bi
4	Gar bo'lsa	bir zamon	manga komi	visol.
5	Ey sensiz	umrumdin	osoyish	yo'q,
6	Ko'z istar	kim ko'rsa	jamolingni	to'q.
7	Kelgilki	bir qatla	uzoringni	ko'ray

8	Kim hajring	ko'p urdi	bu ko'ksimg'a	o'q
9	Ish-qing o'	ti-din o'r-ta-	na-dur jo-ni	ni-zo-rim
10	Qat-ra-yam no	chi-z, am-mo	zo-ti qul-zum	Tur-di-man

2-mashq. Baytlarning vaznini aniqlang

(1-satrdagi namunaga muvofiq to'ldiring)

1	Ko`rgali husnungni zoru mubtalo bo`ldum sanga, Ne balolig kun edikim, oshno buldum sanga			
	- V - -	- V - -	- V - -	- V -
	foilotun	foilotun	foilotun	foilun
	solim	solim	solim	mahfuz
<i>Ramali musammani mahzuf</i>				
2	Zihe husnung zuhuridin tushub har kimga bir savdo. Bu savdolar bila kavnayn bozorida yuz g`avg'o.			

3	<p>Ey safhayi ruxsoring azal xattidin insho, Debochayi husnungda abad nuqtasi tug‘ro.</p>
4	<p>Iloho, podshoho, kirdigoro, Sanga ochug‘ nihon-u oshkoro.</p>
5	<p>Bo‘lsa ikimizning yuzi aksi suda paydo, Ul suv ne taraf borsa, ochilg‘ay guli ra’no.</p>
6	<p>Istaganlar, bizni sahroi baloda istangiz, Vodiyi hijron ila dashti fanoda istangiz.</p>
7	<p>Bizing shaydo ko‘ngul bechora bo‘lmish, Malomat dashtida ovora bo‘lmish.</p>
8	<p>Ofati jonim ul sanam, qoshi qarosini ko`ring</p>

	Ikki yuzig`a chulg`onur zulfi siyosini ko`ring		
9	Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin Kim, esar ul dasht aro har yon qizil, sorig, yashil		
10	Ey, mug‘anniy, yor bazmida navo soz aylasang, Jon fidong o‘lsun g‘amim sharhidin og‘oz aylasang.		

6-MAVZU:

BAHRLAR VA VAZNALAR. IKKI RUKNNING TAKRORIDAN HOSIL BO‘LADIGAN BAHRLAR

REJA:

1. Ikki ruknning takroridan hosil bo‘ladigan vaznlar. Ularning ikki guruhga ajralishi.
2. Bittadan olingan ikki ruknning takroridan hosil bo‘ladigan bahrlar: tavil, maqlubi tavil yoki ariz, madid, amiyq, mujtass, hafif, munsareh, muqtazab, basit, muzore’.
3. Ikkita bir xil va bitta boshqa xil rukn takroridan hosil bo‘ladigan bahrlar: mushokil, g‘arib (jadid), qarib, sare’ bahrlari.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: *Rukn, vazn, tavil, maqlubi tavil yoki ariz, madid, amiyq, mujtass, hafif, munsareh, muqtazab, basit, muzore'; mushokil, g'arib (jadic), qarib, sare' bahrlari.*

Mavjud 21 ta bahrning 7 tasi I guruhga kirsa, quyidagi 10 bahr II guruhga mansub (ularning o‘zaro juftlik hosil qiladiganlarini yonma-yon keltirib o‘tamiz):

1. Tavil bahri – fau(v)lun mafoiylun. (v -- / v ---)
2. Ariz (maqlubi tavil) bahri – mafoiylun fau(v)lun. (v --- / v --)
3. Madid bahri – foilotun foilun. (- v -- / - v -)
4. Ami(y)q bahri – foilun foilotun. (- v - / - v --)
5. Mujtass bahri – mustaf’ilun foilotun. (- - v - / - v --)
6. Xafif bahri – foilotun mustaf’ilun. (- v -- / - - v -)
7. Munsareh bahri – mustaf’ilun maf’u(v)lotu. (- - v - / - - - v)
8. Muqtazab bahri – maf’u(v)lotu mustaf’ilun. (- - - v / - - v -)
9. Muzore’ bahri – mafoiylun foilotun. (v --- / - v --)
10. Basit bahri – mustaf’ilun foilun. (- - v - / - v -)

Bu bahrlar ikki ruknning takroridan hosil bo`ladi, ruknlar galma-gal takrorlanadi. Masalan, tavil bahrida avval fauvlun rukni kelsa, undan so`ng mafoiylin rukni keladi. Musaddas shaklida ikki rukndan so`ng yana fauvlun keladi, bayt musamman shaklda bo`lsa, fauvlunden so`ng yana mafoiylun takrorlanadi. Turkiy she`riyatimizda yuqoridagi o`n bahr ham faol qo`llanilmagan. Ularning keng qo`llanilganlarini alohida-alohida ko`rib o‘tamiz.

Muzore’ bahri

Muzore’ bahri, yuqorida ta’kidlanganidek, «mafoiylun» va «foilotun» ruknlarining galma-gal takrorlanib kelishiga asoslangan bahrdir. Muzore’i musammani solim vazni quyidagicha bo`ladi:

mafoiylun /foilotun /mafoiylun /foilotun

V--- / - V-- / V--- / - V--

O’zbek adabiyotida bu bahrning quyidagi musamman shakllari qo’llanib kelgan:

1. Muzore'i musammani axrab. Mazkur vaznning 1 va 3-ruknlari «mafoiylun»ning axrab (maf'uvlu / - - V), 2 va 4-ruknlari esa «foilotun»ning solim (foilotun / - V - -) ko'rinishiga teng bo'ladi:

maf'uvlu / foilotun / maf'uvlu / foilotun

- - V / - V - - / - - V / - V - -

Masalan:

Kul-bam-g'a/ bas-ki gar-dun /g'am to-shi /yog'-du-rub-dur,

Sab-rim u /-yi-de-k^ul ham / yem-rul-g'a/-li tu-rub-dur.

- - V / - V - - / - - V / - V - -

maf'uvlu / foilotun / maf'uvlu / foilotun

axrab / solim / axrab / solim

Yoki:

Xat-ting a/ -ro u-zo-ring / sab-za i- /chi-da lo-la,

Ul chash-mi/ pur xu-mo-ring/ lo-la-da-/g'i g'a-zo-la.

- - V / - V - - / - - V / - V - -

maf'uvlu / foilotun / maf'uvlu / foilotun

axrab / solim / axrab / solim

2. Muzore'i musammani axrabi musabbag'. Mazkur vaznning muzore'i musammani axrab vaznidan farqi shundaki, undagi 4-ruknlari «foilotun»ning solim emas, musabbag' (foiliyyon // - V - ~) ko'rinishiga teng bo'ladi:

maf'uvlu / foilotun / maf'uvlu / foiliyyon

- - V / - V - - / - - V / - V - ~

Masalan:

Rux-so-ri /jo-ni-bi-da / ul xo-li / an-ba-ro-lud,

O't go'-sha/-si-da go'-yo/ an-bar tu/-shub qi-lur dud.

- - V / - V - - / - - V / - V - ~

maf'uvlu / foilotun / maf'uvlu / foiliyyon

axrab solim axrab musabbag'

Xafif bahri

Xafif «foilotun» va «mustaf'ilun» ruknlarining birikuvidan hosil bo'ladigan bahrdir. Xafif o'zbek adabiyotida asosan musaddas shakllarda qo'llangan. Bu bahrning quyidagi musaddas vaznlari uchraydi:

1. Xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf. Mazkur vaznning birinchi rukni «foilotun»ning solim (–V– –), ikkinchi rukni «mustaf'ilun»ning maxbun (V–V– /mafoilun), uchinchi rukni esa «foilotun»ning maxbuni mahzuf (VV– / failun) ko'inishiga teng bo'ladi:

foilotun mafoilun failun

foilotun mafoilun failun

– V – – / V – V – / V V –

Masalan:

Tel–ba–lik sen/–si–z,^ey pa–ri,/ me–nga ish,

Ko'k–su–ma tosh/ u–rar–me–n,^eg/–ni–ma nish. (*Navoiy*)

– V – – / V – V – / V V –

foilotun / mafoilun / failun

solim / maxbun / maxbuni mahzuf

2. Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf. Mazkur vaznning xafif musaddasi solimi maxbuni mahzuf vaznidan farqi shundaki, undagi birinchi rukn «foilotun»ning solim emas, «maxbun» (failotun / VV – –) ko'inishida bo'ladi:

failotun mafoilun failun

failotun mafoilun failun

V V – – / V – V – / V V –

Masalan:

Ho–ja–tim qad/–di–ngiz xi–ro/–mi–du–rur,

Qo'–pi–bon ho/–ja–tim ra–vo/ qi–li–ngiz. (*Navoiy*)

V V – – / V – V – / V V –

failotun / mafoilun / failun

maxbun / maxbun / maxbuni mahzuf

Mujtass bahri

Mujtass «mustaf’ilun» va «foilotun» ruknlarining birikuvidan yuzaga keladigan

bahrdir, bu bahrning birinchi va uchinchi ruknlari «mustaf’ilun», ikkinchi va to’rtinchi ruknlari esa «foilotun»dan iborat. Mujtassi musammani solim vazni quyidagi ko’rinishda bo’ladi:

mustaf’ilun/foilotun /mustaf’ilun /foilotun

mustaf’ilun/foilotun /mustaf’ilun /foilotun

— V — / — V — — / — V — / — V — —

O’zbek mumtoz adabiyotida mujtass bahrining asosan sakkiz ruknli vaznlari uchraydi. Ular quyidagilar:

1. ***Mujtassi musammani maxbuni mahzuf***. Bu vaznning birinchi va uchinchi ruknlari «mustaf’ilun»ning maxbun (mafoilun / V – V –), ikkinchi rukni «foilotun»ning maxbun (failotun / VV – –), to’rtinchi rukni esa «foilotun»ning maxbuni mahzuf ko’rinishi «failun» (VV –) dan iborat bo’ladi:

mafoilun /failotun /mafoilun /failun

mafoilun /failotun /mafoilun/ failun

V – V – / V V – – / V – V – / V V –

Masalan:

Ko’–ngul–ki, ish/-qi–da der–san/ ba–lo ne bo’l–/g’u–si–dur,

Ne–kim bo’–lur,/sa–nga bo’l–g’ay,/ ma–ngo ne bo’l–/g’u–si–dur.

V – V – / V V – – / V – V – / V V –

mafoilun failotun mafoilun failun

maxbun maxbun maxbun maxbuni mahzuf

2. ***Mujtassi musammani maxbuni maqsur***. Mazkur vaznning mujtassi musammani maxbuni mahzuf vaznidan farqi shundaki, oxirgi rukn «foilotun»ning maxbuni mahzuf emas, maxbuni maqsur (failon // VV~) tarmogiga teng bo’ladi.

mafoilun /failotun /mafoilun /failon

mafoilun /failotun /mafoilun /failon

V – V – / V V – – / V – V – / V – ~

Masalan:

E-mas ki-shi/-ga bu dun-yo/-ga mul-ku mo/-l. ka-mol,

Hu-su-li il-/mu hu-nar kel-/di be-za-vo/-l. ka-mol.

V – V – / V V – – / V – V – / V V ~

mafoilun / failotun / mafoilun / failon

maxbun / maxbun / maxbun / maxbuni maqsur

3. ***Mujtassi musammani maxbuni maqtu'***. Bu vaznning birinchi va uchinchi ruknlari «mustaf'ilun»ning maxbun (mafoilun / V – V –), ikkinchi rukni «foilotun»ning maxbun (failotun / VV – –), to'rtinchi rukni esa «foilotun»ning maqtu' ko'rinishi «fa'lun» (--) dan iborat bo'ladi:

mafoilun / failotun / mafoilun / fa'lun

mafoilun / failotun / mafoilun / fa'lun

V – V – / V V – – / V – V – / – –

Masalan:

Qa-ro ko'-zum /ke-lu mar-dum/-li-g'^em-di fan/ qil-g'il,

Ko'-zum qa-ro/-si-da mar-dum/ ki-bi va-tan /qil-g'il.

V – V – / V V – – / V – V – / – –

mafoilun / failotun / mafoilun / fa'lun

maxbun / maxbun / maxbun / maxbuni mahzuf

Munsarih bahri

Ma'lumki, bu bahr «mustaf'ilun» va «maf'ulotu» ruknlarining birikuvidan yuzaga keladi. Bahr nomining lug'aviy ma'nosi – “oson”. Munsareh bahrining solim shakllari o'zbek she'riyatida qo'llanmagan. Garchi Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida munsarih bahrining sakkiz musamman, ikki musaddas va ikki murabba' vazniga misollar keltirsa ham, o'zbek adabiyoti, xususan, Navoiy lirikasining o'zida ham bu bahrning asosan quyidagi ikki musamman vazni ishlatilgan, xolos:

1. ***Munsarihi musammani matviyi makshuf***. Mazkur vaznning 1 va 3-ruknlari «mustaf'ilun»ning matviy ko'rinishi «muftailun» (–VV–), 2 va 4-

ruknlari esa «maf'uvlotu»ning matviyi makshuf ko'rinishi «foilun» (-V-) ga teng bo'ladi:

muftailun /foilun/ muftailun /foilun

muftailun/ foilun/ muftailun/ foilun

-V V- / -V- / -V V- / -V-

Masalan:

Sur-ma bi-lan/-mu u-l^{oy} /ko'z-ni qa-ro / ay-la-mish,

Yo'q-sa Xo'-tan/ jay-ra-ni/ mush-kⁱ-chi-da / ag'-na-mish.

- V V - / - V - / - V V - / - V -

muftailun foilun muftailun foilun

matviy / matviyi / makshuf matviy / matviyi makshuf

2. Munsarihi musammani matviyi mavquf. Bu vaznning yuqoridagi vazndan farqi shundaki, uning avvalgi uch rukni bir xil bo'lgani holda, oxirgi rukni «maf'uvlotu»ning matviyi makshuf tarmog'i «foilun» emas, balki matviyi mavquf tarmog'i «foilon» (-V~) ga teng bo'ladi:

muftailun / foilun / muftailun / foilon

muftailun / foilun / muftailun / foilon

-V V- / -V- / -V V- / -V~

Qay-si cha-man/-din e-sib / kel-di sa-bo / yo-r-yor,

Kim da-mi-din/ tush-ti o't / jo-ni-m^a-ro, / yo-r-yor.

- V V - / - V - / - V V - / - V ~

muftailun foilun muftailun foilon

matviy / matviyi makshuf/ matviy / matviyi mavquf

Munsarihi musammani matviyi makshuf va munsarihi musammani matviyi mavquf vaznlari bir-biriga yaqin vaznlar bo'lgani uchun bir she'r doirasida almashinib qo'llanishi mumkin.

Ikkita bir xil va bitta boshqa xil rukn takroridan hosil bo'ladigan bahrlar

Mavjud 21 ta bahrdan 7 tasi I guruhga, 10 tasi II guruhga mansubligini ko'rib o'tdik. Qolgan 4 ta bahr III guruhni tashkil etadi. Bu bahrlarning eng muhim o'ziga xosligi shundaki, ular 2 ta bir xil va 1 ta boshqa xil rukndan (ya'ni 3 rukndan) tashkil topgan. Shuning uchun

ularning murabba' va musamman shakllari yo'q. Ular faqat musaddas shakliga ega. Bu guruhga mansub to'rt bahr va ularning ruknlari quyidagilardir:

1. Mushokil bahri – foilotun /mafoiylun /mafoiylun.
2. G‘arib (jadid) bahri – foilotun/ foilotun/ mustaf’ilun.
3. Qarib bahri – mafoiylun/ mafoiylun/ foilotun.
4. Sare’ bahri – mustaf’ilun/ mustaf’ilun/ maf’ulotu.

Ushbu 4 bahrning nomlari ham arabcha. Mushokil – “shakllangan”, g‘arib – “ajoyib”, qarib – “yaqin”, jadid – “yangi” degan ma’nolarni anglatadi. Qarib, mushokil va g‘arib bahrlari o’zbek she’riyatida mutlaqo qo’llanilmagan, ular asosan arab she’riyatiga mansub vaznlardir. Sare’ bahri esa she’riyatimizda keng qo’llanilgan. Biroq bu vaznning ham solim shakli turkiy til tabiatiga begona. Chunki so‘nggi ruknning oxirgi hijosi turkiy tabiatiga ko`ra cho‘ziq o‘qiladi, chunki o‘zbek tilida urg‘u odatda, so‘zning oxiriga tushadi.

Sari’ bahri vaznlari

Sari’ bahri ketma-ket kelgan ikkita «mustaf’ilun»ning bitta «maf’uvlotu» bilan birikuvidan hosil bo’ladi. Sari’ faqat musaddas shaklda qo’llanadigan bahr bo’lib, uning solim ko’rinishi quyidagichadir:

mustaf’ilun /mustaf’ilun /maf’ulotu
mustaf’ilun / mustaf’ilun /maf’ulotu
– V– / – V– / – – V
solim solim solim

O’zbek adabiyotida sari’ bahrining quyidagi vaznlari uchraydi:

1. ***Sari’i musaddasi matviyi makshuf***. Bu vaznning 1 va 2-ruknlari «mustaf’ilun»ning matviy ko’rinishi «muftailun» (–VV–), 3-rukni esa «maf’uvlotu»ning matviyi makshuf «foilun» (–V–) ko’rinishiga ega bo’ladi:

muftailun /muftailun /foilun
muftailun /muftailun /foilun
–V V– / –V V– / –V–

Masalan:

Chun o‘-qi-moq / zam-za-ma-si / bo‘l-di bas,
Ko‘ng-lu-m a-ro/ dag‘-da-g‘a sol-/di ha-vas.

– V V – / – V V – / – V –
muftailun / muftailun / foilun
matviy matviy matviyi makshuf

2. Sari’i musaddasi matviyi mavquf. Bu vaznning yuqoridagi vazndan farqi shundaki, uning avvalgi ikki rukni bir xil bo’lgani holda, oxirgi rukni «maf’uvlotu»ning matviyi makshuf tarmog’i «foilun» emas, balki matviyi mavquf tarmog’i «foilon» (–V~) ga teng bo’ladi:

muftailun /muftailun /foilon
muftailun /muftailun /foilon
–V V– / –V V– / –V~

Masalan:

Bo‘l-ma-sa e’/-jo-z ma-qo-/mi-da nazm,
Bo‘l-ma-s e-di/Teng-ri ka-lo-/mi-da nazm.

– V V – / – V V – / – V ~
muftailun muftailun foilon
matviy matviy matviyi mavquf

Yoki:

O’n i-ki oy/-da ke-la-dur /bir ta-nob,
O’z-ga-la-ra/ ro-ha-tu men/-ga a-zob. (*Muqimiy*)

– V V – / – V V – / – V ~
muftailun muftailun foilun
matviy matviy matviyi mavquf

Sari’i musaddasi matviyi makshuf va sari’i musaddasi matviyi mavquf vaznlari bir-biriga yaqin vaznlar bo’lgani uchun bir she’r doirasida almashinib qo’llanishi mumkin. Sari’ bahrida yozilgan Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», noma’lum shoirning «Yusuf va Zulayxo» dostonlari hamda Muqimiyning «Tanobchilar» hajviyasida shu xususiyatni ko’rish mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1-mashq. Baytlarning vaznini aniqlang

(1-satrdagi namunaga muvofiq to'ldiring)

1	Qaro-qaro mijā xanjarlarin ititmak ishing, Hayot naxlini kesgan qiyo-qiyo boqishing.			
	V - V-	V V - -	V - V-	V -
	mafoilun	failotun	mafoilun	faal
	maxbun	maxbun	maxbun	marbu`
<i>Mujtassi musammani maxbuni marbu`</i>				
2	Ishing bu erdiki, jonimni olg‘asen, tanni Ki sudratursen eshiktin, gar tugandi ishing.			
3	Kesib sochingni, azosi uchun fig‘on qilsang? Ko‘zungni ko‘ngluma andoqki mezbon qilding.			
4	Bo‘lur gahiki g‘amim shu’shasin ayon qilsang, Shararni shu’la uza nuqtalar gumon qilsang.			
5	Zihi azalda karam aylabon sanga xalloq, Karimi xilqat ichinda makorimi axloq.			

6	Maqomingga yetayin deb Navoiy aylar sayr, Gahi Ajam bila Neruz, gahi Hijozu Iroq.		
7	To ko‘rubon yuzin quyosh qolg‘ali ishtiyoqig‘a Goh boshig‘a evruler, goh tushar ayoqig‘a.		
8	Dardu balovu g‘ussani ko‘nglum aro keturdi ishq, Do‘sstlarin birav kibikim tilagay visoqig‘a.		
9	Kulbamga xo‘y afshon kel zulfung qilib oshifta, Anjum sipahin yig‘dur, ofoq ulusin qo‘zg‘ot.		
10	Xoro tubiga yotqung, yo‘q sud agar yuz ynl Ko‘k atlasi ustida jismingni yotib ag‘not.		

7-MAVZU: ARUZ VA MUMTOZ SHE'RIY JANRLAR.

REJA:

1. She'riy janrlar va ularning xususiyatlari.
2. Ruboiy va tuyuq janri vazni.
3. Mustazod janri.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: *Ruboiy, hazaj, axrab, axram, 24 vazn, mustazod, xazaj, musamman, qo 'shimcha misra yoki nimmisra, zihof, axrab, tuyuq, ramal, maqsur, mahzuf, sayohatnoma.*

Mumtoz she'riy janrlar, odatda, to'rt xil xususiyatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi:

1. She'rning hajmi, misra, bayt yoki bandlar soni.
2. Bayt va bandlarning qofiyalanish tartibi.
3. She'rning vazni.
4. She'rning mavzu va mazmuni.

Demak, she'riy janrlarni farqlashda boshqa belgilar qatorida vaznning ham ahamiyati bor. Mumtoz lirikamizda 20 dan ortiq lirik janr bo'lib, shundan 4 tasi o'zining aruzdagi qat'iy vazn tarmog'iga ega. Bular:

1. Tuyuq
2. Ruboiy
3. Mustahzod

RUBOIY fors-tojik va turkiy she'riyatning g'azaldan keyingi o'rinda turuvchi eng sermahsul va sevimli janrlaridan biridir. Abu Abdullo Ro'dakiy, Ibn Sino, Nosir Xusrav, Umar Xayyom kabi mutafakkir shoirlarning o'lmas merosi tufayli shakllanib, kamolga yetgan mazkur janr XIV asr oxiri va XV asr boshlarida turkiy adabiyotga ham kirib keldi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, turkiy tildagi dastlabki ruboiy Sayfi Saroyi asarlarining Leyden universitetida (Gollandiya) saqlanadigan yagona qo'lyozmasida uchraydi. Mazkur to'rtlikning janri ko'rsatilmagan bo'lsa-

da, to‘rt misradan iborat ekanligi, qofiyalanishi (a, a, b, a), falsafiy-didaktik mazmuni va eng muhimi, vazniga ko‘ra ruboiy janri talablariga javob beradi.

O‘zbek adabiyotshunosligi, she’rshunosligi ilmining dastlabki manbai bo‘lmish Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” asarida to‘rtlik shaklida yozilgan she’rlar vaznidan va mazmunidan qat‘i nazar “ruboiy” atamasi bilan yuritilgan: *“Ruboiy to‘rt misra’ bo‘lur. Avvalg‘i va ikkinchi va to‘rtinchisi misraida qofiya keltururlar. Va uchinchi misrai ixtiyoridur”*. Shu bilan birga, Taroziy tuyuqni ruboiyning bir turi sifatida ko‘rsatadi: *“Va ruboiyning bir nav‘i taqi bo‘lur. Oni mujannas derlar. Aningdek bo‘lurkim, ruboiyning qofiyasida tajnis rioyat qilurlar”*.

Ruboiy arabcha to‘rtlik so‘zidan olingan. Axloqiy-falsafiy, ishqiy mavzularda yaratiladigan to‘rt misradan iborat yaxlit, tugallangan she’r. Ruboiyning qofiyalanish tartibi ikki xil bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ruboiyning quyidagi ikki ko‘rinishi ajratiladi:

a) *xos ruboiy*: ruboiyning bu ko‘rinishida 1-2-4-misralar qofiyalanib, 3-misra ochiq qoladi: *a-a-b-a*:

Jondin seni sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak ondin ortiq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz. (*Alisher Navoiy*)

b) *taronayi ruboiy*: ruboiyning bu ko‘rinishida har to‘rtala misra qofiyalangan bo‘ladi: *a-a- a-a*:

Hijron aro yod etib, meni shod etting,
Mahjur ko‘ngulni g‘amdin ozod etting.
Ne lutf edi, dey, huri parizod etting,
Go‘yoki buzuq Ka’bani obod etting! (*Bobur*)

Fors-tojik va turkiy adabiyotda hamnafas va hamohang rivoj topgan bu janr bugungi kun she’riyatida ham fikr va tuyg‘ular ifodasining eng qulay shakllaridan biri sifatida alohida mavqega egaki, uning janriy imkoniyatlarini, badiiy malohatini o‘rganish mumtoz she’rshunoslik uchun

qanchalik ahamiyatli bo‘lgan esa, zamonaviy adabiyotshunoslik uchun ham shunchalik muhimdir.

Adabiyotshunoslikka oid atamalar izohlangan qator lug‘atlar, adabiyotshunoslik asoslari, adabiyot nazariyasiga fanlariga oid darslik va qo‘llanmalarda, o‘rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mo‘ljallangan adabiyot darsliklarida ruboiy janrining tabiati, shakliy unsurlari, ko‘rinishlari, vazn tarmog‘i va mavzu yo‘nalishi xususida ancha-muncha ma’lumotlar keltirilgan. Bu jihatdan, N.Hotamov va B.Sarimsoqovlarning “Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati” (269-270-betlar); Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” (256-bet); A.Zunnunov va N.Hotamovlarning “Adabiyot nazariyasidan qo‘llanma” (136-137-betlar); A.Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati” (208-209-betlar); B.Qosimov va Nusratullo Jumaxo‘jalar tomonidan tartib berilgan “O‘zbek adabiyoti” (10-sinf uchun darslik. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2003. 97-101; 174-176-betlar) singari lug‘at, darslik va qo‘llanmalari alohida ahamiyatga ega.

Ularning ayrimlarida bu janrning forsiy va turkiy adabiyotdagi taraqqiyoti, bu jarayondagi o‘zaro ta’sir va mushtarakliklar masalasi, zamonaviy adabiyotda ruboiy va uning yangicha ko‘rinishi bo‘lgan to‘rtlik shakllarining takomili kabi masalalar tadqiqiga ham alohida diqqat qaratilgan. Bunday adabiyotlar safida O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovuddinovlarning “O‘zbek klassik she’riyati janrlari” (154-166-betlar) kitobini; N.Hotamov va B.Sarimsoqovlarning yuqorida qayd etilgan lug‘atini, I.Haqqulovning “O‘zbek adabiyotida ruboiy” (Toshkent: “Fan”, 1981) risolasini alohida qayd etib o‘tish mumkin. Muhtaram muallimlarimizga ruboiy haqida bahs yurituvchi eng so‘nggi qarashlar o‘z ifodasini topgan manbalar sifatida adabiyotshunos olim Ergash Ochilovning “Muborak sarchashmalar” (Toshkent, 1997) risolasini hamda respublika filologlarining ilmiy minbari – “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalida e’lon qilingan “Sharq adabiyotida ruboiy va uni o‘rganish muammolari” (O‘TA, 2005 yil 4-son, 20-32-betlar), “Tasavvuf adabiyotida ruboiy” (O‘TA, 2006 yil 2-son, 14-23-betlar), “Shayx-shoirlar ijodida

ruboiy” (O’TA, 2007 yil 5-son, 12-19-betlar), “Bobur va Ubaydiy ruboilyarining qiyosiy tahlili” (O’TA, 2008 yil 1-son, 42-51-betlar) maqolalarini tavsiya etgan bo‘lar edik.

Ruboiy janri aruz tizimining hazaj bahriga tegishli bo‘lgan 24 xil vaznda yoziladi. Bu vaznlar qaysi rukn bilan boshlanishiga ko‘ra shartli ravishda **axram** (maf’uvlun, — — —) va **axrab** (maf’uvlu — — V) shajaralariga bo‘linadi. Har bir shajarada 12 tadan vazn mavjud bo‘lib, ularda mafo’iylun asliy rukni hamda quyidagi zihof va furu’lari ishtirok etadi:

maf’uvlu – axrab;
maf’uvlun – axram;
mafo’ilun – maqbuz;
mafo’iylu – makfuf;
fo’ilun – ashtar;
fa’ – axrami majbub;
fo’ – azall;
fa’ul – majbub;
fa’uvl – axtam;

Ruboiy vaznini aniqlash:

1-qadam ruboyni yozamiz va kamida 4 marotaba o’qiymiz:

G‘urbatta g‘arib shodmon bo‘lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish.

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg‘a tikandek oshiyon bo‘lmas emish.

2-qadam hijolarga ajratib yozamiz:

G‘ur-bat-ta g‘a-ri-b(i) sho-d(i)-mon bo‘l-ma-s e-mish

El an-ga sha-fi-qu meh-ri-bon bo‘l-ma-s e-mish.

Ol-tun qa-fa-s ich-ra gar qi-zil gul but-sa

Bul-bul-g‘a ti-kan-de-k o-shi-yon bo‘l-ma-s e-mish.

3-qadam hijolar sifatini (qisqa/cho ‘ziqligi) aniqlaymiz:

G‘ur-bat-ta g‘a-ri-b(i) sho-d(i)-mon bo‘l-ma-s e-mish

- - V V - V - V - - V V -

El an-ga sha-fi-qu meh-ri-bon bo'l-ma-s e-mish.

- - V V - V - V - - V V -

Ol-tun qa-fa-s ich-ra gar qi-zil gul but-sa

- - V V - V - V - - - -

Bul-bul-g'a ti-kan-de-k o-shi-yon bo'l-ma-s e-mish.

- - V V - V - V - - - V V -

4-qadam ruknlarga ajratamiz:

G'ur-bat-ta /g'a-ri-b(i)-sho /d(i)-mon-bo'l-ma /s e-mish

- - V / V - V - / V - - - V / V -

El an-ga / sha-fi-qu-meh / ri-bon-bo'l-ma /s e-mish

- - V / V - V - / V - - - V / V -

Ol-tun qa / fa-s ich-ra-gar /qi-zil-gul-but /sa

- - V / V - V - / V - - - / -

Bul-bul-g'a /ti-kan-de-k o /shi-yon-bo'l-ma /s e-mish.

- - V / V - V - / V - - - V / V -

5-qadam ruknlarga muvofiq afoyillarni yozib chiqamiz:

G'ur-bat-ta /g'a-ri-b(i)-sho /d(i)-mon-bo'l-ma /s e-mish

- - V / V - V - / V - - - V / V -

Maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal

El an-ga / sha-fi-qu-meh / ri-bon-bo'l-ma /s e-mish

- - V / V - V - / V - - - V / V -

Maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal

Ol-tun qa / fa-s ich-ra-gar /qi-zil-gul-but /sa

- - V / V - V - / V - - - / -

Maf'uvlu mafoilun mafoiylyn fa'

Bul-bul-g'a /ti-kan-de-k o /shi-yon-bo'l-ma /s e-mish.

- - V / V - V - / V - - - V / V -

Maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal

6-qadam misralarning vazn nomini yozamiz:

G'ur-bat-ta/g'a-ri-b(i)sho/d(i)-mon bo'l-ma /s e-mish/

El-an-ga/sha-fi-qu-meh/ri-bon-bo'l-ma/s e-mish

Maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal

Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi majbub
Ol-tun-qa/fa-s ich-ra-gar/qi-zil-gul-but/sa/
Maf'uvlu mafoilun mafoiylyn fa'
Hazaji musammani axrabi maqbuzi abtar
Bul-bul-g'a/ti-kan-de-k o/shi-yon-bo'l-ma/s e-mish.
Maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal
Hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi majbub
Ko'rinib turibdiki, ruboiyning 1-, 2- va 4-misralari bir xil – **hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi majbub** vaznida, uchinchi misra esa **hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar** vaznida yozilgan.

TUYUQ – mumtoz adabiyotning bu kichik janri turkiy adabiyotda shakllangan bo'lib, tuyuq atamasi ham turkiy so'zdan olingan.

Bu so'z tuymoq o'zagidan kelib chiqqan bo'lib, "his qilmoq", "idrok etmoq" degan ma'noni anglatadi. Tajnisli qofiyaga asoslangan tuyuqdagi shakldosh so'zlarning ma'nosini idrok etish zaruriyati janrning tuyuq deb nomlanishiga sabab bo'lgan.

Alisher Navoiy tuyuq haqida "sa'y qilurlarkim, tajnis aytulg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdir", deb yozadi.

Bobur "Muxtasar"da o'ziga qadar o'zbek she'riyatida yaratilgan tuyuqlarni tasnif qilib to'rt tur yoki "nav" ga ajratadi:

1. "Biri ulkim har uch qofiyada tajnis rioyat qilurlar".

2. "Yana biri ulkim qit'adek burung'i baytning avvalqi misrasida qofiya rioyat qilmay baytlarning qofiyasida tajnis keltururlar (ya'ni, ikkinchi va to'rtinchi misrada tajnis qo'llanadi)".

3. "Yana biri ulkim tajnis rioyat qilmay, uch qofiya bila ayturlar".

4. "Yana biri ulkim tajnis rioyat qilmay ikki qofiya bila ayturlar".

Demak, Navoiy ham, Bobur ham tuyuq janrining asosiy belgisi sifatida aruzning ramali musaddasi maqsur (mahzuf) (fo'ilotun, fo'ilotun, fo'ilon (fo'ilun)) vaznida yozilishini ko'rsatadi.

Tuyuq to'rt misradan iborat bo'lib, uning qofiyalarini shakldosh so'zlar tashkil etadi. To'rt misra she'rning tuyuq janriga mansub ekanligi yoki emasligini uning omonim qofiyalari va vazniga qarab aniqlaymiz.

Tuyuq janri qat'iy ravishda aruzning *ramali musaddasi mahzuf yoki maqsur* (*foilotun*, *foilotun*, *foilun/foilon*) vazn tarmog'ida yaratiladi. Tuyuqning qofiyalanish tartibi: *a-a-b-a yoki a-a-a-a*.

Tuyuq vaznini aniqlash:

Ne-cha-de-dim/ul-sa-nam-g'a/bor-mo-g'in

Qil-ma-di-ul/tar-k-o-xir/bor-mo-g'in.

Mun-cha-kim-xud/ro-y-lik-ko'r/gaz-di-ul

Aq-l-hay-rat/qil-di-tish-lab/bor-mo-g'in.

- V - - / - V - - / - V -

foilotun / foilotun / foilun

Ramali musaddasi mahzuf

MUSTAZOD (arabcha, orttirilgan) – qofiyalanishiga ko'ra g'azalga aynan o'xshaydi: *a-a*, *b-a*, *v-a*, *g-a*... Ammo misra tuzilishiga ko'ra g'azaldan farq qiladi. G'azalda baytlar tugallangan misralardan tashkil topsa, mustazodda baytdagi tugallangan misralardan keyin o'ng tomondan joylashtirilgan siniq misralar mavjud bo'ladi. Mana shunday siniq misralarga egaligi uchun bu janrni mustazod – orttirilgan deb ataganlar.

Alisher Navoiy mustazod janri haqida quyidagicha ma'lumot beradi: "Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vaznida anga bayt bitib bog'lab, aning misraidi so'ngra hamul bahrning ikki rukni bila ado qilib, surud nag'amotig'a rost keltururlar ermish va ani "mustazod" derlar ermish".

Turkiy adabiyotda Alisher Navoiydan keyin mustazodnavislik an'anasi davom etirgan ijodkorlar safida Boborahim Mashrab va Muhammadrizo Ogahiy nomlarini alohida qayd etish mumkin. Mustazodnavislikda o'ziga xos mahorat ko'rsatgan Ogahiy an'anaviy yo'nalishda mustazodlar yaratish bilan birgalikda, siniq misralari ikkita bo'lgan mustazod yaratish an'anasiga asos soldi.

Sharq adabiyotidagi mastazod janri **hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf yoki maqsur** vaznida bitilgan. Mustazodning ushbu vaznda bitilgan g'azallardan farqi shundaki, mustazod janridagi she'rlarda g'azalga o'xshagan har bir uzun misradan (– V / V – V / V – V / V –

| maf'uvlu /mafoiylu /mafoiylu /fauvlun) so'ng ularga uzun misraning birinchi va to'rtinchi ruknlariga teng keladigan qisqa misracha (— V / V — | maf'uvlu / fauvlun) qo'shiladi. Shuning uchun ham bu janrga «orttirilgan, ziyoda qilingan» degan ma'noda mustazod deb nom berilgan.

Mustazod vaznining ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

Ish-qing o'/ti-din o'r-ta/-na-dur jo-ni /ni-zo-rim,

— — V / V — — V /V — — V / V — —

maf'uvlu / mafoiylu / mafoiylu / fauvlun

axrab / makfuf / makfuf / mahzuf

Ul nav-'i-/ ki mash'-al.

— — V / V — —

maf'uvlu / fauvlun

axrab / mahzuf

Xo-kis-ta-/r o'-lib yel-ga / bo-rur gar-di / g'u-bo-rim,

— — V / V — — V /V — — V / V — —

maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun

axrab makfuf makfuf mahzuf

Jis-mim bo' /-li-bon hal

— — V / V — —

maf'uvlu / fauvlun

axrab / mahzuf

Demak, mustahzodning mazkur bayti vazni ***hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf***.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. Aruzning she'riy janrlarni belgilashdagi ahamiyati haqida nima deya olasiz?
2. Ruboiy janrining vazn xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
3. Tuyuq janri va uning vazn xususiyatlari haqida qanday fikr va ma'lumotlarni bilasiz?
4. Mustazod janri va uning vazn xususiyatlari haqida qanday fikr va ma'lumotlarni bilasiz?

5. “Muxtasar”da ruboiy vaznlarining axrab va axram shajalarini uchun berilgan chizmani daftaringizga aynan chizing.
6. O‘zining maxsus vazn tarmog‘iga ega janrlardan berilgan ushbu baytlarni jadvalda tahlil qiling:

1	Din ofati bir mug‘bachayi mohliqodur, Mayxora-vu bebok, Kim ishqidin oning vatanim dayri fanodur, Sarmast-u yaqom chok.			
Asosiy misra				
Siniq misra				
Vazn nomi				
2	Bu xasta vujudimni meni o’rtadi bir yo’l Ul zulfi parishon Ul gul yuzining shavqida men volayi bulbul, Ul g’uncha yi xandon.			
Asosiy misra				
Siniq misra				
Vazn nomi				
3	Yo rabki, inoyatingni yor ayla manga,			

	<p>Yo‘qluqqa hidoyatingni bor ayla manga, Har kahfi kifoyatingni dor ayla manga, Har durri inoyating nisor ayla manga.</p>		
4	<p>Gar oshiq esang, zebu takallufni unut, Yaxshiyu yamon ishda taxallufni unut, O‘tgan gar erur yamon, taassufni unut, Kelgan gar erur yaxshi, tasarrufni unut.</p>		
5	<p>Kim istasa sultanat, saxodur anga shart, Har va’daki aylasa, vafodur anga shart. Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart, Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.</p>		
6	<p>Javr o`qin jonimg`a soqiy yozmadi, Vasl jomidin xumorim yozmadi. Kilki qudrat sabz xatlar ishqidin O`zga ish ollimg`a go`yo yozmadi.</p>		

7	<p>Charx tortib xanjari hijron bu tun, Qo`ymadi bir zarra bag`rimni butun. Tunga borib bizni behol aylading, Ne balolig` yer emish, yo rab, bu tun.</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr><td style="width: 25%;"></td><td style="width: 25%;"></td><td style="width: 25%;"></td><td style="width: 25%;"></td></tr> <tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr> <tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr> <tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr> </table>																
8	<p>Yog`di javrung o`qi hajring toshidek, Qildi qon ko`nglum ichin ham toshidek. Sochqali mohim ayog`ig`a sipehr, Ko`z yoshimning la`lu durrin toshidek.</p> <table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr><td style="width: 25%;"></td><td style="width: 25%;"></td><td style="width: 25%;"></td><td style="width: 25%;"></td></tr> <tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr> <tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr> <tr><td></td><td></td><td></td><td></td></tr> </table>																

8-MAVZU: SHARQ ADABIYOTIDA MASNAVIYLAR VA ULARNING VAZN TARKIBI

REJA:

1. Sharq adabiyotida masnaviyalar va ularning vazn tarkibi.
2. Masnaviy va uning aruz ilmidagi o‘rni.
3. Turkiy masnaviyalar yoxud “Xamsa”larning vaznlari.
4. O’zbek mumtoz adabiyotida masnaviyalar yoxud dastonlarning vazni.

“Masnaviy” so‘zi arabcha “ikki” sanoq sonini bildiruvchi “isnan” so‘zidan yasalgan bo‘lib, ikkilik ma’nosini ifodalaydi. Sharq mumtoz she’riyatida har juft misra o‘zaro butunlikni hosil qiluvchi, ya’ni qofiyalanuvchi she’riy shakl masnaviy deb nomlanadi. O‘rtalarda yirik hajmli dostonlarga nisbatan ham, ikkilik shaklida yozilgan ichikroq

hajmdagi she’rlarga nisbatan ham masnaviy atamasini qo’llash odatiy hol edi. Hozirgi adabiyotshunoslikda esa bu atama ikki xil ma’noda, ya’ni janr va she’riy shakl ma’nosida qo’llanadi:

1. Mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, ikkilik shaklida yozilgan dostonlarga nisbatan masnaviy atamasi she’riy shakl ma’nosida qo’llanadi. Masalan: “Lison ut-tayr”ning janri doston, shakli esa masnaviydir.

2. Lirk asarlar majmuasi, xususan, devonlar tarkibiga kiritilgan va ikkilik shaklida yozilgan lirk she’rlarga nisbatan masnaviy janr nomi sifatida qo’llanadi.

Masnaviyarning muhim jihatlaridan biri vazn bo‘lib, bu borada o‘rtaschlarda ham, keyingi davr, xususan, hozirgi adabiyotshunoslikda ham ko‘plab fikr-mulohazalar aytilgan. Aruzshunoslikka oid yaratilgan deyarli barcha aschlarda masnaviylargacha xos bo‘lgan vaznlar va bu boradagi an’analalar alohida qayd etiladi, tahlilga tortiladi. Jumladan, “Funun ul-balogs‘a”, “Mezon ul-avzon”, “Muxtasar” kabi turkiy tildagi manbalardan bu masalaga oid ma’lumotlar olish mumkin. Jumladan, Bobur “Muxtasar”da yazadi:

“Bilmak kerakkim, aksar masnaviyning iyrodi qisasu hikoyat... bayonida voqe’ bo‘lurkim, qasida va g‘azal amsolig‘a gunjoyish ul yo‘qtur, bu jihatdindurkim necha maxsus vaznda-o‘q masnaviy aytibturlar. Ul jumladin besh vazni mashhurdurkim “Xamsa”lar ul avzondadur. Yana bir vazn agarchi “Xamsa”da yo‘qtur fil jumla shuhrati bor. “Mantiq-ut tayr” va “Masnaviy” bu ikki kitobning qoyili azizlarning aksar masnaviyllari bu vaznda voqe’ bo‘lubturlar. Yana bir vazndurkim, agarchi shuhrati kamdur vale xeyli latif vazndur. Mavlono Abdurahmon Jomiy “Sabha”si ul vazndadur”.

Masnaviynavislikda qo’llanuvchi vaznlar jami to‘qqizta bo‘lib, ular Amir Xusrav Dehlaviyning “No‘h spehr” (“To‘qqiz falak”) dostonida o‘z ifodasini topgan. Har bir spehr (falak) alohida vaznda yozilgan. Mazkur to‘qqiz vazndan yettitasi Abdurahmon Jomiyning “Haft avrang” dostonlar turkumida qo’llangan:

1. *Sari’i musaddasi matviyi maksuf* (mavquf)

Mufta'ilun /mufta'ilun /fo'ilun (fo'ilon)

– V V – / – V V – / – V – (– V ~)

matviy / matviy / makshuf (mavquf)

Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostoni tufayli bu vazn xamsanavislikdagi dastlabki doston vazni sifatida qat’iy maqomga ega bo‘ldi. “Matla’ ul-anvor” (Amir Xusrav), “Tuhfat ul-ahror” (Jomiy) va “Hayrat ul-abror” (Navoiy) dostonlari ham shu vaznda yozilgan. Turkiy adabiyotda yaratilgan mashhur dostonlardan Haydar Xorazmiyning “Maxzan ul-asror”i hamda Durbekning “Yusuf va Zulayho”si shu vaznda yaratilgandir. Mazkur vazn falsafiy-didaktik mavzularni ifodalash uchun qulay deb hisoblanadi.

Misol tariqasida A.Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan baytning vazniy tahlilini ko`raylik:

O-da-mi er/sang de-ma-gil/ o-da-mi,

O-ni-ki yo‘q/ xal-qi g‘a-miy/din g‘a-mi.

– V V – / – V V – / – V –

mufta'ilun / mufta'ilun / fo'ilun

matviy / matviy / makshuf

Bayt vazni *sari’i musaddasi matviyi maksuf*. Shuni esda tutish lozimki, dostonda sari’i musaddasi matviyi maksuf va sari’i musaddasi matviyi mavquf vazn tarmoqlari bir-biri bilan o`rin almashib qo’llanilgan. Bunda faqatgina oxirgi hijo o`ta cho`ziq (foilon) bo`ladi. Bundan tashqari “Hayrat ul-abror” dostonida muftailun (matviy) zihofi maf’uvlun (maqtu’) zifohi bilan ham almashib qo`llanganligini ko`ramiz.

2. Hazaji musaddasi mahzuf (maqsur).

Mafo’iylun / mafo’iylun / fa’uvlun (mafo’iyl)

V --- / V --- / V -- (V ~)

Solim / solim / mahzuf (maqsur).

Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni tufayli shuhrat qozongan bu vazn “Xamsa”lardagi ikkinchi dostonlarga xos bo‘lib, unda ishqiy-sarguzasht syujetlar bayon etiladi. Amir Xusrav Dehlaviyning “Shirin va Xusrav”, Jomiyning “Yusuf va Zulayho”, Alisher Navoiyning “Farhod va

“Shirin” dostonlari ham shu vaznda yozilgan. Mazkur vazn turkiy adabiyotda keng iste’molda bo’lgan. Jumladan, Xorazmiy “Muhabbatnama”si va uning naziralari, Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro’z” dostonlari buning yorqin misollaridir.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan:

De-di: Qay-din/ sen, ey maj-nu/-ni gum-rah?

De-di: Maj-nun/ va-tan-din qay/-da o-gah.

V – – – / V – – – / V – –

mafoiylun / mafoiylun / fauvlun

solim solim mahzuf

Mazkur bayt *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida. Dostonda *hazaji musaddasi mahzuf* va *hazaji musaddasi maqsur* vaznlari o’zaro almashinib qo’llangan. Zero bu ikki vazn orasidagi farq faqat oxirgi hijoning o’ta cho’ziqligi bilan farqlanadi:

De-di: Qay chog’-/din o’l-ding ish/-q a-ro mast?

De-di: Ruh er-/mas er-di tan/-g‘a pay-vast.

V – – – / V – – – / V – – ~

mafoiylun / mafoiylun / mafoiyl

solim solim maqsur

Mazkur bayt vazni *hazaji musaddasi maqsur*.

3. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (maqsur)

Maf’uvlu / mafo’ilun / fa’uvlun (mafo’iyl).

-- V / V – V – / V -- (V – ~)

axrab / maqbuz / mahzuf (maqsur)

Xamsalarning uchinchi dostonlari shu vaznda bo’lib, ko’proq ishq iztiroblari, dard va mahzun ohanglarni ifodalashga mo’ljallangan. Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy va Alisher Navoiyning Layli va Majnun haqidagi dostonlari, Xoju Kirmoniyning “Gavharnoma”si shu vaznda yozilgan.

Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidan:

Yo Rab, e-/shi-ging-da ul / ga-do-men,
Kim, bosh-ti /n a-yoq-qa-cha/xa-to-men.

– – V / V – V – / V – –

maf’uvlu / mafo’ilun / fa’uvlun
axrab / maqbuz / mahzuf

Dostonda jami to‘rt xil variatsiyani uchratish mumkin. Ya`ni *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf*, *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur*, *hazaji musaddasi axrami maqbuzi mahzuf*, *hazaji musaddasi axrami maqbuzi maqsur* vaznlari o`rin almashib kelgan o`rinlar mavjud.

4. Xafifi musaddasi maxbuni abtar

Fo’ilotun /mafo’ilun /fa’lun

– V – – / V – V – / – –

solim / maxbun / abtar.

Ta’kidlash lozimki, ushbu vaznda yozilgan masnaviyarda so‘nggi rukn turli shaklda aralash qo‘llanadi. Shunga ko‘ra vazn nomi ham farqlanadi. Jumladan: fa’lun(– –) – abtar; fa’lon(– ~) – abtari musabbag‘; fa’ilun(V V –) – maxbuni mahzuf; fa’ilon (V V~) – maxbuni maqsur.

Bu vaznda yozilgan ilk masnaviylardan biri mashhur so‘fiy shoir Sanoyining “Hadiyat ul-haqoyiq” dostonidir. Falsafiy-tasavvufiy pandnoma ruhidagi bu doston Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostoniga ilhom bag‘ishlagan deb aytildi. Ammo bu vaznda Nizomiy o‘zining to‘rtinchi dostoni “Haft paykar”ni yaratdi. Shundan boshlab, Bahrom haqidagi ishqiy-sarguzasht dostonlar shu vaznda yoziladigan bo‘ldi. Xususan, “Hasht behisht” (Amir Xusrav), “Sab’ayi sayyor” (Navoiy), “Haft avrang” (Ashraf) va hokazo. Abdurahmon Jomiy esa Sanoiy izidan borib, bu vaznda yana bir falsafiy-didaktik dostoni “Silsilat uz-zahab”ni yaratdi.

Alisher Navoiyning “Sab’ayi sayyor” dostonidan:

Qo-di-ro, ul / za-i-fu o-/siy-men,

Ki bo-shim-din/ a-yoq ma-o-/siy-men.

– V – – / V – V – / – –

fo’ilotun /mafo’ilun /fa’lun

solim / maxbun / abtar.

Bayt vazni *xafifi musaddasi maxbuni abtar.*

5. Mutaqoribi musammani mahzuf (maqsur).

Fa’uvlun / fa’uvlun / fa’uvlun / fa’ul (fa’uvl)

V – – / V – – / V – – / V – (V ~)

solim / solim / solim / mahzuf (maqsur)

Bu vazn Firdavsiyning “Shohnoma” asari tufayli mashhur bo‘lib, keyinchalik, Nizomiyning “Iskandarnoma” dostonidan boshlab “Xamsa”lardagi beshinchi doston vazni maqomiga ega bo‘ldi. Amir Xusravning “Oinai Iskandariy”, Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy”, Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonlari ham shu vaznda yaratilgan. Mazkur vazn jangnoma dostonlarga xos deb qaraladi. Biroq didaktik ruhdagi qator asarlar ham shu vaznda yaratilgan. Xususan, turkiy adabiyotdagi ilk dostonlar – “Qutadg‘u bilig” (Yusuf Xos Hojib) va “Hibat ul-haqoyiq” (Ahmad Yugnakiy), Sa’diyning mashhur asari – “Bo‘ston” shular jumlasidan.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidan:

Ja-mo-ling-/ki meh-ri / ja-hon-tob / o‘-lub

Xa-fo par-/da-si ich-/ra - no-yob /o‘-lub.

V – – / V – – / V – – / V ~

fa’uvlun / fa’uvlun / fa’uvlun / fa’uvl

solim / solim / solim / maqsur

Bayt vazni *mutaqoribi musammani maqsur.*

6. Ramali musaddasi mahzuf (maqsur).

Fo’ilotun / fo’ilotun / fo’ilun (fo’ilon)

– V – – / – V – – / – V – (– V ~)

solim / solim / mahzuf (maqsur).

Xamsalarning tarkibiga kirmaydigan bu vazn ko‘proq tasavvufiy dostonlarda qo‘llanadi. Uning shuhrat qozonishi Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” hamda Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” dostonlari bilan bog‘liq. Alisher Navoiy ham o‘zining shu ruhda yozilgan “Lison-ut tayr” dostonini mazkur vaznda yaratdi. Jomiy esa bu vaznni “Salomon va Absol” dostonida qo‘lladi.

Alisher Navoiyning “Lison-ut tayr” dostonidan:

An-bi-yo sar-/xay-li, sul-to-/ni ra-sul
Kim, e-rur o-/ning tu-fay-li /juz-vi kul.

– V – – / – V – – / – V ~
fo’ilotun / fo’ilotun / fo’ilon
solim / solim / maqsur

Bayt vazni *ramali musaddasi maqsur*.

Mavzuni mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. “Xamsa” tarkibidagi dostonlarning vazni haqida nimalarni bilasiz?
2. Jadvaldagи baytlar va taqte`larni moslashtiring:

No	Baytlar	Taqte`lar
1	Manga xamsa takmili bir yon edi, Bu maqsud tahsili bir yon edi.	v – – – / v – – – / v – –
2	Jafo maydonig‘a har dam surub ot, Kishi andin nechuk qilg‘ay mubohot.	v – – / v – – / v – – / v –
3	Bir na’shg‘a soldilar ikovni, Jonsiz kelinu o‘lik kuyovni.	– v – – / – v – – / – v –
4	Ulki kishi o‘lqidin shod erur, Go‘rkanu g‘osilu jallod erur.	– v v – / – v v – / – v –

5	Birda birdin hosil o‘ldi bir adad, Yo‘q xiradg‘a munda dam urmoqqa had.	- - v / v - v - / v - -
6	Bu g‘alatkim alar dag‘iy dedilar, Magaram qissaxon qizi edilar.	- v - - / v - v - / v v -

3. Jadvaldagi afoyillar va dostonlarni moslashtiring:

Nº	Afo’iyllar	Dostonlar
1	Mafo’iylun mafo’iylun fa’uvlun	“Sab’ayi sayyor”
2	Mufta’ilun mufta’ilun fo’ilun	“Saddi Iskandariy”
3	Fa’uvlun fa’uvlun fa’uvlun fa’ul	“Lison ut-tayr”
4	Fo’ilotun fo’ilotun fo’ilun	“Hayrat ul-abror”
5	Fo’ilotun mafo’ilun fa’ilun	“Farhod va Shirin”
6	Maf’uvlu mafo’ilun fa’uvlun	“Layli va Majnun”

4. Alisher Navoiy dostonlaridan olingan quyidagi baytlar vaznini mustaqil aniqlang, qaysi dostondan olinganligini toping.

1. Shukrungg‘a tilimni qoyil ayla,
Sajdangga boshimni moyil ayla.

2. Ul muhri xututi vasfi zoting,
Xotam “alif”iyu “te”si oting.

3. Shuhratin olam ichra paydo qil,
Olam ahlin alarga shaydo qil.

4. So‘z kelib avvalu, jahon so‘ngra,

Ne jahon, kavn ila makon so‘ngra

5. Ne kun orazidin bor erdi nishon,
Ne tun turrasi anda anbarfishon.
6. Ayon bo‘lmayin bahri zotingg‘a mavj,
Aning mavjig‘a ne hazizu ne avj.
7. Ul nav’ki hotif etti irshod,
Men ham qildim fasona bunyod.
8. Ey siposing demakda el tili lol,
Elga til sendin o‘ldi, tilga maqol.
9. Turk nazminda chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.
10. Kichik erkanimdin bo‘lub qoshima,
Ulug‘ muddao soldingiz boshima.

ILOVALAR

Test topshiriqlari

1. Ilmi bade'ga doir forsiy adabiyotida yaratilgan ilk asar va uning muallifi nomi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

A. Atoulloh Husayniy, "Badoye'-us-sanoye""

B. Muhammad binni Umar Roduyoniy, "Tarjimon ul-balogs'a"

V. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, "Funun-ul-balogs'a"

G. To'g'ri javob yo'q.

2. Lab tashnalarg'a ayla nazora Qaddi chu shamshod, qoshi hilolim. Baytda qaysi san'at qo'llanganligini aniqlang.

A. Talmeh

B. Tashxis

V. Istiora

G. Tashbeh

3. O't emas, obi ravondur qilichi, Tig' emas, marhami jondur qilichi. Baytda qo'llanilgan badiiy san'atni aniqlang.

A. Tajnis

B. Tazod

V. Talmeh

G. Mubolag'sa

4. Atoulloh Husayniy "Badoye'-us-sanoye"" asarida nechta badiiy san'at haqida ma'lumot beradi?

A. 500 ta

B. 1000 dan ortiq

V. 100 ta

G. 143 ta

5. Lola kabi yoqut qadah, yo'q tubiga durd,

Bir shisha may andoqli aqiqi yaman erdi. Baytda tashbehning qaysi ko'rinishi qo'llangan?

A. To'liq bo'lмаган tashbeh

B. Tashbehi noqis

V. To'liq tashbeh

G. To'g'ri javob yo'q

6. "Nutq go'zalliklari uch qism bila cheklanur, ul jihatdinkim, har go'zallik yo faqat lafz go'zalligidur, yo faqat ma'no go'zalligidur, yoxud lafzu ma'no yig'indisining go'zaligidur". Ushbu iqtibos qaysi manbadan olingan?

A. Alisher Navoiy, "Mezon ul avzon"

B. Atoulloh Husayniy, "Badoyi'-us-sanoyi'"

- V. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, "Funun–ul-balogs‘a".
- G. Vahidi Tabriziy, "Jam‘i muxtasar"
7. Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram, Gul uzra tomib kam-kam yog‘di abri naysonlar shoir baytda qaysi san‘atga murojaat qilgan?
- A. Tarse'
- B Musajja'
- V.Tajnisli qofiya
- G. Zulqofiyatayn
8. "Lafziy san‘atlar she’riy nutqdagi so‘zning tovush bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘proq shakl hodisasi sifatida ko‘rinadi, she’riy nutqqa bezak-ziynat berishga xizmat qiladi". Lafziy san‘atlarga berilgan ushbu ta‘rif qaysi adabiyotshunosga tegishli?
- A. R. Orzibekov
- B. A. Hojiahmedov
- V. T. Boboyev.
- G. Y. Is’hoqov
9. YO xaridor o‘lsam erdim junun bozorida,
- Solmag‘aydi boshima yuz rangli savdo kokuling baytdan o‘rin olgan she’riy san‘atlarni aniqlang.
- A. Tashbeh, tajnis
- B. Talmeh, tazod
- V. Husni ta’lil, irsolu masal
- G Tanosib, istiora
10. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyining "Funun–ul-balogs‘a" asari necha qismidan iborat, asarning nechanchi qismida badiy vositalar haqida ma’lumot berilgan?
- A. 7 qismidan iborat bo‘lib, 4 qismida badiiy vositalar haqida ma’lumot beriladi.
- B. 3 qismidan iborat bo‘lib, 3 qismida badiiy vositalar haqida ma’lumot beriladi.
- V. 5 qismidan iborat bo‘lib, 3 qismida badiiy vositalar haqida ma’lumot beriladi.
- G. 7 qismidan iborat bo‘lib, 1 qismida badiiy vositalar haqida ma’lumot beriladi.
11. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyining "Funun–ul-balogs‘a" asarida nechta she’riy san‘at haqida ma’lumot beriladi?
- A. 97 ta
- B. 76 ta
- V. 100 ta
- G. 33ta
12. Qurtdek bo‘ri bila to‘ldi yobon,

Dema qo'y, balki to'ma bo'ldi sho'bon. Baytda qanday she'riy san'at qo'llangan.

- A. Tazod, talmeh
 - B. Tashbeh, zulqofiyatayn
 - V. Tajnis, tashxis
 - G. Badiiy san'at qo'llanmagan.
13. "Navoiy lirikasi" asarining muallifini aniqlang.
- A. R. Ozibekov
 - B. B. Valixo'jayev
 - V. A. Rustamov
 - G. A. Hayitmetov

14. "SHe'r ma'nosini oshirishga ta'sir ko'rsatishi, she'rning ma'nosiga, g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan san'at". Gap she'riy san'atlarning qaysi guruhi haqida boryapti?

- A. Ma'naviy san'atlar haqida
- B. Lafziy san'atlar
- V. Lafziy-ma'naviy
- G. Harfiy san'atlar

15. Oh ursa, olamni buzar tovushi, To'qson molning terisidan kovushi. Baytda mubolag'aning qaysi turi qo'llangan?

- A. Mubolag'a qo'llanmagan
- B. Ig'roq
- V. G'uluv
- G. Tablig'

16. "Ikki yoki andin ortiq lafzning nav'u turlari bayon etilgan ko'rinishlaridin birida bir-biriga o'xshamog'idir" Atoulloh Husayniy "Badoyi' us- sanoyi'" asaridan keltiirilgan ushbu ta'rif qaysi san'atga ta'luqli?

- A. Ishtiqoq
- B. Tajnis
- V. Iyhom
- G. Tuyuq

17. Ko'ngulda garchi hajrning dog'i bordur.

Valekin vasl umidi dog'i bor. Baytda qanday tasviriy vosita ishtirok etgan?

- A. Omonim
 - B. Iyhom
 - V. Tajnis
 - G. To'g'ri jovob yo'q
18. Bunday san'atda so'z yoki iboralar o'z ma'nosida emas, balki boshqa ma'noda ishlatiladi va so'zlarning ko'chma ma'nolari yuzaga keltiriladi. Fikr qaysi tasviriy vosita xususida ketyapti?

- A. Talmeh
- B. Mubolag'a
- V. Tashbeh
- G. Istiora

19. Aqlan ishonish mumkin bo'lgan, hayotda ham yuz berishi

- mumkin bo‘lgan mubolag‘a turi
bu- ...
- A. Oddiy mubolag‘a
B. G‘uluv
V. Ig‘roq
G. Tablig‘
20. O‘zbek tilida yozilgan birinchi asar - Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning “Funun-ul-balogs” yaratilgan davrini aniqlang.
- A. 1436-1437, hijriy 840 yilda yaratilgan.
B. 1536-13438, hijriy 900 yilda yaratilgan.
V. 1434-1436, hijriy 830 yilda yaratilgan.
G. Yaratilgan davri aniq emas.
1. “Arabcha – chaqmoq, bir nazar tashlash” degan ma’nolarni bildiradi san’at qanday nomlanadi?
- A. Tashbeh
B. Talmeh
V. Istiora
G. Laff va nashr.
2. Ishqni pinhon tutarg‘a bo‘lma shaydo, ey ko‘ngil,
Mushk pinhon bo‘lsa, bo‘yi oshkoror tortadur. Baytda qo‘llanilgan tasviriy vositani aniqlang.
- A. Talmeh
B. Mubolag‘a
V. Tamsil
G. Tashbeh
3. "Al-mo‘jam"da bu san’at shunday izohlanadi: "... shubbaga solish. San’atning mohiyati shundan iboratki, bunda ikki ma’noli so‘z ishlatiladiki, yuzaki qaraganda so‘zning birinchi ma’nosisi qabul qilinadi, vaholanki, so‘zlovchining asosiy maqsadi so‘zning uzoq , ichki ma’nosidir". Qaysi san’at haqida ma’lumot berilayapti,
- A. Iyhom
B. Tanosib
V. Talmeh
G. Tazod
4. Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim
Ko‘nglimdin o‘zga mahrami asror topmadim
Ushbu baytda qanday badiiy san’at qo‘llangan?
A. Tashbh
B. Tajohuli orif
V. Tajnis
G. Tarse’
5. "Ilmi bade' dar zaboni forsiyda" keltirilgan ta’rifga ko‘ra bu san’at "... lug‘aviy jihatdan bir

so‘zdan boshqa bir so‘z olish, hosil qilish degan ma’noni bildiradi va shoir yoki yozuvchi nasr yo nazmda bir o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlarni ishlataladi". Qaysi tasviriy vosita haqida fikr yuritilayapti?

A. Irsolu masal

B. Ishtiqoq

V. Tazod

G. Takrir

6. "Navoiyning ilk lirikasi" asaring muallifini aniqlang.

A. A. Hayitmetov

B. A. Rustamov

V. R. Orzibekov

G. Y. Is’hoqov

7. Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,

Tomchilar tomchilar
sochimga. Baytda qo‘llangan
san’atni aniqlang

A. Iyhom

B. Tajnis

V. Ishtiqoq

G. Tarse’

8. "Ilmi bade' dar zaboni forsiy" asarida bu san’atga shunday ta’rif beriladi : "So‘zlovchi nazm yoki nasrda o‘z matlabining isboti uchun mashhur qissaga yo oyatga, yo hadisga, yo ma’lum masal va

shu kabilarga ishorat qiladi". Qaysi san’at haqida fikr yuritilayapti?

A. Talmeh

B. Tazod

V. Tashbeh

G. Tardu aks

9. Ogahiy qalamiga mansub quyidagi baytda qaysi she’riy san’at qo‘llangan:

G‘oyib o‘ldi aql ochg‘och orazin, ne tong, so‘rsam

Kim iki labi erdi ul mahalda hozirlar.

A. Tazod

V. Tajnis

B. Iyhom

G. Takrir

10 Nodira qalamiga mansub quyidagi baytda qanday she’riy san’atlar qo‘llangan:

Besutun tog‘ida ko‘p jon chekmagil, ey ko‘hkan,

Ko‘kragimdan jo‘yi shir o‘rnig‘a o‘tlug‘ yora och

A. Tashbeh, tarsi’.

V. Talmeh, iyhom.

B. Husni ta’lil, tashxis.

G. Iyhom, tajnis.

11. “Hadoyiq –us-sehr fi daqoyiq ash she’r” nomili risolaning muallifini aniqlang.

- | | | |
|--|--|---------------|
| A. A. Navoiy | tushunchalarni | bo‘rtirib, |
| B. Vahidi Tabriziy | kuchaytirib tasvirlash. | Bu san’at ... |
| V. Qabulmuhammad | A. Ishtiqoq | |
| G. Rashididdin Vatvot | B. Kitobat | |
| 12. Yoz fasli, yor vasli,
do‘stlarning suhbati,
SHe’r bahsi, ishq dardi,
bodaning kayfiyati. | V. Laff va nashr | |
| Ushbu baytda qanday badiiy
san’at qo‘llangan? | G. G‘uluv | |
| A. Laff-u nashr | 15. Charx jismim tufrog‘in ohim
yelidin sovurib, | |
| B. Tajohum arif | Hajr dashtida quyundek ayladi
davron meni. Baytda qanday
baddiy san’at qo‘llanganligini
aniqlang. | |
| V. tajnis | A. Mubolag‘a, tashbeh | |
| G. tazod | B. Tajnis, tarse’ | |
| 13. Zot edi tarix taqi heyu dol,
Muddati hijratdin o‘tib mohi
sol. Bu baytda qanday she’riy
san’at qo‘llangan? | V. Tashbeh, takrir | |
| A. tarix | G. Istiora, tarix | |
| B. tazod | 16. Yuzung mustafi o‘lg‘ay
necha, | |
| V. chiston | Kitobu kitobu kitobu kitob.
Baytdagi tasviriy vositani
aniqlang. | |
| G. Tadrij | A. Tansiq as-sifat | |
| 14. Yig‘ish va yoyish degan
ma’noni bildiruvchi bu san’at
she’r baytida avval bir necha
narsa yoki tushuncha nomini
ketma-ket keltirib, keyin ular
haqidagi hukmlarni kema-ket
bayon qilish nazarda tutadi.
Bundan maqsad esa nomlari
keltirilgan narsa yoki | B. Ta’dil | |
| | V. Takrir | |
| | G. Mukarrar | |
| | 17. Qaydakim jodir tikdi nifoq,
Qolmas ul tegrada osori vifoq.
Badiiy tasviriy vositani aniqlang. | |
| | A. Tashxis | |
| | B. Tashbeh | |
| | V. Mubolag‘a | |
| | G. Tajohul ul-orif | |

18. Oy yuzining xijlatidin gul qizordi, xoliyo,

Xanda birla o'tkarur, chun infioli bor durur. Ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llangan?

A. Laf va nashr

B. Tashbeh

V. Mubolag'a

G. Istiora

19. Ey quyosh, yuzungdin ayru yangi oydek bo'lmisham,

Kim qolurg'a o'zga yo'qtur bir zamon tobim mening. Ushbu baytda qanday badiyat unsiri ishtirok etgan?

A. Talmeh, tarix

B. Mubolag'a, istiora

V. Tashbeh, iyhom

G. Istiora, tashbeh

20. Shams Qays Roziy "Al-Mo'jam fi ma'oир ul-ash'or al-Ajam» asari necha qismdan iborat?

A. 5

B. 4

V. 3

G. 1

Bayt asosidagi bandli she'ri shaklini aniqlang

Ruboiy

Tuyuq

Masnaviy

Qit'a

Aruz atamalaridan bo'lib, vazn taqozosi bilan tarkibida cho'ziq unli bo'lgan ayrim yopiq hijolarni, unlini cho'zib talaffuz qilish hisobiga, o'ta cho'ziq hijo qilib o'qishni ifodalaydi. Fikr qaysi atama haqida boryapti?

Taznib

Vasl

Imola

Azl

O'zining maxsus vazniga ega bo'lgan janrni aniqlang:

G'azal

Qit'a

Tarkibband

Ruboiy

Bayt asosidagi bandli she'ri shaklini aniqlang

G'azal

Tarje'band

Qit'a

Tuyuq

Bayt asosidagi bandli she'ri shaklini aniqlang

Tarkibband

Tuyuq
Qasida
Fard

Tarkibband tuzilishiga ko‘ra....
Bandga asoslangan she’r shakllari
Bayt asosidagi bandli she’ri
Baytga asoslangan she’r shakli
To‘g‘ri javob yo‘q

“Chetlashish” ma’nosini
anglatuvchi aruz atamasi bo‘lib,
adabiy tilda cho‘ziq o‘qiluvchi
unlilar she’riy asarlarda vazn
talabiga ko‘ra qisqa unli tarzida
o‘qilishini ifodalaydi. Fikr qaysi
atama haqida boryapti?

Vasl
Taznib
Iste’lof
Azl

Bayt asosidagi bandli she’ri
shaklini aniqlang

Tuyuq
Qasida
Soqiynoma
Fard

O’zining maxsus vazniga ega
bo‘lgan janrni aniqlang:
Tuyuq

Soqiynoma
Qasida
Fard

Biror voqeani unga bevosita daxli
bo‘limgan boshqa bir hodisa
bilan izohlash san’atining nomini
aniqlang.

Tamsil
Tajohuli orif
Husni ta’lil
Talmeh

Bandga asoslangan she’r shaklini
aniqlang.

Kitobat
Ruboiy
Musamman
Ta’rix

Har bir misrasidan so‘ng yana
yarim misra orttiriluvchi she’r
shakli. Fikr qaysi janr haqida?

Qit’a
Mustahzod
Raviy
Zulqofiyatay

“Bir-biriga ulanuvchi”degan
ma’noni anglatadi. Ushbu so‘zni
aniqlang.
Mutadorik

Mutaqorib	Raviy
Hazaj	Radif
Ramal	Tajzil
Bandga asoslangan she'r shaklini aniqlang.	“O'zgartirish” ma'nosini ifodalovchi aruz atamasi bo'lib, ayrim so'zlarni vaznga muvofiqlashtirish uchun ularning tarkibidagi ayrim tovushlar, harflar o'rnini almashtirish usulini ifodalaydi. Qaysi atamaga ta'rif berilgan?
Musaddas	Tag'yir
G'azal	Taznib
Soqiynoma	Taqte'
Fard	Iste'llof
Musaddas	
O'zining maxsus vazniga ega bo'lgan janrni aniqlang:	
G'azal	
Ta'rix	
Mustahzod	
Fard	
Arabcha bo'lib, «bir biriga yaqinlashuvchi» degan ma'noni bildiradi. Ushbu so'zni aniqlang.	Shoirning she'rdagi avvalgi misra yoki baytda ifodalagan fikridan voz kechib, keyingi misra yoki baytda uni yanada kuchliroq ifodalashiga asoslangan badiiy san'at?
Mutaqorib	Tamsil
Mutadorik	Tazod
Mujtass	Tardi aks
Muroze'	Ruju'
She'riy misralarda qofiyadan so'ng aynan takrorlanib keluvchi so'z yoki so'zlar qo'shilmasi qanday nomlanadi?	Bandga asoslangan she'r shaklini aniqlang.
Hojib	G'azal
	Tuyuq

Murabba

Fard

“Yemirmak”ma’nosini ifodalovchi aruz atamasi bo‘lib, so‘zlarni vaznga moslash uchun ularning o‘zak-negizidagi biror bir harfni tushirish usulini ifodalaydi. Qaysi atamaga ta’rif berilgan?

Taznib

Taqte’

Taslim

Iste’lof

“Dum yasamoq” degan ma’noni ifodalovchi aruz atamisi bo‘lib, so‘zlarni u yoki bu vaznga solish uchun ularga biror harf ortirish usulini ifodalaydi. Qaysi atamaga ta’rif berilgan?

Taznib

Tag‘yir

Taqte’

Iste’lof

Mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko‘chim turi nima deyiladi?

Sifatlash

Mubolag‘a

Allegor

Muvashshah

Bayt asosidagi bandli she’ri shaklini aniqlang
Masnaviy
Ruboiy
Tuyuq
Qit’a

Aruz atamalaridan bo‘lib, vazn taqozosi bilan tarkibida cho‘ziq unli bo‘lgan ayrim yopiq hijolarni, unlini cho‘zib talaffuz qilish hisobiga, o‘ta cho‘ziq hijo qilib o‘qishni ifodalaydi. Fikr qaysi atama haqida boryapti?

Imola

Taznib

Vasl

Azl

O‘zining maxsus vazniga ega bo‘lgan janrni aniqlang:

G’azal

Ruboiy

Qit’a

Tarkibband

“Chetlashish” ma’nosini
anglatuvchi aruz atamasi bo‘lib,
adabiy tilda cho‘ziq o‘qiluvchi
unlilar she’riy asarlarda vazn
talabiga ko‘ra qisqa unli tarzida
o‘qilishini ifodalaydi. Fikr qaysi
atama haqida boryapti?

Azl
Vasl
Taznib
Iste’lof

Bayt asosidagi bandli she’ri
shaklini aniqlang
Tuyuq
Qasida
Fard
Soqiynoma

O’zining maxsus vazniga ega
bo‘lgan janrni aniqlang:
Soqiynoma
Tuyuq
Qasida
Fard

Biror voqeani unga bevosita daxli
bo‘limgan boshqa bir hodisa
bilan izohlash san’atining nomini
aniqlang.
Tamsil

Husni ta’lil
Tajohuli orif
Talmeh

Bandga asoslangan she’r shaklini
aniqlang.
Ta’rix
Kitobat
Musamman
Ruboiy

Har bir misrasidan so‘ng yana
yarim misra orttiriluvchi she’r
shakli. Fikr qaysi janr haqida?
Mustahzod
Qit’a
Raviy
Zulqofiyatay

“Bir-biriga ulanuvchi”degan
ma’noni anglatadi. Ushbu so‘zni
aniqlang.
Mutaqorib
Hazaj
Mutadorik
Ramal

Bandga asoslangan she’r shaklini
aniqlang.
G’azal
Soqiynoma

fard	ifodalaydi. Qaysi atamaga ta’rif berilgan?
Musaddas	Taznib
O’zining maxsus vazniga ega bo‘lgan janrni aniqlang:	Taqte’
G’azal	Iste’lof
Ta’rix	Tag‘yir
Mustahzod	Shoirning she’rdagi avvalgi misra yoki baytda ifodalagan fikridan voz kechib, keyingi misra yoki baytda uni yanada kuchliroq ifodalashiga asoslangan badiiy san’at?
Fard	Tamsil
Arabcha bo‘lib, «bir biriga yaqinlashuvchi» degan ma’noni bildiradi. Ushbu so‘zni aniqlang.	Tazod
Mutadorik	Ruju’
Mujtass	Tardi aks
Mutaqorib	Bandga asoslangan she’r shaklini aniqlang.
Muroze’	G’azal
She’riy misralarda qofiyadan so‘ng aynan takrorlanib keluvchi so‘z yoki so‘zlar qo‘shilmasi qanday nomlanadi?	Murabba
Hojib	Tuyuq
Raviy	Fard
Radif	“Yemirmak”ma’nosini ifodalovchi aruz atamasi bo‘lib, so‘zlarni vaznga moslash uchun ularning o‘zak-negizidagi biror bir harfni tushirish usulini ifodalaydi. Qaysi atamaga ta’rif berilgan?
Tajzil	
“O’zgartirish” ma’nosini ifodalovchi aruz atamasi bo‘lib, ayrim so‘zlarni vaznga muvofiqlashtirish uchun ularning tarkibidagi ayrim tovushlar, harflar o‘rnini almashtirish usulini	

Taznib	Sifatlash
Taqte'	Aruz tizimi qanday she'r tizimiga mansub?
Taslim	Sillabik
Iste'lof	Metrik
"Dum yasamoq" degan ma'noni ifodalovchi aruz atamisi bo'lib, so'zlarni u yoki bu vaznga solish uchun ularga biror harf ortirish usulini ifodalaydi. Qaysi atamaga ta'rif berilgan?	Gekzametrik
Tag'yir	Barmoq
Taqte'	Qanday she'r tizimi qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanishga asoslanadi?
Taznib	Barmoq
Iste'lof	Erkin
Mavhum tushuncha yoki hodisani konkret narsa orqali ifodalashga asoslangan ko'chim turi nima deyiladi?	Aruz
Allegor	Sonet
Sifatlash	O'zbek aruzshunosligida nima eng kichik ritmik birlik deb ko'rsatiladi?
Mubolag'a	Rukn
Muvashshah	Bahr
She'riy nutqda bir xil undosh tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ko'rinishi nima deyiladi?	Hijo
Allegoriya	Harf
Analogiya	Sharq she'riyatida ikki misrali band turi nima deyiladi?
Alliteratsiya	Aruz
	Misra

Bayt	Aruz she'r tizimi asosini tashkil etuvchi sakkizta aslning sifat va miqdor jihatidan turli o'zgarishlarga uchrashi nima deyiladi?
Hijo	Juzv
Aruzda yozilgan she'rda ruknlarning takrorlanish tartibi, muayyan she'rdagi o'lchov asosi nima deyiladi?	Zihof
Misra	Zulqofiyatayn
Qofiya	Taqtı'
Bahr	Aruz tizimidagi she'rlarda bayt tarkibida uch yoki undan ortiq qofiyadosh so'zlar juftligini keltirish nima deyiladi?
Rukn	Zulqofiyatayn
Qaysi so'z "uy" degan ma'noni bildiradi?	Zihof
Bayt	Juzv
Bahr	Zulqavofi'
Rukn	Aruz tizimidagi she'rlarda misralardagi barcha so'zlarning o'zaro qofiyadosh bo'lishi nima deyiladi?
Misra	Zulqofiyatayn
Aruz tizimidagi she'rlarda ayrim yopiq hijolar oxiridagi undoshni vazn talabi bilan keyingi unli bilan boshlangan so'zning birinchi hijosiga ko'shib o'qish hodisasi nima deyiladi?	Zihof
Harf	Tarse'
Foilotun	Zarb
Vasl	She'rda bir so'zni bir joyning o'zida ikki ma'noda ishlatish nima deyiladi?
Zihof	

Izometriya	Mushkul ahvole tushubdur:"Yer qatiqu ko'k yiroq"
Iyjoz	baytida qanday badiiy san'at qo'llangan?
Iyhom	Intoq
Izdivoj	Irsol ul masal
XV asrda yozilgan "Funun ul balog'a" risolasi muallifi kim?	Raddul qofiya
Ibn Mo'taz	Tasbe'
Nasr binni Hasan	Alisher Navoiyning she'ridagi:
Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy	Fig'onkim, ko'nglim olg'on dilbarim dildorlik bilmas,
Qudama ibn Ja'far	Bilur oshiqni g'amgin qilmoqu g'amxorlik bilmas
Badiiy asarda jonzotlar va jonsiz narsalarni odamlar kabi so'zlatish san'ati nima deyiladi?	baytida qanday badiiy san'at qo'llangan?
Irsol ul masal	Zulqavofi'
Lirik chekinish	Ishtiqoq
Intoq	Badiha
Nazira	Iltifot
She'rda muayyan niyatini ifodalash maqsadida hikmatli so'z, maqol yoki matal keltirish san'ati nima deyiladi?	Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi:
Intoq	Yana qadahini toshqa urding,
Perifraza	Jola guharini boshqa urding
Irsol ul masal	baytida qanday badiiy san'at mavjud?
Iyhom	Zulqavofi'
Lutfiyning she'ridagi:	Iqtibos
Yerga kirsam koshki, chun yetmas ul oyga ilik,	Zulqofiyatayn
	Kitobat

Aruz tizimida har ikki misraning,
ya’ni sadr bilan aruz, ibtido bilan
ajuz (zarb)ning o‘rtasi nima deb
yuritiladi?

Imola

Bahr

Hashv

Rukn

Aruz she’r tizimida qo‘sh undosh
bilan tugallanadigan bo‘g‘in
qanday
bo‘g‘in sanaladi?

Cho‘ziq

Qisqa

O’ta cho‘ziq

Qisqa – cho‘ziq

Aruz tizimida sabab, vatad va
fosilalar birikuvidan she’r
misralarini hosil qiluvchi ...
maydonga keladi. To‘g‘ri javobni
toping.

Bahrlar

Hijolar

Ruknlar

Taqte’lar

Alisher Navoiyning:

Kecha kelgumdir debon ul sarvi
gulro‘ kelmadi,

Ko‘zlarimga kecha tong otuncha
uyqu kelmadi
matla’li g‘azali bahri ko‘rsatilgan
javobni belgilang.

Mutadoriki musammani maqtu’
Mutaqoribi musammani mahzuf
Ramali musammani mahzuf
Hazaji musammani musabbag‘

«Xalil ibn Ahmad rahmatullouki,
bu fanning voizi (aytuvchi)dur,
chun arab ermish va aning
yaqinida bir vodiy ermishki, ani
«Aruz» derlar ermish va ul
vodiyda a’rob uylarini tikib, jilva
berib, bahoga kiyururlar ermish.
Va uyni arab «bayt»der. Chun
baytlarni bu fan bila mezon qilib,
mavzunini nomavzunidin
ayururlar, guyoki qiymat va
bahosi ma’lum bo‘lur, bu
munosabat bila «aruz» debdurlar». Keltirilgan iqtibosninmanbasini
to‘g‘ir belgilang

“She’r kitobi”

A.Navoiy. “Mezon ul avzon”

Beruniy “Hindiston”

Bobur “Muxtasar”

“Maktabda aruz vaznini
o‘rganish”nomli kitobning
muallifni aniqlang.

Rustamov

U To‘ychiev

A.Hojiahmedov

M. Olimov

Aruz tizimidagi she’rlarda ayrim yopiq hijolar oxiridagi undoshni vazn talabi bilan keyingi unli bilan boshlangan so‘zning birinchi hijosiga qo‘shib o‘qish hodisasi nima deyiladi?

Foilotun

Vasl

Harf

Zihof

Lab tashnalarg‘a ayla nazora

Qaddi chu shamshod, qoshi hilolim. Baytda qaysi san’at qo‘llanganligini aniqlang.

Talmeh

Tashxis

Tashbeh

Istiota

Atoulloh Husayniy “Badoye’-us-sanoye” asarida nechta badiiy san’at haqida ma’lumot beradi?

500 ta

143 ta

1000 dan ortiq

100 ta

Lola kabi yoqt qadah, yo‘q tubiga durd,

Bir shisha may andoqli aqiqi yaman erdi. Baytda tashbehning qaysi ko‘rinishi qo‘llangan?

To‘liq bo‘lmagan tashbeh

Tashbehi noqis

To‘liq tashbeh

To‘g‘ri javob yo‘q

“Nutq go‘zalliklari uch qism bila cheklanur, ul jihatdinkim, har go‘zallik yo faqat lafz go‘zalligidur, yo faqat ma’no go‘zalligidur, yoxud lafzu ma’no yig‘indisining go‘zaligidur”. Ushbu iqtibos qaysi manbadan olingan?

Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy, “Funun-ul-balogs‘a”.

Vahidi Tabriziy, "Jam‘i muxtasar"

Atoulloh Husayniy, "Badoyi' us-sanoyi"

Alisher Navoiy, “Mezon ul avzon”

Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,

Gul uzra tomib kam-kam yog‘di
abri naysonlar shoir baytda qaysi
san’atga murojaat qilgan?

Tarse’

Tajnisli qofiya
Musajja’
Zulqofiyatayn

Yo xaridor o’lsam erdim junun
bozorida,

Solmag‘aydi boshima yuz
rangli savdo kokuling baytdan
o‘rin olgan she’riy san’atlarni
aniqlang.

Tashbeh, tajnis

Tanosib, istiora

Talmeh, tazod

Husni ta’lil, irsolu masal

Qurtdek bo‘ri bila to‘ldi yobon,
Dema qo‘y, balki to“ma bo‘ldi
sho‘bon. Baytda qanday she’riy
san’at qo‘llangan.

Tazod, talmeh

Tajnis, tashxis

Badiiy san’at qo‘llanmagan.

Tashbeh, zulqofiyatayn

Taqti’da qaysi vazn berilgan?

fo‘ilotun / fo‘ilotun / fo‘ilotun,
fo‘ilotun / fo‘ilotun / fo‘ilotun.

Ramali musaddasi mahzuf.

Hazaji musaddasi solim
Ramali musaddasi solim
Hazaji musaddasi mahzuf.

Birinchi misradagi birinchi
rukunning nomi nima deb ataladi?
Ajuz.

Ibtido.

Sadr.

Aruz.

Ikkinci misradagi birinchi
rukunning nomi nima deb ataladi?
Ibtido.

Ajuz.

Aruz.

Sadr.

Ikkinci misradagi oxirgi
rukunning nomi nima deb ataladi?
Aruz.

Zarb yoki ajuz.

Ibtido.

Sadr.

Kim “Qur’oni karim” da, “Hadisi
sharif”da aruz ohanglari borligi
uchun aruz vazni haqidagi fanni
sharif fan, deb hisoblaydi.

Atoulloh Husayniy.

Bobur.

Alisher Navoiy.

Fitrat.

Istehlofga uchragan hijo.

O`ta cho`ziq hijo.

Qisqa hijo.

Cho`ziq hijo.

Asosan, cho`ziq hijo.

Ketma-ket undosh bilan tugagan
bo`g`in qanday hijo sanalishi
mumkin?

O`ta cho`ziq hijo.

Cho`ziq hijo.

Cho`ziq yoki o`ta cho`ziq hijo.

Qisqa hijo.

Qaysi bahrda bitilgan?

Ey nasimi, subh, ahvolim
diloromimg`a ayt,
Zulfi sun-bul, yu-zi gul, sar-vi gu-
lan-do-mim-g`a ayt.

Hazaj.

Ramal

Rajaz.

Xafif.

Nuqtalar o`rniga qaysi javob
to`g`ri keladi? ...aruzda juzv
(turkiy aruzda hijo)larning
muayyan tartibda birikishidan
hosil bo`luvchi ritmik bo`lak, juzv
bilan bahr orasidagi ritmik birlik.

Rukn

Juzv.

Sabab.

Fosila.

Mafoilatun rukni taqte`sini
belgilang.

V V -V V

V - V V -

--- V

V V -V -

Kim asl bahrlarni 19 ta deb
hisoblaydi?

Qays Roziy.

Zahiriddin Bobur.

Alisher Navoiy

Abdurauf Fitrat.

Ikki rukn takroridan asl bahrlar
coni nechta?

10 ta.

7 ta.

8 ta

19 ta.

"O`zbek aruzi lug`ati" lug`ati
muallifi kim?

Rustamov.

U.To`ychiyev.

A.Hojjahmedov.

S. Mirzayev.

Maf'uvlotu/ mustaf'ilun
ruknlarining takroridan qaysi ikki
ruknl bahr hosil bo'ladi?

Xafif.

Mujtass

Muqtazab.

Muzori'

Fo`ilotun / mustaf'ilun
ruknlarining takroridan qaysi ikki
ruknl bahr hosil bo'ladi?

Muqtazab

Xafif.

Mujtass

Muzori'

Mustaf'ilun / fo`ilotun
ruknlarining takroridan qaysi ikki
ruknl bahr hosil bo'ladi?

Muqtazab.

Mujtass

Xafif.

Muzori'

Mafo`iyln / fo`ilotun
ruknlarining takroridan qaysi ikki
ruknl bahr hosil bo'ladi?

Muqtazab.

Mujtass

Muzori'

Xafif.

Ramal bahrida yozilishi shart
bo`lgan janr.

Qit'a.

Fard.

Tuyuq.

Ruboiy.

Vaznini aniqlang.

Agar bir qatla ko`rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo`q erdi ul varaqni.
Ramali musaddasi solim.

Hazaji musaddasi solim.

Ramali murabba'i mahzuf.

Hazaji musaddasi mahzuf.

“Xamsa” dostonlaridan “Farhod
va Shirin”ning vazni?

Ramali musaddasi solim.

Ramali murabba'i mahzuf.

Hazaji musaddasi solim.

Hazaji musaddasi mahzuf.

“Aruzda bir bahr (vazn)ning
juzvlarida bo`ladigan o`zgarishlar
(orttirish va kamaytirish yo`li
bilan)”. Qaysi istilohning ta'rifi?

Bahr.

Rukn.

Zihof .

Bayt.

Sari' bahri qanday hosil bo'ladi?	Fauvlunning.
To`g`ri javobni belgilang.	Fo'ilotunning.
Fo`ilotun / fo`ilotun / mustaf'ilun	Fo'ilunning.
Mustaf'ilun / mustaf'ilun /	Mafoiylunning.
maf'uvlotu	
Fo`ilotun / mafo`iylun /	"Rajaz" so`zining lug`aviy
mafo`iylun	ma'nosi.
Mafo`iylun / mafo`iylun /	"Iztirob".
fo`ilotun	"Tez".
	"Tez", "iztirob.
Qaysi asar sari' bahrida yozilishi shart?	"Dengiz".
"Layli va Majnun".	Rajaz bahrini o`zbek adabiyotida ilk bor kim qo'llagan?
"Saddi Iskandariy".	Yusuf Xos Hojib.
"Hayrat ul-abror".	Alisher Navoiy.
"Farhod va Shirin".	Nosiriddin Rabg'uziy.
Bir ruknli asl bahrlar coni nechta?	Boborahim Mashrab.
8 ta.	
10 ta.	Rajaz bahri qaysi asl ruknning takroridan hosil bo'ladi?
19 ta.	Fo'ilun.
7 ta.	Fa'uvlun.
Paradigmasiga qarab noasl rukn nomini aniqlang: – V V –	Mustaf'ilun.
Fo`ilotun.	Mafo`iylun.
Muf'tailun.	Hazrat Navoiyning qaysi dostoni sari'yi musaddasi matviyi makshuf vaznida yaratilgan?
Mustaf'ilun.	"Farhod va Shirin".
Maf'uvlotu.	"Layli va Majnun"
Axrab, axram qaysi asl ruknning zihofoti?	

"Saddi Iskandariy".

"Hayrat ul-abror".

Ushbu misralar taqt'i sini
belgilang.

Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,
Ul biri xoliqqa erur jilvagoh.

– V V – / – V V – / – V – / – V –
– V V – / – V V – / – V – / – V –

V --- / V --- / V --- / V ---

V --- / V --- / V --- / V ---

V --- / V --- / V ---

V --- / V --- / V ---

– V V – / – V V – / – V –

Qaysi doston hazaji musaddasi
axrabi maqbuzi mahzufda
yozilgan?

"Farhod va Shirin".

"Hayrat ul-abror".

"Layli va Majnun".

"Saddi Iskandariy".

"Saddi Iskandariy" dostonining
vazni?

Mutaqoribi musaddasi solim.

Mutaqoribi musammani mahzuf

Mutaqoribi musammani aslam.

Mutaqoribi murabba'yi maqsur.

"Xamsa"ning qaysi dostoni xafif
bahrida yaratilgan?

"Farhod va Shirin".

"Saddi Iskandariy".

"Sabba'i sayyor".

"Hayrat ul-abror".

Ruboiy hazajnung nechta vaznida
yoziladi?

12 ta.

32 ta

26 ta.

24 ta.

Axram va axrabning tarmog'i
nechtadan?

12 tadan.

13 tadan.

Axrabning.

14 tadan.

15 tadan.

O'ta cho'ziq hijoning taqte'si
misra oxiridan boshqa o'rirlarda
qanday?

– V

~

V – va – V

V –

Yakka o`zi bahr hosil qilolmaydigan asl rukn nomini aniqlang.

Mafo`iy lun.

Mustaf`ilun.

Maf`uvlotu .

Fo`ilotun.

Bir ruknning ikki marta, bir ruknning bir marta takroridan hosil bo`ladigan uch ruknli bahrlar nechta?

6 ta.

8 ta.

4 ta.

10 ta.

Qaysi zihofning taqtisi? — V

Axrabning.

Ashtarning.

Axram va Axrabning.

Axtamning.

Axram va axrabning tarmog`i nechtadan?

13 tadan.

14 tadan.

15 tadan.

12 tadan.

Shohlar haqidagi dostonlar qaysi bahrda yaratiladi?

Mutadorik.

Mutaqorib.

Hazaj.

Sare'.

Quyidagi qaysi asarlar mutaqorib bahrida yozilgan?

A. Barchasi to`g`ri.

B. "Qutadg`u bilig".

C. "Hibat ul-haqoyiq".

D. "Bo`ston".

"Buzruk", "Soqiynomayi mo`g`ilchayi Buzruk", "Rost", "Dugoh", "Segoh" maqomlari uchun mutaqorib bahrining qaysi vazni mos keladi?

A. Mutaqoribi musaddasi solim.

B. Mutaqoribi musammani mahzuf.

C. Mutaqoribi musammani aslam.

D. Mutaqoribi murabba`yi maqsur.

"Mezon ul-avzon"da fa`uvlun ruknining nechta zihofi berilgan?

A. 12 ta.

B. 8 ta.

C. 6 ta.

D. 4 ta.

Mutaqorib bahri qaysi ruknning takroridan hosil bo`ladi?

- A. Mafo`iylun.
- B. Fo`ilun.
- C. Fa`uvlun.
- D. Mustaf`ilun.

Hazrat Navoiyning qaysi dostoni sari`yi musaddasi matviyi makshuf vaznida yaratilgan?

- A. "Hayrat ul-abrор".
- B. "Farhod va Shirin".
- C. "Layli va Majnun".
- D. "Saddi Iskandariy".

"Xamsa"ning 2-3-dostoni qaysi bahrda yozilishi shart bo`lgan?

- A. Xafif.
- B. Sare`.
- C. Hazaj.
- D. Mutaqorib.

Ushbu misralar Navoiyning qaysi asaridan olingan?

Ka`baki olamning o`lub qiblesi,
Qadri yo`q andoqliki ko`ngul ka`basi,

- A. "Layli va Majnun".
- B. "Farhod va Shirin".
- C. "Hayrat ul-abrор".
- D. "Saddi Iskandariy".

Qaysi doston hazaji musaddasi mahzufda yozilgan?

- A. Layli va Majnun".
- B. "Hayrat ul-abrор".
- C. ""Farhod va Shirin".
- D. "Saddi Iskandariy".

Qaysi doston hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzufda yozilgan?

- A. "Layli va Majnun".
- B. "Farhod va Shirin".
- C. "Hayrat ul-abrор".
- D. "Saddi Iskandariy".

Qaysi rukn asl rukn?

- A. Mafoiylun.
- B. Foilon.
- C. Mustaf`ilon.
- D. Faulun.

Axrab qaysi asl ruknning zihofi?

- A. Mafoiylun.
- B. Mustaf`ilun.
- C. Foilotun.
- D. Muf`tailun.

Mutadorik bahri qaysi asl ruknning takroridan hosil bo`ladi?

- A. Fo`ilun.
- B. Fo`ilun.
- C. Mafo`iylun.

D. Mustafilun.

Shohlar haqidagi dostonlar qaysi bahrda yaratiladi?

- A. Mutaqorib.
- B. Mutadorik.
- C. Hazaj.
- D. Sare'.

Quyidagi qaysi asarlar mutaqorib bahrida yozilgan?

- A. Barchasi to`g`ri.
- B. "Qutadg`u bilig".
- C. "Hibat ul-haqoyiq".
- D. "Bo`ston".

"Saddi Iskandariy" dostonining vazni?

- A. Mutaqoribi musammani mahzuf.
- B. Mutaqoribi musaddasi solim.
- C. Mutaqoribi musammani aslam.
- D. Mutaqoribi murabba'yi maqsur.

"Mezon ul-avzon"da fa'uvlun ruknining nechta zihoffi berilgan?

- A. 6 ta.
- B. 8 ta.
- C. 12 ta.
- D. 4 ta.

"Xamsa"ning qaysi dostoni xafif bahrida yaratilgan?

- A. "Sabba'i sayyor".
- B. "Farhod va Shirin".
- C. "Saddi Iskandariy".
- D. "Hayrat ul-abror".

"Sabba'i sayyor" dostonining vazni qaysi bahr asosida yuzaga kelgan?

- A. Xafif.
- B. Mutaqorib.
- C. Hazaj.
- D. Sari'.

"Xamsa" tarkibidagi nechanchi doston xafif bahrida yozilishi shart?

- A. 4-doston.
- B. 5-doston.
- C. 3-doston.
- D. 1-doston.

"Shohnoma" dostonining vazni qaysi bahr asosida yuzaga kelgan?

- A. Mutaqorib.
- B. Xafif.
- C. Hazaj.
- D. Sari'.

Qaysi doston vaznining taqtisi?

Fauvlun/ fauvlun/ fauvlun/ faal,
Fauvlun/ fauvlun/ fauvlun/ faal.

- A. "Saddi Iskandariy".

- B. “Sabba’i sayyor”.
- C. “Farhod va Shirin”.
- D. “Hayrat ul-abror”.

Qaysi doston vaznining taqtisi?
 Fo`ilotun/ mafo`ilun / fo`ilun,
 Fo`ilotun/ mafo`ilun / fo`ilun
 A. “Sabba’i sayyor”.
 B. “Farhod va Shirin”.
 C. “Saddi Iskandariy”.
 D. “Hayrat ul-abror”.

- Nomi o`zakdosh atamalar.
- A. Taxmis va muxammas va ruboiy va murabba'..
 - B. Ruboiy va tuyuq.
 - C. Taxmis va muxammas.
 - D. Ruboiy va murabba'.

Ruboiy vaznini aniqlash jarayonida ifodali o`qishdan foydalanish muhimligini qaysi olim ta'kidlagan?

- A. A.Hojiahmedov.
- B. A. Rustamov.
- C. Ibrohim Haqqul.
- D. U.To`ychiyev.

Ruboiy hazajnung qaysi shajaralarida yozilishi shart?

- A. Axram va axrab.

- B. Axrab.
- C. Maqbuz.
- D. Axram.

Ruboiy hazajnung nechta vaznida yoziladi?

- A. 24 ta.
- B. 12 ta.
- C. 32 ta
- D. 26 ta.

Qaysi janr aruzning qoliplariga sig`may qolgan janr deb hisoblanadi? Bu fikrning muallifi.

- A. Ruboiy. Fitrat.
- B. Ruboiy. Navoiy.
- C. Tuyuq. Bobur.
- D. Qit'a. Navoiy.

“E. Ochilov ana shularni hisobga olib, ruboilyarni o`ziga xos aruziy vaznini saqlash bilan birga, imkonи bor qadar hozirgi o`zbek adabiy tilida ijod qilishga intilgan. Ko`p o`rinlarda bunga erishgan”. Tarjima haqidagi bu fikrni kim aytgan?

- A. N.Komilov.
- B. Jamol Kamol.
- C. Samandar Vohidov.
- D. Ergash Ochilov.

Satrning vazni taqtisi belgilang.
G'urbatda g'arib shodmon
bo`lmas emish.

- A. - - V / V - V - / V - - V /
V -
B. - - V / V - V - / V - -
V / V
C. - - V / V - V - / V - - V
D. - - V / V - V - / V - -

Axram va axrabning tarmog'i
nechtadan?

- A. 12 tadan.
B. 13 tadan.
C. 14 tadan.
D. 15 tadan.

Nihoniyning "Bango", "Ango",
"Sango", "Judo", "Hayot" kabi
g'azallari vazni.

- A. Ramali musammani mahzuf.
B. Hazaji musammani mahzuf.
C. Ramali musaddasi maqsur.
D. Rajazi musammani mahzuf.

Cho'lponning "Tabiatga" she'ri
vazni?

- A. Ramali musammani mahzuf.
B. Mutaqoribi musammani
maqsur.
C. Hazaji musammani mahzuf.
D. Rajazi musaddasi maqsur.

XX asrda devon tartib bergan
shoirlar.

- A. Charxiy, Habibiy. Nihoniy.
B. Charxiy. Habibiy.
C. Habibiy. Nihoniy.
D. Nihoniy.

Nabijon Xo'jayevning taxallusi.

- A. Habibiy.
B. Chustiy.
C. Nihoniy.
D. Samandar Vohidov.

Tarjimon Ergash Ochilov
ruboilarni tarjima qilish
jarayonida vaznni saqlay
olganligini ta'kidlagan olim.

- A. Najmiddin Komilov.
B. Ibrohim Haqqul.
C. Vahobjon Rahmonov.
D. Yoqubjon Is'hoqov.

XX asrning 2-yarmida
zamonaviy aruz taraqqiyotini
ta'minlagan ijodkorlar. 1. Erkin
Vohidov. 2. Jamol Kamol. 3.
Samandar Vohidov. 4. Sirojiddin
Sayyid.

- A. 1,2,3,4.
B. 3.
C. 1 va 4.
D. 2 va 3.

Mashriqda va Mag`ribda mashhur dostonlarni tarjima qilgan yetuk mutarjim.

- A. Jamol Kamol.
- B. Samandar Vohidov.
- C. Erkin Vohidov.
- D. Ergash Ochilov.

Hazrat Navoiyning ellik g`azaliga muxammas bog`lagan mohir shoir.

- A. Samandar Vohidov.
- B. Erkin Vohidov.
- C. Jamol Kamol.
- D. Ergash Ochilov.

Vaznini aniqlang.

Men uni ko`kraklarimda asrasam,
Ul meni kipriklarida asramish.
Bellari bordir qamishning beliday,
Nola qilgum men misoli nayqamish.

- A. Fo`ilotun / fo`ilotun / fo`ilun,
Fo`ilotun / fo`ilotun / fo`ilun.
- B. Fo`ilotun / fo`ilotun / fauvlun,
Fo`ilotun / fo`ilotun / fauvlun.
- C. Fo`ilotun / fo`ilotun / fo`lun,
Fo`ilotun / fo`ilotun / fo`lun.

- D. Fo`ilotun / fo`ilotun / fo`ilotun,
Fo`ilotun / fo`ilotun / fo`ilotun.

Misralardagi bo`g`inlar soni tengligiga asoslangan vazn.

- A. Barmoq vazni.
- B. Erkin vazn.
- C. Aruz vazni.
- D. Verlibr.

Taqti'da qaysi vazn berilgan?

- fo`ilotun / fo`ilotun / fo`ilun,
fo`ilotun / fo`ilotun / fo`ilun.
- A. Ramali musaddasi mahzuf.
- B. Ramali musaddasi solim.
- C. Hazaji musaddasi solim
- D. Hazaji musaddasi mahzuf.

1-misradagi birinchi rukn bilan oxirgi ruknning orasidagi ruknning nomi nima deb ataladi?

- A. Hashv.
- B. Ajuz.
- C. Aruz.
- D. Sadr.

Qaysi vazndagi she'rni ruknga ajratish mumkin:

- A. Aruz vaznidagi she'rni.
- B. Barmoq vaznidagi she'rni.
- C. Sarbast vaznidagi she'rni.

D. Sillabik vaznidagi she'rni.

O`ta cho`ziq hijoning taqte'si misra oxiridan boshqa o`rinlarda qanday?

- A. V – va – V
- B. – V
- C. ~
- D. V –

Paradigmasiga qarab asl rukn nomini aniqlang: V – – –

- A. Mafo'iylun .
- B. Fo'ilotun.
- C. Mustaf'ilun.
- D. Maf'uvlotu.

Paradigmasiga qarab asl rukn nomini aniqlang: – – V –

A. Mustaf'ilun.

B. Mafo'iylun.

C. Fo'ilotun.

D. Maf'uvlotu.

Paradigmasiga qarab asl rukn nomini aniqlang: – – – V

- A. Maf'uvlotu.
- B. Mafo'iylun.
- C. Mustaf'ilun.
- D. Fo'ilotun.

Yakka o`zi bahr hosil qilolmaydigan asl rukn nomini aniqlang.

- A. Maf'uvlotu.
- B. Mafo'iylun.
- C. Mustaf'ilun.
- D. Fo'ilotun.

LUG`AT

AJUZ (ARUZ) (ar. عجوز – ojiz, kuchsiz) – qarang: taqti'

AMIQ (ar. عميق – chuqur) – aruz bahrlaridan biri, foilun (– v –) va foilotun (– v – –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo‘ladi. A. bahri ilk bor Boburning “Muxtasar” asarida tilga olingan va uning arab she’riyatiga xos emasligi, asosan, fors she’riyatida mavjudligi ta’kidlangan. “Muxtasar”da amiqi musammani solim (– v – / – v – – / – v – / – v – –) vazniga:

Kel beri, ey parikim, hajrdin xastadurman,

La’linga tashnadurman, zulfunga bastadurman, – bayti misol sifatida keltirilgan.

ARIZ (ar. enli, keng) – aruz bahrlaridan biri. Mafoiylun (V – – –) va – عريض fauvlun (V – –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo‘ladi. Boburgacha yaratilgan ilmi aruzga oid asarlarda mazkur bahr tilga olinmagan. “Muxtasar”da bu bahrni ajam xalqlari yaratganligi ta’kidlangan va uning to‘rt vazniga bir baytdan misol keltirilgan.

Xususan, Boburning :

Labing marjon, tishing dur, xating rayhon, hading gul,

Soching anbar, yuzung hur, menging mo‘lton, yuzung mul.

bayti arizi musammani solim (V – – – \ V – – \ V – – – \ V – –) vaznida yozilgan.

ARUZ (ar. عروض – chodirni ushlab turish uchun o‘rtaga qo‘yiladigan yog‘och) – 1) qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslangan metrik she’r tizimi. Manbalarda aruzga VIII asrda yashagan arab olimi Halil ibn Ahmad tomonidan asos solingani, bu atama olim yashagan vodiyligi nomi bilan bog‘liq ekanligi qayd etiladi. A. ming yillar davomida Sharq adabiyotidagi etakchi she’r tizimi bo‘lib keldi, muttasil boyish va rivojlanishda bo‘ldi, mukammal sistemaga aylandi, uning qonuniyatlari bilan shug‘ullanuvchi soha – ilmi aruz (q.) shakllandi. Dastlab arab adabiyotida maydonga kelgan A. she’r tizimi IX asrdayoq forsiy adabiyotda ham qo‘llanila boshlagan. Turkiy xalqlar adabiyotida, jumladan, o‘zbek adabiyotida ham A. qadimdan qo‘llanib kelinadi, degan fikr mavjud: "Bizning O‘rta Osiyo turklari tomonidan qachon qabul etilgani aniq emas. Biroq hijriy 462 da Qashqarda yozilgan

mashhur "Qutadg'u bilik" kitobining shu aruz vaznida yozilg'ani e'tibor etilsa, juda eskidan qabul etilgani ma'lum bo'ladur" (Fitrat). XI asrdan to XIX asr oxiri – XX asr boshlariga qadar A. o'zbek mumtoz adabiyotidagi asosiy she'riy tizim bo'lib keldi. Albatta, forsiy va turkiy adabiyotlar A.ni mexanik tarzda o'zlashtirgan emas, aksincha, u fors va turkiy til xususiyatlariga imkon qadar moslashtirilgan. Tabiiyki, bu hol A.ni boyitgan, arab A., fors A., turkiy A. kabi tushunchalarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Mumtoz aruzshunoslikda A.ning ritmik birliklari sifatida harf (q.), juzv (q.), rukn (q.) va bahr (q.) ko'rsatilib, bu ko'proq arab A.iga xosdir. O'zbek mumtoz adabiyotshunoslida, jumladan, Navoiyning "Mezon ul-avzon", Boburning "Muxtasar" asarlarida turkiy A. ham shu an'ana yo'lida o'rganilgan. XX asrdan, xususan, Fitratdan boshlab o'zbek aruzshunoslida eng kichik ritmik bo'lak sifatida hijo (q.) ko'rsatila boshlandiki, bu A. ilmini o'zbek tili tabiatiga moslash zaruratining hosilasidir. Natijada o'zbek aruzshunoslida harf va juzv atamalari passivlashdi, ya'ni turkiy (o'zbek) A.ning ritmik birliklari sifatida hijo, rukn va bahr e'tirof etildi. Mazkur birliklarning kichigi kattasini hosil qiladi (harflarning ma'lum tartibda birikishidan juzv, juzvlarning ma'lum tartibda takrorlashidan rukn (asl), ruknlarning ma'lum tartibda takrorlanishidan esa bahr), shuningdek, ruknlar sifat yoki miqdor jihatidan zihof(q.)ga uchrashidan qator shahobchalar paydo bo'ladi, bu esa A.ning ritmik imkoniyatlarini kengaytiradi, unga ritmik-intonatsion rang-baranglik beradi. Natijada A. yuzlab vaznlarni o'z ichiga olgan mukammal tizimga aylanadiki, u qaysidir jihatlari bilan Mendeleev jadvali kabi. YA'ni, nazariy jihatdan barcha vaznlar taqte'sini chizib ko'rsatish, shunga tushadigan she'r yozish mumkin; tizim tarkibidagi ayrim vaznlar faol bo'lsa, boshqalari juda kam qo'llanadi; ayrim vaznlar ko'proq arab, boshqalari fors, tag'in birlari esa turkiy she'riyatda qo'llanadi va h. XX asrning 20-yillariga kelib A. she'riyatimizdagi etakchilik maqomini yo'qotdi, o'z o'rnini tilimiz tabiatiga muvofiqroq bo'lgan barmoqqa bo'shatib berdi. Shunga qaramay, XX asrda yashab ijod qilgan Hamid Olimjon, Habibiy, Sobir Abdulla, CHustiy, CCharxiy kabi, shuningdek,

ushbu an'anani muvaffaqiyatli davom ettirgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Oydin Hojieva, Mirzo Kenjabek kabi zamondosh shoirlarimiz ijodida ham A.da yozilgan she'rlar ko'plab uchraydi.

AZL – “Chetlatuvchi” ma’nosini anglatuvchi aruz atamasi bo’lib, adadib tilda cho’ziq o’qiluvchi unlilarni she’riy asarlarda vazn talabiga ko’ra qisqa unli tarzida o’qilishini ifodalaydi.

BASIT (ar. بسيط - yoyiq) – aruz bahrlaridan biri, mustaf’ilun (– v –) va foilun (– v –) asllarining takroridan hosil bo‘ladi, mustaf’ilun rukni boshida ikki sabab (mus va taf) yoyilib turgani uchun shu nomni olgan. Bundan tashqari, B. bahri vaznlarining aruz va zarbida harakatlar, ya’ni qisqa unlilar yoyilgani uchun shunday nomlangan, degan fikrlar ham bor. B. bahri arab she’riyatiga xos bo’lib, o‘zbek she’riyatida qo’llanmaydi. Navoiyning “Mezon-ul-avzon” asarida B. bahrining bir vazni, Boburning “Muxtasar” asarida sakkiz vazni turkiy tilda bitilgan maxsus misollar bilan keltirilgan. Xususan, Navoiy:

Ishqing meni tunu kun majnunu zor aylamish,
Ko‘nglumni zoru hazin, jismim nizor aylamish, –
baytini misol qilgan bo‘lib, u basiti musammani solim (– v – / –v – /
– v – / –v –) vaznida yozilgan.

BAHR (ar. بحر - dengiz) – aruzda yozilgan she’rda ruknlarning takrorlanish tartibi, konkret she’rdagi o‘lchov asosi. Aruzda hijo, rukn, misra va bayt (arab aruzida harf, juzv, rukn, bahr, bayt) she’rning o‘lchov birliklari bo‘lib, bunda bayt konkret she’rning ritmik jihatdan tugal birligi, boshqalari esa uning tarkibiy qismlari sanaladi. B. misra doirasida voqe bo‘ladi, chunki ilk misradagi ruknlar tartibi keyingi misralarda aynan takrorlanadi. YA’ni, aruzda 8 ta rukn(asl)ning muayyan tartibdagi takroridan B.lar hosil bo‘ladi va ularning har biri o‘z nomiga ega. A.Navoiy “Mezon ul-avzon”da ko‘rsatishicha, aruzda 19 ta bahr mavjud, Bobur esa “Muxtasar”da 21 ta bahrni ko‘rsatadi. B.larning ettitasi (mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, komil va vofir) bitta rukn takroridan (mas., mafoiylun / mafoiylun... – hazaj; foilotun / foilotun... – ramal) hosil bo‘ladi, birgina maf’ulotu asli o‘zi mustaqil holda B. hosil

qilmaydi. Bittadan olingen ikkita asl takroridan yana 8 ta B. (muzori', hafif, mujtass, munsarih, muqtazab, tavil, madid va basit) hosil bo'ladi (mas., mafoiyun / foilotun... – muzori'; foilotun / mustaf'ilun... – hafif). Ikkita bir xil va bitta boshqa asl takroridan esa qolgan 4 ta B. (qarib, mushokil, g'arib va sari') hosil bo'ladi (mas., foilotun / foilotun / mustaf'ilun – qarib; foilotun / foilotun / mafoiyun – mushokil). O'zbek tili xususiyatlari bilan bog'liq holda she'riyatimizda B.lar qo'llanishdagi faollik darajasiga ko'ra farqlanadi: agar hazaj, ramal, rajaz, muzori', xafif, mujtass, munsarih, sari', mutaqorib B.lari faol qo'llangan bo'lsa, mutadorik, komil tavil B.lari juda kam uchraydi; vofir, muqtazab, madid, basit, qarib, mushokil, g'arib, ariz, amiq B.lari esa she'riyatimizda ishlatilmagan.

BAYT – (arabcha so'z bo'lib, "uy", "xona", "joy" degani) har biri bir necha rukndan tashkil topgan qofiyali yoki qofiyasiz ikki misra bo'lib, ular o'zaro bir butunlikni hosil qiladi.

VAZN (ar. وزن - o'lchov) – konkret she'rda yuzaga chiquvchi ritmik hodisa, metr, o'lchov. So'zlashuv amaliyotida "aruz vazni", "barmoq vazni" tarzida ishlatish kuzatiladiki, nazariy jihatdan bu to'g'ri emas. CHunki, aslida, aruz ham, barmoq ham ko'plab vaznlarni o'z ichiga olgan she'r tizimlaridir. V. she'r tizimi qonuniyatiga asoslangan holda aniq bir she'rning o'lchovini bildiradi. Masalan, aruz tizimi qisqa va cho'ziq hijolarning muayyan tartibda takrorlanishiga asoslanadi, V. esa takrorlanishning konkret she'rdagi tartibini belgilayotgan o'lchovni bildiradi. Agar "g'azal ramali musaddasi solim vaznida yozilgan" deyilsa, uning bir baytida 6 ta, har bir misrasida uchtadan rukn, har bir ruknda 4 tadan hijo borligi, hijolar "cho'ziq-qisqa-cho'ziq-cho'ziq" tartibida guruhlangani anglashiladi. YA'ni, bu g'azal ritmi shu o'lchov asosida tartibga solingan, uning barcha misra va baytlari ritmik jihatdan shu o'lchovga mosdir.

VASL (ar. وصل - ulanish, qo'shilish) – 1) aruzda yozilgan she'rlarda ayrim yopiq hijolar oxiridagi undoshni vazn talabi bilan o'zidan keyingi unli bilan boshlangan so'zning birinchi hijosiga qo'shib o'qish hodisasi. Masalan, Mashrabning:

Sajda aylar zohid ul mehrobig‘a,

Man qilurman sajda egma qoshima, – baytidagi “zohid ul” (— — —) birikmasi V. qoidasiga ko‘ra “zo-hi-dul” (— v —) tarzida o‘qilishi lozim, aks holda she’r vazni buziladi. CHunki bayt ramali musaddasi maqsur (foilotun, foilotun, foilun) vaznida bo‘lib, agar V. qoidasiga riosa qilinmasa, birinchi misra xashvidagi ikkinchi hijo qisqa bo‘lmay qoladi, natijada vaznda buzilish yuzaga keladi. 2) mutlaq qofiya (q.) unsuri.

VASF (ar. **وصف** – tavsiflash, tasvirlash, sifatlash) – biror narsa, hodisa yoki shaxsni maqtash, madh etish, chiroylı o‘xshatishlar, majoziy iboralar bilan ta’rifu tavsif berish. V. alohida janr emas, balki tavsifiy xarakterdagi qator janrlar(qasida, madhiya, faxriya va b.)ga xos ifoda yo‘sini, usulidir. V. xarakteridagi she’rlar qasidadan ajralib chiqqan bo‘lib, johiliyat davri arab she’riyatida shoirlar o‘z tuyasi, oti yoki boshqa vahsiy hayvonlarni, sahrodagi turli hodisalarni V. qilib she’rlar bitgan bo‘lsa, keyinchalik uning mavzu ko‘lami kengaydi: biror shaxs, shahar, bino, yil fasllari, oy, qalam yoki qalamdon, boshqa biror buyum, zeb-ziynat va sh.k.larni tavsiflash maqsadida she’rlar bitildi. Ko‘rinadiki, V.ning mavzusi cheklangan emas. Shunga qaramay, mumtoz she’riyatimizda ma’shuqa yoki uning biror uzbini tavsiflashga bag‘ishlangan she’rlar (mas., “Kokuling”, “Sochlaring”, “Qoshlaring”, “Surating” radifli g‘azallar) ko‘proq uchraydi. Odatda, shoир biror narsani V. qilar ekan, uning jamiyatdagi yoki o‘z hayotidagi o‘rni, ahamiyatiga baho beradi, unga o‘zining munosabatini ifodalaydi.

VATAD (ar.qoziqcha) – sokin va mutaharrik harflarning muayyan – ط tartibda birikishidan hosil bo‘luvchi ritmik birlik, juzv (q.). Harflarning qay tartibda birikishidan kelib chiqib V.ning ikki turi farqlanadi: V.i majmu’ (yoki maqrün) va V.i mafruq. Avval kelgan ikki mutaharrikka bir sokin harfning qo‘shilishidan V.i majmu’ hosil bo‘ladi: “samar”, “bashar”, “qamar” kabi so‘zlar shu vaznga mosdir. Masalan, “qamar”: mutaharrik (qa)+mutaharrik (ma) + sokin (r). V.i mafruqda esa ikki mutaharrik orasida bir sokin harf joylashadi: “nola”, “lola”, “zora” kabi so‘zlar shu vaznga mosdir. Masalan, “nola”: mutaharrik (no) + sokin (l) + mutaharrik (a).

VOFIR (ar. وافر mo‘l) – aruz bahrlaridan biri, harakati, ya’ni qisqa unlilari ko‘p bo‘lgani uchun shunday nom berilgan. Mafoilatun aslining (v – v v –) takroridan hosil bo‘ladi. V. arab she’riyatiga xos bahr bo‘lib, o‘zbek va fors she’riyatida qo‘llanmagan. Faqat Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon” asarida V. bahrining ikki vazniga, Bobur esa “Muxtasar”da yigirma bir vazniga to‘xtalib, ularga maxsus baytlar bitib misol sifatida keltirganlar. Xususan, “Muxtasar”da:

Kel ey qaro ko‘z, manga guzar et,

Budur sang a so‘z, manga nazar et, – bayti vofiri murabba’i solim (v – v v – \ v – v v –) vazniga misol sifatida keltirilgan.

ZARB - aruz ilmiga ko‘ra she’riy baytlarning ikkinchi misrasidagi oxirgi rukn o;rni nomi.

IMOLA – aruz atamalaridan bo‘lib vazn taqazosi bilan tarkibida cho’ziq unli bo‘lgan ayrim yopiq hijolarni, unlini cho’zib talaffuz qilish hisobiga o’ta cho’ziq hijo qilib o’qishni ifodalaydi.

ISTIHLOF - aruz atamalaridan bo‘lib, jonli tilda qisqa talaffuz qilinuvchi ba’zi unlilarni she’rni o’qish chog’ida cho’ziq unli sifatida talaffuz qilishni ifodalaydi.

KOMIL BAHRI – she’riyatimizda juda kam qo’llangan ayrim yirik ijodkorlarning asaridagina qo’llangan bahr bo‘lib, mutafoilun aslining takroriga asoslanadi.

MAKSHUF - maf’ulotu aslining kashf (ochish) zihofiga duch kelishi natijasida hosil bo‘lgan, maf’uvlun (chizmasi: - - -) tarmoq rurnining nomi bo‘lib, ochilgan degan ma’noni ifodalaydi.

MAFOILUN - mustaf’ilun aslining “xabn” zihofiga duch kelishi natijasida hosil bo‘lgan tarmoq rukni bo‘lib, vazn chizmasida V- V- tarzida ifodalananadi.

JUZV (ar. جزو bo‘lak, qism, parcha, butun emas) – aruzda sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo‘luvchi ritmik birlik, harf bilan rukni orasidagi ritmik bo‘lak. Hozirgi adabiyotshunoslikda J. termini ko‘proq mazkur ma’noda qo‘llansa-da, mumtoz aruzshunoslikda ushbu tushunchani ba’zan rukni (Qays Roziy,

Husayniy, Navoiy), ba'zan esa asl (Taroziy) deb yuritilgan. J. termini arab aruziga tatbiqan faol, turkiy aruzga nisbatan esa kam qo'llanadi, chunki turkiy aruzda hijo termini harf va juzv ma'nolarini aksar o'ziga qamrab oladi. Shu bois ham Fitratdan keyingi o'zbek aruzshunosligida bu ikki termin o'rniga hijo terminini qo'llash ko'proq ommalashgan. J. mutaharrik (cho'zg'ili) va sokin (cho'zg'isiz) harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo'ladi va shundan kelib chiqib J.ning uch xili ajratiladi: sabab, vataf, fosila (q.).

ZARB (ar. ضرب urmoq, zarba bermoq; ikkinchi misraning so'nggi bo'lagini zarb bilan, urg'u bilan aytish)

ZIHOF (ar. زحاف o'zgargan, aslidan uzoqlashgan, chetlashgan, joyidan qo'zg'olgan) – aruz she'r tizimi asosini tashkil qiluvchi 8 aslning sifat yoki miqdor jihatidan turli o'zgarishlarga uchrashi. Asllarning Z.ga uchrashi natijasida ularing turli tarmoqlari – furu'lar hosil bo'ladi. Asllar uch xil yo'l bilan Z.ga uchrashi mumkin: 1) hijolarning miqdor jihatdan o'zgarishi. Bunda rukn tarkibidagi hijolar soni o'zgaradi, ya'ni, asosan, rukn tarkibidan bir yoki bir necha hijo tushib qoladi. Masalan, foilotun aslining hazf Z.iga uchrashi natijasida oxirgi cho'ziq hijo (tun) tushib qoladi va foilun (mahzuf) furu'si hosil bo'ladi. 2) hijolarning sifat jihatdan o'zgarishi. Bunda rukn tarkibidagi hijolar sifati o'zgaradi, ya'ni cho'ziq hijo qisqa yoki o'ta cho'ziq hijoga, qisqa hijo cho'ziq yoki o'ta cho'ziq hijoga, o'ta cho'ziq hijo qisqa yoki cho'ziq hijoga aylanadi. Masalan, mafoiyun aslining kaff Z.iga uchrashi natijasida oxirgi cho'ziq hijo (lun) qisqa hijoga aylanadi va mafoiyu furu'si (makfuf) hosil bo'ladi. 3) rukn tarkibidagi hijolar bir paytning o'zida ham miqdor, ham sifat jihatdan o'zgarishga uchraydi, ya'ni, rukn tarkibidagi bir yoki bir nechta hijo tushirilib, qolgan hijolardan birida sifat o'zgarishi yuz beradi. Masalan, mafoiyun aslining qasr Z.iga uchrashi natijasida oxirgi cho'ziq hijo (lun) tushirilib, undan oldingi cho'ziq hijo (iy) o'ta cho'ziq hijoga (iy) aylanadi va mafoiyl furu'si (maqsur) hosil bo'ladi.

ZULQAVOFI' (ar. ذوالقوافي – uch va undan ortiq qofiyali) – qofiya bilan bog'liq she'r san'atlaridan biri, bayt tarkibida uch yoki undan ortiq

qofiyadosh so‘zlar juftligini keltirish. Z. ritmni ayricha ta’kidlash orqali baytga o‘ziga xos musiqiylik, xushohanglik baxsh etadi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidan olingan quyidagi bayt Z.ga yaxshi misol:

Har qissada shukr sol tilimga,

Har g‘ussada sabr ber ilimga.

Mazkur baytda “tilimga – ilimga” juftligi asosiy qofiya bo‘lsa, “shukr - sabr” va “qissa - g‘ussa” juftliklari ham o‘zaro qofiyalanib kelmoqda. Z.ni tarse’dan farqlash kerak (q. tarse’). YA’ni, tarse’da misralardagi barcha so‘zlar o‘zaro qofiyadosh bo‘ladi, Z.da esa keltirilgan baytdagi kabi (sol – ber) bir yoki bir necha qofiyadosh bo‘lmagan juftliklar qolishi mumkin.

ZULQOFIYATAYN (ar. ذوقانيتين ikki qofiyali) – qofiya bilan bog‘liq she’r san’atlaridan biri, bayt tarkibida asosiy qofiyadan tashqari yana bitta qofiyadosh so‘zlar juftligini keltirish, ya’ni Z. baytda qofiyadosh so‘zlar juftligi ikkita bo‘lishini taqozo qiladi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidan olingan quyidagi bayt Z.ga misol bo‘ladi:

Lola qadahini toshqa urdung,

Jola guharini boshqa urdung.

IBTIDO (ar. ابتداء - boshlanish) – qarang: taqtı’

IBHOM (ar. ابهام – yopiq so‘zlash, yopib o‘tmoq, berkitmoq) – mumtoz adabiyotdagi she’riy san’atlardan biri. Ida gap bo‘laklari (asosan, bosh bo‘laklar) shunday joylashtiriladiki, ularning sintaktik vazifasini turlichay (ya’ni, egani kesim, kesimni ega tarzida) tushunish mumkin bo‘ladi va shu asosda boshqa bir ma’no kelib chiqadi. YA’ni, I. qo‘llangan bayt(misra)dagi gap bo‘laklarining o‘rnini almashtirib, shunga mos urg‘u va ohangda o‘qilsa, baytning ikkinchi ma’nosini kelib chiqadi. Masalan, “Visoling shavqidan kun bo‘ldi tun” misrasida “tun” ega deb tushunilsa, “tun yorishdi” ma’nosini; “kun” ega deb tushunilganda esa “kun tunga aylandi, kunning o‘tgani bilinmay qoldi” ma’nosini anglashilishi mumkin. “Qutadg‘u bilig”dagi:

Ba’zisi zolimdan chekadi alam,

Ba'ziga yo'qchilik keltiradi g'am, – baytida "yo'qchilik keltiradi g'am" jumlasini "yo'qchilik kishiga g'am keltiradi, kishi yo'qchilik tufayli g'am chekadi" tarzida ham, "g'am insonga yo'qchilik keltiradi, g'am chekkan inson yo'chilikka uchrashi mumkin" tarzida ham tushunish mumkin. I. san'ati mumtoz she'riyatda u qadar faol qo'llanmasa ham, o'ziga xosligi bilan hamisha ijodkorlar qiziqishiga sabab bo'lib kelgan. Shu bois hozirgi she'riyatda ham I. san'atining yaxshi namunalarini uchratish mumkin. Masalan, Erkin Vohidovning:

Aslida kim qarardi yotganda xor surma,

Bo'ldi aziz ko'ziga surtganda yor surma, – matla'sidagi ikkinchi misrani "yor ko'ziga surtgani uchun surma aziz bo'ldi" tarzida ham, "ko'ziga surma surtgani uchun yor aziz bo'ldi" tarzida ham tushunish mumkin.

ILMI ARUZ (ar. علم العروض – aruz ilmi) – mumtoz adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi, aruz she'r tizimining o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganuvchi soha, aruzshunoslik. I.a.ning asoschisi sifatida IX asrda yashagan arab olimi Halil ibn Ahmad e'tirof etiladi. Arab adabiyoti zaminida paydo bo'lgan aruz she'r tizimi o'tgan asrlar davomida maxsus o'rganilib, alohida ilm sifatida takomillashib bordi, aruz nazariyasiga doir ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Halil ibn Ahmaddan keyin arab aruzshunosligida Ibn Usmon Maziniy, Imom Ahmad ibn Abdurabbih, Ibn al-Xatib at-Tabriziy; fors aruzshunosligida Mavlono Yusuf Nishoburiy, Rashididdin Votvot, Shams Qays, Nasiriddin Tusiy, Salmon Savojiy, Abdurahmon Jomiy; turkiy aruzshunoslikda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Shayx Ahmad Xudoydod Taroziy kabi olimlar yaratgan asarlar I.a.ning rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan. Bundan tashqari, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Abul Qosim Zamahshariy, Abu Ya'qub Yusuf ibn Abubakr Sakkokiy kabi allomalarining boshqa masalalarga bag'ishlangan risolalarida ham aruzga oid qimmatli fikr-mulohazalar bildirilganki, I.a. rivojida ularning ham sezilarli ulushi borligi e'tirof etiladi. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida ham aruz masalalari atroflicha chuqr tadqiq etilgan: o'tgan asrning 20-yillarida Fitrat boshlab

bergan aruzshunoslik bobidagi izlanishlarni keyincha S.Mirzaev, A.Rustamov, U.To‘ychiev, S.Hasanov, A.Hojiahmedov, A.A’zamov kabi ko‘plab olimlar muvaffaqiyatli davom ettirdilar.

MUJTASS (ar. **مُجْتَس** – ildizi bilan yulingan) – aruz bahrlaridan biri, xafifdan yilib olinganga o‘xshaganligi uchun shunday nomlanadi. Mustaf’ilun (– v –) va foilotun (– v – –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo‘ladi. O‘zbek she’riyatida faol qo‘llanadigan bahrlardan biri. Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida M. bahrining to‘qqiz vazni, Boburning “Muxtasar”ida esa yigirma vazni misollar bilan ko‘rsatib berilgan. She’riyatimizda mazkur bahrning, asosan, beshta vaznidan foydalanilgan. Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy, Munis, Ogahiy, Nodira kabi mumtoz shoirlar ijodida M. bahrining bir necha vaznida yozilgan she’rlar uchraydi. Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” kulliyotida esa 348 ta she’r (11 foiz) M. bahrida yaratilgan. M. ning o‘ziga xos jihatlaridan biri uning ko‘p vaznli ekanlidir, ya’ni bir she’rda uning bir necha vaznlari aralash qo‘llanishi mumkin. Bu esa she’rga o‘ziga xos o‘ynoqi ohang baxsh etadi. Navoiyning quyidagi bayti mujtassi musammani maxbuni maqsur (v – v – / – v – – / v – v – / – v ~) vaznida yozilgan:

Ko‘ngul haroratin anglatti ohi dardolud,

Uy ichra o‘t ekanin elga zohir aylar dud.

Nodiraning mashhur:

Nigori gulbadanimni tushimda ko‘rsam edim,

Labi shirinshikanimni tutsshimda ko‘rsam edim

matla’li g‘azali esa mujtassi musammani maxbuni mahzuf (v – v – / v
v – – / v – v – / v v –) vaznidadir.

MUZORI’ (ar. **مَضَارِع** – o‘xshovchi) – aruz bahrlaridan biri, hazaj bahriga o‘xshagini uchun shunday nomlangan. Mafoylun (v – – –) va foilotun (– v – –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo‘ladi. M. she’riyatimizda ancha keng qo‘llanadigan bahrlardan sanaladi. Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida M.ning o‘n ikki vazni, Boburning “Muxtasar”ida yigirma to‘rt vazni misollar bilan ko‘rsatib berilgan. “Qissasi Rabg‘uziy”dan boshlab Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy kabi

mumtoz shoirlar ijodida M. bahrining bir necha vaznlaridan foydalanilgan. Xususan, Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” devoni dagi 105 ta turli janrdagi she’rlar mana shu bahrda yaratilgan. Masalan, Navoiy:

Ishqu junun erurlar beixtiyor manda,

Mendurmanu bu ikki, o‘zga ne bor manda.

baytini muzori’i musammani axrab (– v / – v – – / – – v / – v – –) vazniga misol sifatida keltirgan.

RUKN –(arabcha so’z bo`lib, “ustun” degani) misralarda hijolarning ma’lum tartibda guruhlanib kelishidan hosil bo`ladigan ritmik bo`lak. Asl ruknlar sakkizta. Ruknlar soniga ko`ra bir baytda to`rttadan 36 tagacha bo`ladi. To`rt ruknli baytlar murabba’, olti ruknli baytlar musaddas, 8 ruknli baytlar musamman, 12 va undan ortiq ruknli baytlar mutatavval deb yuritiladi.

TAQTI’ –(arabcha so’z bo`lib, “kesish”, “bo`laklarga bo`lish”degani) – aruzga xos atama bo`lib, she’r vaznini aniqlash uchun baytni ritmik bo`laklarga ajratish hisoblanadi.

HAZAJ –mafo`iylun aslining takroridan hosil bo`ladigan bahr bo`lib, qo’llanish ko`lamiga ko`ra ramal bahridan so`ng 2-orinni egallaydi. Alisher Navoiy “Mezon-ul avzon”da bu bahrga daxldor 46 vazn, Bobur “Muxtasar”da 105 vazn borligini aytib, misollar keltiradi.

HASHV – (arabcha so’z bo`lib, “ortiqcha so’z”, “mavzudan chetga chiqib aytilgan so’z” degani) she’r baytlarida ruknlarning soni oltita yoki sakkizta bo`lsa, 1-misrada sadr va aruz; 2-misrada ibrido va zarb orasidagi ruknning o’rniga ko`ra nomi. Baytda ruknlar coni to`rtta bo`lsa, hashf uchramaydi.

HIJO – (arabcha so’z bo`lib, “bo`g`in” degani) she’riyatda misralarni tashkil qiluvchi va bir nafas bilan aytiluvchi eng kichik ritmik bo`lak bo`lib, bir unlidan yoki bir unli bilan bir yoxud bir necha undosh tovushlar birikuvidan tashkil topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR

1. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 7-11-томлар (“Хамса”). – Тошкент: Фан, 1992-94.

2. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 16-том. – Т.: Фан, 1998.
3. Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002 й., 1-6 сонлар; 2003 й., 1-6 сонлар.
4. Аъзамов А. Аруз. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006.
5. Бобур. Мухтасар (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов). - Т.: Фан, 1971.
6. Болтабоев Ҳ. “Рисолаи аruz” ва аruz ҳақида / Мумтоз сўз қадри. – Т.: Адабиёт ва санъат, 2004.
7. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
8. Sharipova L. Aruz saboqlari. Usuliy qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 100 b.
9. Shodmonov N. Aruz vazni asoslari. – Qarshi: Nasaf, 2012.
10. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Т.: Tamaddun, 2018. 388-403-betlar.
11. Yusupova D. Aruz alifbosi. – Т., 2015.
12. Zahiriddin Muhammad Bobur “Muxtasar” (“Aruz risolasi”).
13. Зоҳидова Д. Аruz сабоқлари. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2016.
14. Мирзаев С. Навоий арузи. Номз. ... дисс. – Т., 1948.
15. Олимов М. Рисолаи аruz. – Т.: Ёзувчи, 2002.
16. Рустамов А. Аruz ҳақида сұхбатлар. – Т.: Фан, 1972.
17. Султонов И. Навоийнинг «Мезон ул-авзон»и ва унинг критик тексти. Номз. ... дисс. – Т., 1947.
18. Tohirov S. O‘zbek she’riyatida aruz. – Sam.: SamDU nashri, 2010.
19. Tohirov S.Q. Aruz vazni qoidalari. O‘quv qo’llanma. Samarqand, SamDU nashri, 2020. – В. 172.
20. Тўйчиев У. Арузшуносликка доир. – Т.: Фан, 1973. – Б. 42.
21. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аruz системаси. – Т.: Фан, 1985.
22. Тўйчиев У. Ўзбек шеър системалари. – Т.: Фан, 1981.
23. Фитрат. Аruz ҳақида / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изохлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. – Т.: Ўқитувчи, 1997.
24. Ҳасанов С. Бобурнинг “Аruz рисоласи” асари. – Т.: Фан, 1981.
25. Ҳожиаҳмедов А. Аruz назарияси асослари. – Т.: 1982.

26. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1978.
27. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006.
28. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи лугати. – Т.: Шарқ, 1998.
29. Шомуҳамедов Ш.М. Форс-тожик арузи. – Т.: ТошДУ, 1970.
30. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунылиги. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2011

M U N D A R I J A

1-MAVZU: ARUZ TIZIMI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT	3
2-MAVZU: ARUZ ILMIDA HIJO TUSHUNCHASI.....	11
3-MAVZU: ARUZGA XOS FONETIK HODISALAR	15
4-MAVZU: RUKN HAQIDA MA'LUMOT. ASLIY RUKRLAR.....	21
5-MAVZU: BAHRLAR VA VAZNLAR. BIR RUKNNING TAKRORIDAN HOSIL BO'LADIGAN BAHRLAR.....	29
6-MAVZU: BAHRLAR VA VAZNLAR. IKKI RUKNNING TAKRORIDAN HOSIL BO'LADIGAN BAHRLAR.....	47
7-MAVZU: ARUZ VA MUMTOZ SHE'RIY JANRLAR.....	57
8 -MAVZU: SHARQ ADABIYOTIDA MASNAVIYLAR VA ULARNING VAZN TARKIBI.....	67
Ilovalar	76
Test savollari	76
Lug`at.....	108
Foydalilanilgan ilmiy va o'quv adabiyotlari	117

QODIROVA NASIMA SAIDBURXONOVNA

**ARUZ VA MUMTOZ POETIKAGA
KIRISH**

Muharrir:

I. Subxoni

Tex. muharrir:

N. To`rayev

Sahifalovchi :

SH.Amonova

“Buxoro nashr” MCHJ guvohnoma raqami:831681. 26.03.2020.

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi. 13.11.2022

Bichimi 60x84.kengligi 16 shponli. “Times” garn.

Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog`ozi.

Bosma tabog`i 7,5. Adadi.100.

«Standart Poligraf» x/k bosmaxonasida chop etildi

Buxoro shahri, Navoiy shohko‘chasi 6-uy.